

ARZIQULOV O‘TKIRBEK MAXAMMATOVICH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

ARZIQULOV O‘TKIRBEK MAXAMMATOVICH

**TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA
KASBIY YO‘NALGANLIK VA O‘QUV
MOTIVLARINING NAMOYON BO‘LISHI**

Monografiya

Toshkent-2024

Tuzuvchi:

Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich– Andijon davlat tibbiyot instituti O‘zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrası o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Mas‘ul muharrir:

F.A.Akramova – Toshkent davlat pedagogika universiteti, Psixologiya fanlari doktori. professor

Taqrizchilar:

N.D.Axmedova – Andijon davlat tibbiyot instituti O‘zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrası kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

O.Sh.Muxtarov. – Andijon davlat Universiteti psixologiya kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

O‘.M.Arziqulov

Tibbiyot oliygohi talabalarida kasbiy yo‘nalganlik va o‘quv motivlarining namoyon bo‘lishi: Monografiya/Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich.: – Andijon: «JAHONA NASHR» nashriyoti, 2024 –133 b.

ISBN 978-9943-7518-4-2

Mazkur monografiyada tibbiyot oliygohi talabalarida kasbiy yo‘nalganlik va o‘quv motivlarining namoyon bo‘lishi tahlil qilingan.

Kitob Tibbiyot OTM professor-o‘qituvchilari, talabalari, magistrilar, tadqiqotchilar hamda O‘zbekistonda tibbiyot oliygohi talabalarining kasbiy yo‘nalganlik va o‘quv motivlari bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Monografiya Andijon davlat tibbiyot instituti Ilmiy kengashining **2024-yil 15-oktabrdagi 6i-78/m 11-son** qarori bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I BOB	TALABALAR KASBIY YO'NALGANLIGI VA O'QUV MOTIVLARI – PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR PREDMETI SIFATIDA	
§ 1.1.	O'tmish mutafakkirlari asarlari va o'zbek ilmiy psixologiyasida o'quv motivatsiya va kasbiy yo'nalganlik muammosining ilmiy talqini	12
§ 1.2.	Psixologik tadqiqotlarda kasbiy yo'nalganlik va o'quv faoliyati motivlarining o'rganilganlik darajasi	21
§ 1.3.	Talabalar shaxsi va ular faoliyatiga oid ilmiy tadqiqotlar sharhi	31
	Birinchi bob bo'yicha xulosa	38
II BOB	TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINING KASBIY YO'NALGANLIGI VA O'QUV MOTIVLARINING PSIXOLOGIK TAHLILI	
§ 2.1.	Tibbiyot oliygohi talabarlari kasbiy yo'nalganligi va o'quv motivlarini ilmiy tadqiq etish metodologiyasi	40
§ 2.2.	Tibbiyot oliygohi talabalarida kasbiy yo'nalganlik namoyon bo'lishidagi psixologik xususiyatlar	50
§ 2.3.	Tibbiyot oliygohi talabalarida o'quv motivlari va asosiy omillarning psixologik tavsifi	60
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	75
III BOB	TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA O'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEZONLARI	
§ 3.1.	Tibbiyot oliygohi talabalarida o'quv motivlari dinamikasini ta'minlashga empirik yondashuv	81
§ 3.2.	Tibbiyot oliygohi talabalarida kasbiy yo'nalganlik va o'quv motivlari o'zaro bog'liqligining asosiy ko'rsatkichlari	88
§ 3.3.	Tibbiyot oliygohi talabarlari o'quv motivlarini rivojlantirishning psixologik modelini joriy etish	98
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa	109
	XULOSA	120
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	123

KIRISH

Jahondagi oliy ta'lim tizimlarida yetishib chiqayotgan mutaxassislarning shakllanishiga xizmat qiluvchi, rivojlantiruvchi omil va vositalarga jiddiy e'tibor qaratish orqali oliy ta'lim sifatini oshirish - zamon talabidir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining «XXI asrning Oliy ta'limi» Butunjahon Deklaratsiyasi, YUNESKOning «Ta'lim barcha uchun» dasturiy hujjatlarida ta'kidlanishicha, jahon hamjamiyatida bakalavr yo'nalishlarida uzluksiz va sifatli ta'limni yangicha yondashuv asosida yo'lga qo'yish, jumladan, bo'lajak shifokor mutaxassislarni kasbiy va psixologik jihatlarini o'rganish, kelajakda bemorlar hamda ularning qarindoshlari bilan tibbiy etika tamoyillariga rioya etib ehtiyotkorona munosabat o'rnatish asosida malakali va zamonaviy bilimlarga ega sifatli kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada tibbiyot oliygohi talabalarida kasbiy yo'nalganlik va o'quv motivlarini ilmiy tadqiq etish, yanada rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida shifokorlik kasbining murakkabligi tufayli tibbiyot oliygohi talabalarida kasbiy yo'nalganlik va o'quv motivlarini adekvat shakllanishining psixologik mexanizmlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, tibbiyot oliygohlarida o'quv jarayonini samarali tashkil etish muhim bo'lib, o'quv jarayonining amaliyot bilan uyg'unligini ta'minlashda shifokor mutaxassislarni kasbiy va psixologik jihatdan tayyorlash, muloqot o'rnatish qobiliyatlarini rivojlantirish, qo'rquv, xavotir, stress holatlarni aniqlash, tushuntirib berish muammolari doirasida izlanishlar olib borishga yo'naltirilgan psixologik tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim tizimi orqali kasbiy rivojlanish jarayonining o'ziga xos samarasini ta'minlashda oliy ta'limda tibbiyot yo'nalishlaridagi talabalarni o'qitish sifatini oshirish va qo'llab-quvvatlash choralari belgilanib, mazkur yo'nalishda zarur huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi: «...Yangi O'zbekistonda, albatta, har tomonlama sog'lom, o'zining kuch-qudrati,

barkamolligi bilan o'zgalarning havasini uyg'otadigan avlodlar yashashi uchun... strategik vazifa bo'lishi...» ga erishish, «...inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali ... ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga tibbiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda...» kabi vazifalarni yechimiga qaratilgan yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish uchun mustahkam asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28- yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

I BOB. TALABALAR KASBIY YO‘NALGANLIGI VA O‘QUV MOTIVLARI – PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR PREDMETI SIFATIDA

§ 1.1. O‘tmish mutafakkirlari asarlari va o‘zbek ilmiy psixologiyasida o‘quv motivatsiya va kasbiy yo‘nalganlik muammosining ilmiy talqini

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmonida jamiyat oldida yaqin yillarda turgan vazifalar 7 ta yo‘nalish va 100 ta maqsaddan iborat etib qayd qilingan. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 73-maqsadida: “Buyuk ajdodlarning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish” vazifasi belgilangan. [2]

Mavzuni ilmiy tahlilida buyuk ajdodlarning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etishda ularning ayrimlariga murojaat etamiz.

Buyuk allomalar asarlarida xulq, muomala, faoliyat motivlari va kasbiy yo‘nalganlik muammolariga oid qarashlar inson ruhiyatiga ahamiyat berish zarurligiga qaratilgan bo‘lib, shu bois psixologiyani haqli ravishda falsafa negizida shakllangan fan deyish mumkin.

O‘tmish mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad Farg‘oniy, Jaloliddin Davoniy va boshqalar betakror insoniy zakovat va iste’dod egalari bo‘lganlar. Ular insonning yoshligidan boshlab kasb-hunarga ega bo‘lishi, ilm olishi masalasiga alohida ahamiyat berib va ularni keltirib chiqaruvchi hamda keyinchalik harakatlantiruvchi sabablar - motivlar, kasbiy yo‘nalganlik to‘g‘risida o‘z fikrlarini bildirganlar.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lgan “Avesto”da – oilada tug‘ilgan farzandlar qiz bola yoki o‘g‘il bola bo‘lishidan qat’iy nazar, bilim va zarur hunar egallashda teng ijtimoiy mavqega ega shaxslar sifatida gavdalanadi, ayollar erlaridan qolishmaydigan jasoratli qilib tasvirlanadi. Mazkur asarda Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbek urug‘lari va elatlarining o‘ziga xos xususiyati sifatida har qaysi inson o‘z farzandining baxt-saodati, fazli kamolini

ko‘rish uchun butun hayoti davomida mehnat qilishi, o‘zini ayamasligi zarurat etib belgilangan. Chunki “Avesto” hozirgi o‘zbek millati, uning etnik ongi va o‘ziga xos ildizlarini vujudga keltirgan davr (VII asrgacha) uchun qoidalar va qonunlarning to‘plami hisoblangan. Mazkur davr o‘zbeklarning milliy xarakterini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, u bitta avlod kishilarining asari emas, balki o‘z mohiyatiga ko‘ra, hozirgi Markaziy Osiyo va Sharq davlatlari hududlarida yashagan xalqlar donishmandligining xazinasini hisoblanadi [60].

“Avesto”ning ma’naviy-psixologik qimmatini shundaki, u ko‘p asrlar davomida yoshlarga ilm-u ma’rifatni o‘rgatish, axloq-odob fazilatlarini shakllantirishdek muhim vazifalarni bajargan. “Har bir kishini shunday tarbiyalash zarurki,- deyiladi “Avesto”da, - u, avvalo, yaxshi o‘qish va yozishni o‘rganib, eng yuksak pog‘onaga ko‘tarilsin”.

“Avesto”da ta’lim va tarbiya quyidagilarni o‘z ichiga olgan:

1) Diniy va axloqiy tarbiya. 2) Jismoniy tarbiya. 3) O‘qish va yozishga o‘rgatish.

Bolalarda ilk yoshlikdan mehnatsevarlik, ilm va hunarga intilish ko‘nikmasini shakllantirishga e’tibor berilgan hamda maishiy mehnat turlariga o‘rgatilgan. Zardushtiylik ta’limoti umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlar qaror topishida, shuningdek, tarbiyashunoslik, o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligi va odobining shakllanishida muhim tarixiy manbalardan biri hisoblanadi.

Muqaddas Hadisi shariflarda ota-onalarning farzandlar oldidagi burchlaridan biri, farzandni yaxshi muallim qo‘liga topshirib uning savodini chiqarish va kasb-hunar o‘rgatishdir, deyiladi [61].

O‘tmish olimlarining talqiniga binoan, ichki turtkilarni aniqlovchi va harakatga keltiruvchi, muhim omiliy xususiyat kasb etishda ulug‘ zot - ustoz hisoblanadi. Aynan ustoz orqali anglangan motivlar va shaxsiy motivatsiyani vujudga keltirish, ularni barqarorlashtirish amalga oshadi. Anglanmagan motivlar, motivatsiya tabiiy ravishda namoyon bo‘ladi va shaxsni u yoki bu faoliyatni amalga oshirishga undaydi.

Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asarida o‘quv- tarbiya jarayoni yagona jarayon ekanligini ta’kidlab, bola ta’limida o‘qish oddiylikdan murakkablikka qarab borish qoidasiga amal qilish, bolaning jismoniy va psixologik imkoniyatlariga xos motivlar yordamida mashqlarni bajartirish muhim ekanligini ta’kidlaydi. Muallif ta’lim oluvchi bolalarni yakka-yakka o‘qitishdan ko‘ra, jamoada ta’lim-tarbiya berish, bolaning ma’suliyatini oshirishi, turli motivlar ostida o‘qishga undashi, jamoada o‘qitilganida ularda intiluvchanlik, qiziqish va boshqalardan ortda qolmaslik motivlari ustun turishini uqtiradi. Bunday motivlarning ahamiyati, asosan, shaxs nutqining o‘sishi, dunyoqarashining kengayishi, xotirasining mustahkamlanishida o‘z samarasini berishini asoslaydi [62].

Ibn Sino inson ichki dunyosi rivojlanishida ichki motivlar va shaxs asablariga ta’sir qiladigan- vaziyatlardan qo‘rqish, xafalik, xudbinlik, loqaydlik va boshqalardan ko‘ra, yetuk insonlar uchun eng yaxshi xislatlar bo‘lgan kamtarlik, mehnatsevarlik, odamoxunlikni, ya’ni tashqi motivlarni muhim deb qaraydi [62].

Ibn Sino o‘quv motivatsiyasi haqida mulohaza yuritib shunday deydi: “Inson o‘z faoliyatida nimagaki erishsa, u faqat o‘z mehnati bilan amalga oshira olmaydi, ularni yaratish uchun boshqalar ham ishtirok etishi kerak yoki jamoa yordam berishi lozim. Buning uchun jamoa a’zolari o‘zaro yaxshi munosabatda bo‘lishlari kerak. Yaxshilik odamlarni inoqlikka, yomonlik esa kelishmovchilikka olib boradi. Aniq maqsad bilan harakat qilish insonni va jamoani yomondan saqlaydi, yaxshi ishlar qilishga yo‘llaydi, unda ishonch tuyg‘usini uyg‘otadi” [62].

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Abu Ali Ibn Sinoning g‘oyalari nafaqat o‘z davrining ta’lim oluvchilari uchun o‘quv motivlarining ahamiyatini ko‘rsatibgina qolmay, balki hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, ustoz, eng avvalo, matonatli, sof vijdonli, rostgo‘y va bolani tarbiyalash usullari hamda axloq qoidalarini mukammal biladigan bo‘lishi shart bo‘lib, bu orqali ta’lim oluvchining ichki va tashqi olamini o‘rganib, uning aql qatlamlariga kira olgandagina unda fanga, olamga nisbatan qiziqish (motiv) uyg‘ota oladi, kasbiy yo‘naltirishga erishadi.

Abu Ali ibn Sino iborasi bilan aytganda, ta'lim oluvchiga qaratilgan har bir so'zni ustoz imo-ishoralar bilan to'ldirib bormog'i (bizningcha, ushbu xatti-harakat tashqi motiv bo'lib), u ta'sir o'tkazish mexanizmi vazifasini o'taydi.

Ma'lumki, ta'lim oluvchilarning ta'lim olishiga qaratilgan motivatsiyasini aniqlamay turib kasb tanlashga yo'naltirish mumkin emas. Bu borada Abu Nasr Farobiy o'z fikr va mulohazalarini "Fanlarning ta'rifi va tasnifi haqida kitob", "Hajm va miqdor to'g'risida kitob", "Fozil shahar aholisi qarashlari to'g'risida kitob" va boshqa qator asarlarida inson hayoti, muomala maromi hamda ularning motivatsiyasi haqida fikr yuritadi. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, uning o'sha davrga xos bo'lgan falsafiy muammolar tana va ruh, materiya, harakat, fazo va vaqt, harakat manbayi, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik hamda fiziologik, psixologik jarayonlar to'g'risidagi tasavvurlari negizida kasb tanlash, kasbga yo'naltirish bilan bog'liq g'oyalar mujassamlashib ketgan [99].

Abu Nasr Farobiy yetakchi o'ringa muallim faoliyatini qo'yib, uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi ibratli fikrlari qiymati beqiyosligini ko'rsatadi. Allomaning mulohazasicha, muallimning vazifasi aqlli davlat boshlig'i vazifasiga o'xshab ketadi. Agar rahbar dono bo'lsa, uning qo'l ostidagi shogirdlari ham undan kam bo'lmaydi. Xuddi shu sababli o'qituvchi o'zining ichki va tashqi motivlarini ishga solgan holda ibratli, dono, sabr-toqatli, chiroyli nutqqa ega, talabchan, mehribon, adolatli, fahm-farosatli va kamtarin bo'lishi kerak. Uning fikricha, ustoz faqatgina yaxshi bilimga ega bo'libgina qolmay, balki o'zida mujassamlangan "bilimlar kitobini" o'z o'quvchilariga o'qita olishi kerak. Bularning barchasi anglanilgan kasbiy motivatsiyasini vujudga keltiradi va uning regulyatori vazifasini o'taydi [100].

Abu Rayhon Beruniy yirik qomusiy olim bo'lib, dunyoqarashining kengligi, ilmiy qiziqishlari fanning g'alabasi uchun tinimsiz kurashi uning nomiga abadiylik muhrini bosgan.

Alloma asarlarida o'qituvchining kasbiy mahorati o'zining nozikligi, ma'suliyatlilik, murakkabligi, sharafliligi uning shaxsiy fazilatlari, xislatlari va sifatleri bilan ajralib turishlilik atroflicha yoritilgan. U har bir narsani aniq,

sinchiklab o'rganishi va keyinchalik bir xulosaga kelishi kerakligi, bunda, ayniqsa, tajribaga asoslanishni alohida uqtiradi, nodonlik, qalloblik, erinchoqlik, ilmsizlik va sun'iy e'tiqodni tanqid qiladi.

Abu Rayhon Beruniy ilm olishda axloqiy poklikni yuqori o'ringa qo'yib, ta'lim va tarbiyani bir xil izchillikda olib borganlar komil inson darajasiga erishadilar, - deydi. Uning fikriga ko'ra, bilim olish uchun ta'lim oluvchilarda avvalo intilish va qiziqish bo'lishi kerak. Darhaqiqat, nimanidir o'rganish, tadqiq qilish uchun insonda intilish, harakat va qiziqish bo'lmasa, u hech narsaga erisha olmaydi. Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonida muallim o'z malaka va bilimlarini doimo orttirib, zamonga moslashib borishi lozim.

Abu Rayhon Beruniy ilm olishda takrorlashga zo'r berib, yosh o'quvchilarni toliqtirib va zeriktirib qo'ymasdan, turli psixologik usullarni qo'llashni, shu orqali ularning tafakkurini boyitib, bilimlarini chuqurlashtirib borishni ilgari surgan buyuk zotdir. U ta'lim oluvchilarning o'qishga nisbatan bo'lgan qiziqishini so'ndirmaslik uchun ularning yoshiga xos xususiyatlarini inobatga olish kerakligini e'tirof etadi.

Allomaning fikricha, «insonning qadr -qimmati o'z vazifasini a'lo darajada bajarishdan iborat, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o'zni mehnati bilan belgilanadi, mehnati tufayli erishiladi. Bunday fikr o'z navbatida ilm oluvchi va ilm beruvchilar uchun tashqi motivlarning rivojlanishida o'z samarasini beradi [21].

Alisher Navoiy Sharq mutaffakkirlari an'anasini davom ettirib, ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlarini insonparvarlik g'oyasi bilan uyg'unlashtira olgan. U o'quvchining qat'iyligi, mehnatsevarligi, bilimdonligi, mehribonligi, saranjom-sarishtaligi, yaxshi odatlari va yurish-turishlari bilan hammaga namuna bo'lishi xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashishni, shunga qaramasdan tarbiya ishi juda ham mashaqqatli hamda murakkab ish ekanligini alohida e'tirof etgan [69].

Buyuk mutafakkir o'z asarlarida bilimlarni egallash mashaqqatli ekanligi, buning uchun o'quvchida fanlarga nisbatan bo'lgan ijobiy motivlarning mavjud bo'lishi zarurligi to'g'risida fikr yuritadi [70].

Kasbiy yo‘nalganlik va o‘quv faoliyati motivlari bo‘yicha atoqli fan va madaniyat arbobi, buyuk ma‘rifatparvar shaxs Abdulla Avloniy bo‘lg‘usi kadrlarni kasbiy mahoratini yuksaltirish masalalariga mutlaqo yangicha yondashib, o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari, axloqi, odobi, bilimdonligi, ziyrakligi, farosati, aql-zakovati ta‘lim va tarbiya uchun asosiy negiz ekanligini ta‘kidlab o‘tadi. Uning fikricha, o‘zaro hurmat ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish yo‘lidir.

Abdulla Avloniy ijtimoiy hamkorlik faoliyatiga erishishda ichki va tashqi motivlarni vujudga keltirish zarurligini ta‘kidlaydi. Har bir ishning negizida kasbiy yo‘nalganlik jarayoni bo‘lishi ma‘rifatparvar shaxs tomonidan uqtiriladi [82].

Jaloliddin Davoniy ta‘lim oluvchilarning xulq odobiga salbiy ta‘sir etuvchi, qo‘pol va badjahl muallimlarning xatti-harakatini qoralaydi. Bu orqali tashqi motivlarning ta‘sirini quyidagicha izohlagan: “...agar ota bolaning jismini tarbiyalashga sababchi bo‘lsa, muallim uning ma‘naviy tarbiyasini kamolotga yetishuviga sababchidir”. Uning fikricha, muallim bola qaysi kasbga qiziqsa, shu kasbni egallashiga yordam berishi, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab unga turtki berishi lozim. U eng yaxshi insoniy fazilatlarni - adolat, sadoqat, donolik, zukkolik, sabr-toqat, qanoat, mehr-shafqat, sabr-matонат, saxiylik singari motivatsiyalarga erishiladi [83].

Husayn Voiz Koshifiy bolaning fikrlash qobiliyatini o‘stirish haqida mulohaza yuritir ekan, bu masalada muallimlar oldiga mas‘uliyatli vazifalarni qo‘yadi. “Murabbiy bolaga nasihat va ta‘lim berishda lutf-u odob qoidalariga roya qilishi darkor”ligini alohida uqtiradi [84].

Motiv va motivatsiya haqida hozirgi zamon psixolog olimlarning fikrlari ham diqqatga sazovordir [71, 74, 75, 82, 83, 91, 92, 100, 108, 170].

A.A.Fayzullayev (1987) tadqiqotlarida motivatsion jarayonni bosqichma-bosqich tahlil qilishni taklif qilib, mazkur jarayonni beshta bosqichga bo‘lib o‘rganilgan: 1- qo‘zg‘alishning anglanishi; 2 – motivning qabul qilinishi; 3 – motivning hayotga tadbiiq qilinishi; 4 – motivning mustahkamlanishi; 5 - qo‘zg‘alishning faollashuvi [71]. Olimning motivatsion jarayonni bosqichlarga

bo'lib o'rganishi psixologik tahlilni osonlashtirishi va ma'lum ma'noda bu jarayonni boshqarish imkoniyatini orttirishi bilan qimmatlidir.

A.A.Fayzullayev ilmiy tadqiqotlarida shaxs motivatsion o'zini o'zi boshqarishning turli-tuman omillari tahlil etilgan. Bu omillar shaxs motivatsiyasining xususiyatlariga, motivatsion boshqarish sharoitlariga, boshqarishni amalga oshirish usullari va natijalariga ham taalluqlidir. [74].

M.G.Davletshin (1997) mazkur muammoga texnik qiziqishlar, texnik qobiliyatlar nuqtayi nazardan yondashgan olimdir. Uning fikricha, yoshlarni kasb tanlashga yo'llash, kasbiy moslashish, kasbiy tarbiyada etnopsixologik xususiyatlarni ham o'rganish zarurdir. M.G. Davletshin va uning shogirdlari o'qituvchilik kasbini tanlash motivlari, kasb tanlash psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari bilan shug'ullanishgan.

O'quv motivlari va kasbiy yo'nalganlik haqidagi izlanishlardan R.Z.Gaynutdinovning (1992) tadqiqotlarini ham keltirish o'rinlidir. Olimning tadqiqotlarida shaxs tomonidan kasb tanlashning psixologik asoslari, kasbiy tayyorgarlik bosqichlari, kasbiy mahoratni oshirish mexanizmlari, tashxisda motiv (motivatsiya) ning roli, motivatsiya iyerarxiyasini ta'minlash masalalari ilmiy o'rganilgan [75].

A.M.Jabborovning (2006) izohlashicha, o'zbek maktabi o'qituvchisining milliy-psixologik qiyofasi va uni belgilovchi asosiy omillar orasida o'qituvchi tomonidan talabalar ongida bilim olishga nisbatan bo'lgan ijobiy motiv va motivatsiyalarni shakllanishiga erishish mumkin bo'ladi [35].

S.X.Jalilovning "Pedagogika instituti talabalarida shaxsiy sifatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi (1994) talabalarda shaxsiy sifatlar shakllanishining dinamikasini aniqlashga bag'ishlangan. Bizning tadqiqotimizdan farqli ravishda pedagogika institutlaridagi ta'lim jarayonida talabalarni sistemali o'rganishda "retrospektiv", "real", "ideal" va "refleksiv" - "men" va bir-biri bilan taqqoslash orqali talabalarning shaxsiy kasbiylashuv jarayoniga ta'sir etish omillari tadqiq etilgan. S.X.Jalilovning fikricha, talabalar shakllanishining psixologik xususiyatlarini aniqlagach, ularning

o‘qish imkoniyatlarini rivojlantirish, o‘zlari va atrofdagilarga hamda jamiyatga bo‘lgan subyektiv munosabatlarini psixologik jihatdan qayta yo‘naltirish kerak. Aytish kerakki, mazkur tadqiqotdan olingan ma’lumotlar asosida talabalar bilimini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar milliy psixologiyaning eng yaxshi an’analarini boyitishga xizmat qilgan. [36]

V.M.Karimova (1998, 2002) tomonidan motiv va motivatsiya muammosiga ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan qarash ilgari surilgan. Ayniqsa, bu masala ayollar va yoshlar muammosini ochib berish, milliy g‘oya va milliy mafkuraga yondashish nazariyalarida o‘z ifodasini topgan. Bunda muloqot masalasiga bevosita va bilvosita yondashishda muallifning shaxsiy qarashlari muhimligi alohida ta’kidlanadi [45,46,47].

Z.T.Nishonova (2005) tomonidan ishlab chiqilgan psixologik treninglarda o‘quv faoliyatining guruhviy shakllari orqali motivatsiyani shakllantirish zarurligi isbotlangan. Bu esa ta’limda har bir ta’lim oluvchi uchun yuksak faollik va mustaqillikni ta’minlashga xizmat qiladi. Jumladan, sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun ham qulay vaziyat yaratiladi, har bir subyekt o‘zini o‘zi namoyon qilish ehtiyojini qondirish imkoniyati vujudga keladi [75, 76, 77].

A.X.Ruxiyevaning “Talabalar o‘quv faoliyatida o‘z-o‘zini boshqarishning psixologik xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida (1993) o‘quv faoliyatini boshqarish deganda maqsadga yo‘naltirilgan, rejalashtirilgan, nazorat qilishga mujassamlashtirilgan mustaqil bilim olishga qodir bo‘lgan faoliyat tushunilishi, o‘z-o‘zini boshqarishning barcha komponentlarining o‘ziga xos xususiyatlari, kasbiy qiziqishni takomillashtirish orqali talabaning o‘quv faoliyati obyektiga aylanishi isbotlangan.

E.G‘.G‘oziyev (1994, 2001) ning “O‘quv faoliyatini boshqarish” nomli o‘quv qo‘llanmasida o‘quv jarayonini boshqarish, kasb psixologiyasi keng doirada talqin qilinib, yoshga xos tafakkur jarayonlarining rivojlanish ko‘rsatkichlari muammolariga ahamiyat berilgan. E.G‘.G‘oziyevning (2003) motivatsiyaga bag‘ishlangan ko‘pgina asarlari muammoning metodologik, nazariy jabhalarini tekshirishga keng imkoniyat yaratadi. Uning “O‘quv faoliyatini boshqarish”, “Oliy

maktab psixologiyasi”, “Hamkorlik psixologiyasi”, “Kasb psixologiyasi”, “Shaxs va kasb tanlash” kabi asarlari bu sohadagi muhim tadqiqot natijalari hisoblanadi [106, 107, 112,113, 114].

B.R.Qodirovning (2001) tadqiqotlarida o'quv motivi va motivatsiyasini hisobga olmasdan turib ko'zlagan maqsadga erishib bo'lmaslik masalalari isbotlangan.

Shunday qilib, keltirilgan ma'lumotlar o'tmish mutafakkirlari va hozirgi zamon psixolog olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'quv motivatsiyasi va kasbiy yo'nalganlikning roli muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilganligi kuzatilar ekan, bu o'z navbatida ijtimoiy-psixologik va pedagogik-psixologik fanlarning rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

1.2 Psixologik tadqiqotlarda kasbiy yo'nalganlik va o'quv faoliyati motivlarining o'rganilganlik darajasi

Psixologiya fanida talabalarning kasbiy yo'nalganligi mavzusini psixologik jihatdan o'rganish oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etishda bo'lajak mutaxassislarning shaxs sifatida shakllanishi, tanlagan kasbi bo'yicha mavjud qobiliyatlarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Psixologiyada kasbiy yo'nalganlikni rivojlantirish kasbiy faoliyatga talabalar o'quv faoliyatining muhim yo'nalishi sifatida alohida e'tibor beriladi.

So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayonlarda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy jihatdan shakllantirish va rivojlantirish ularning kelajakdagi mehnat faoliyati uchun kerak bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni egallash zarurligini ko'rsatmoqda.

Shaxsning yo'nalganligi - bu shaxs faoliyatini yo'naltiruvchi va mavjud vaziyatlarga nisbatan mustaqil bo'lgan barqaror motivlar, qiziqishlar, tendensiyalar, munosabatlar va ideallar majmuyidir, u asosan ehtiyojlarga asoslanadi, ular inson faoliyatining manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Kasbiy yo'nalganlikning psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan.

Psixolog olim B.F.Lomov shaxsning kasbiy yo'nalganligi konsepsiyasini muammo sifatida o'rgangan bo'lib, shaxsning kasbiy rivojlanish qonunlari, kasbiy faoliyat davomida qobiliyatlarni namoyon bo'lishining alohida tomonlarini ilmiy tadqiq etgan. O'zi va boshqa mualliflar ishlarining natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish asosida B.F.Lomov kasbiy yo'nalganlikning bir qator "shakllantiruvchi" tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatgan, masalan, motiv, maqsad, faoliyatni rejalashtirish, joriy ma'lumotlarni qayta ishlash, qaror qabul qilish, harakatlar, natijalarni tekshirish shular jumlasidandir. Ushbu keltirilgan tarkibiy qismlar bir-biriga chambarchas bog'langan bo'lib, o'z navbatida talabalarning bo'lgusi kasbiy faoliyatida amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, B.F.Lomov tomonidan yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillar shaxsning kasbiy jihatdan yo'nalishlarini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi, ulardagi kasbiy rivojlanish bosqichlarini amalga oshirishda muhim rol vazifasini o'taydi.

B.F.Lomov ta'kidlaganidek, kasbiy yo'nalganlik darajasini rivojlantirish, kasbni egallashga bo'lgan qiziqishlari talabalarda kelajakda kasbiy faoliyatining muhim mezonlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ko'pgina tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, kasbiy yo'nalganlikni rivojlantirish, o'quv faoliyati jarayonidagi olingan va o'zlashtirilgan bilimlari hamda tanlangan kasbga bo'lgan qiziqishlar o'quv jarayonidagi murakkab aqliy harakatlarni bajarishni yengillashtiradi hamda o'zining kelajakdagi mehnat faoliyatida namoyon bo'ladi.

Yoshlarning kasbiy jihatdan shakllanishi va rivojlanishi ko'p qirrali va o'zgaruvchan bo'ladi. Tanlangan kasb zahirida ehtiyojlar, qiziqishlar, rejali maqsadlar hamda shunga o'xshash ko'rinishdagi harakatlarni rivojlantiruvchi jarayonlarning juda katta tizimlari namoyon bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, tibbiyot oliygohi talabalarining kasbiy jihatdan mukammal bo'lib shakllanishi va rivojlanishida ulardagi mavjud ijtimoiy-psixologik muammolarni o'rganish hamda ularning yechimlari bo'yicha samarali usullar va tavsiyalarni ishlab chiqish, dastlabki o'rinda, ulardagi kasbiga bo'lgan qiziqishlari, shaxsiy qobiliyatlarining namoyon bo'lishi ularning kelajakdagi faoliyati davomida yuksak marralalarga erishishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

V.D.Shadrikov tomonidan kasbiy yo'nalganlik sistemogenezi konsepsiyasida bo'lajak mutaxassislarning ta'lim faoliyati jarayonidagi asosiy muammolarni yengishda hamda tanlangan kasbning mazmunini anglab yetishga ham imkon yaratadi, ya'ni talabalardagi kasbiy yo'nalganlik darajasi har qanday mehnat faoliyatining rivojlanishiga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, ular tizimlarning yechimlari bo'yicha muvaffaqiyatga olib keladi.

Shaxsning kasbiy yo'nalganligini tahlil etishda O.A.Konopkinning talabalar o'quv faoliyatida o'zini o'zi tartibga solish, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi tarbiyalash jihatlarining kasbiy yo'nalganlik darajasiga erishish jarayonida eng muhim roli masalalari katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilar G.M.Zarakovskiy va V.I. Medvedevlarning ta'kidlashicha, o'quv faoliyatining psixologik va fiziologik mazmuni talabalarda yo'nalganlik darajasini belgilab beradi va maqsadli motivlarni aktallashtirish orqali kasbiy yo'nalganlikning shakllanishini ta'minlaydi.

Bizning fikrimizcha, bu olimlar shaxsdagi tanlangan kasbi haqidagi bilimlarni tahlil qilar ekan, bo'lajak mutaxassislar kasbiy qobiliyatlar tizimining ijtimoiy-psixologik tomonlarini ochib berdilar, natijada talabalarining psixofiziologik jihatdan rivojlanishini tahlil etish hamda ularning kelajakdagi mehnat jarayonida kreativ g'oyalarni rivojlantirishga turtki bo'lishi mumkinligi ko'rinadi.

Ushbu jarayonni tartibga solishda va faollashtiruvchi komponentlarning rolini o'rganishda L.G.Dikaya hamda uning maslakdoshlari tomonidan bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda o'qituvchilar tomonidan berilgan vazifalarni bajarish talabalarining qiziqishlari bilan birgalikda olib borilishi o'rganilgan hamda u bilan bog'liq bo'lgan motivatsion harakatlar ochib berilgan.

L.G.Wild tomonidan o'quv faoliyat jarayonida talabalar o'zini o'zi boshqarishi, o'zini o'zi tarbiyalashi psixologik jihatdan mustaqil aqliy faoliyatga aylanadi, degan tahminni ilgari surilgan, bu esa o'zini o'zi boshqarish texnikasiga ega bo'lish mexanizmlarini ishlab chiqish, bo'lajak mutaxassis kasbiy yo'nalganlik darajasining muhim belgilari ekanligidan dalolat beradi. O'zini o'zi tartibga solish -kasbiy yo'nalganlikni shakllantirishda va kelajakda kasbiy faoliyat jarayonlarida talabalarning kasbiy moslik darajasini belgilaydi.

N.M.Boritko shaxs yo'nalishini o'rgangan olimlarning fikrlariga tayanib, quyidagi asosiy xususiyatlarni keltirib o'tgan:

- shaxsning psixo-fiziologik xatti-harakatlari, uning hayotdagi kasbiy faoliyatidagi vazifalarni hal etishda muhim rol o'ynaydi;
- shaxsning ehtiyojlari insonning faqatgina o'ziga xosligini belgilaydi;
- shaxs yo'nalishi - shaxsning sifati bo'lib, u ham jamiyat maqsadlarini o'zlashtirishni, ham o'z hayotiy maqsadlarini rivojlantirishni ta'minlaydi;
- shaxs yo'nalishi barcha tashqi ta'sirlar natijasida shaxsning nisbiy barqarorligi saqlanadi;
- shaxs yo'nalishi uning boshqalarga va o'ziga nisbatan faolligini belgilaydi.

K.K.Platonov tomonidan shaxs yo'nalishining eng muhim jihatlaridan biri sifatida uning quyidagi xususiyatlarini aniqlab bergan:

- tanlangan kasbning kelajakdagi obro'si va jamiyatdagi o'rni ;
- ehtiyojlar va kasbdan olinadigan foydaning ko'pligi;
- harakatlarning bir-biri bilan bog'liqligi;
- insonning qat'iyatlilik bilan belgilanadigan barqarorlik.

Shaxsning yo'nalganligi - bu shaxsning faoliyatini boshqaradigan va mavjud vaziyatlarga nisbatan mustaqil bo'lgan barqaror motivlar, qiziqishlar, tendensiyalar, munosabatlar va ideallar yig'indisi bo'lib, yo'nalish ehtiyojlariga asoslanadi, bu yerda inson faoliyati ularga manba bo'lib xizmat qiladi.

Demak, shaxs yo'nalishining eng yuqori shakli – bu uning dunyoqarashi hisoblanib, bu ma'lum bir odam atrofidagi o'zi va uning dunyodagi o'rni, uning atrofdagi voqelikka va o'ziga bo'lgan munosabati haqidagi umumlashtirilgan

g'oyalari (qarashlari) majmuyidir, deb aytish mumkin. Shaxsning dunyoqarashi va nazariy bilimlari e'tiqodlarini asoslaydi. Boshqa tomondan, insonning o'z hukmlari va xulosalarining to'g'riligiga ishonch hosil qilish jarayoni va natijasidir.

Kasbiy yo'nalish tushunchasini ochishdan oldin "kasb" tushunchasini ochib berish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Kasb - bu shaxs mehnat faoliyatining bir turi bo'lib, unda qiziqishlar bilan bog'liq bo'lgan muntazam ravishdagi xatti-harakatlar hamda o'quv jarayonida olingan bilimlar kasbiy vazifalarni to'laqonli amalga oshirishga imkon beradi.

Demak, fikrimizcha, mazkur faoliyat jarayonida kamida ikkita shart bajarilsagina, uni kasbiy faoliyat deb hisoblash mumkin:

Birinchidan, kasb yetarli darajadagi malaka, ya'ni ko'p hollarda qobiliyat, ko'nikma va bilimlarning shakllanganligi bilan tasdiqlanadi.

Ikkinchidan, kasb yetarli darajada kasbiy malakaga ega bo'lgan kishi uchun, ya'ni o'z kasbining mohir ustasi, o'z kasbi bo'yicha yuqori malakaga ega bo'lgan shaxs uchun unga hayoti davomida katta daromad manbayi hisoblanadi.

Bo'lajak mutaxassis oliy ta'limga qabul qilinganidan so'ng oliygohda kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallay boshlaydi. Talabalar hayoti ham jamiyatda ma'lum bir sinf sifatida shakllangan bo'lib, ular tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha yangi bilimlarni egallash, kelajakda kasbining rivojlanishi bo'yicha yangi g'oyalar egasi sifatida talqin etiladi. Ko'pgina tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayonida talabalarda kasbiy yo'nalganlik qobiliyati shakllanadi.

Psixolog olimi N.K.Kuzmina tanlangan kasbni rivojlantirish, shaxsda kasbga bo'lgan qiziqish va moyillikning paydo bo'lishi bilan shakllanadi, deya ta'riflaydi hamda ularga ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida qaraydi. Uning fikricha, kasbiy yo'nalishning asosiy xususiyatlari: kasbiy o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi tartibga solish, o'zini o'zi takomillashtirishdir.

Insonning kasbiy mehnatga bo'lgan munosabati hamda ehtiyoj va qiziqishlari shaxsning kasbiy yo'nalishini tavsiflaydi, shuningdek, kasbiy faoliyat

uning mehnati ustunligiga aylanganda, kasbiy doimiylik, shaxsning kasbi bilan birlashishi bilan namoyon bo'ladi.

N.V.Kuzmina fikriga ko'ra, kasbiy yo'nalغانlik bir qator xususiyatlarga ega, bunday xususiyatlar: obyektivlik, o'ziga xoslik, qiziqish, valentlik, qoniqish, umumlashtirish, barqarorlikdir.

E.A.Klimov, V.A.Slasteninlar fikricha, kasbiy yo'nalغانlik tarkibiga motivlar, ehtiyojlar kiradi; N.V.Kuzmina, B.C.Merlinlar esa kasbiy yo'nalغانlik barqaror qiziqishdan iborat ekanligini; I.K.Kondratiyev kasbiy yo'nalغانlik faoliyatga munosabat va moyilliklardan iborat deb qayd etganlar.

E.F.Zeyer fikriga ko'ra, kasbiy yo'nalishning quyidagi tarkibiy qismlari mavjud, bular:

- motivlar (niyatlar, qiziqishlar, moyilliklar, ideallar);
- qiymat yo'nalishlari (ishning ma'nosi, ish haqi, farovonlik, malaka, martaba, ijtimoiy mavqe va boshqalar);
- kasbiy pozitsiya (kasbga bo'lgan munosabat, hamkasblarga bo'lgan munosabatlar, umidlar, kasbiy rivojlanishga tayyorlik);
- ijtimoiy-professional holat [40,41].

Tadqiqotchi E.M.Nikireyev asosan kasbiy yo'nalغانlikning xilma-xilligiga e'tibor berib, bo'lajak shifokor shaxsining kasbiy-pedagogik yo'nalishida shakllanishining uch turini ajratadi:

- qiziqishlar bilan bog'liq mavzularga yo'naltirish;
- "sevimli mavzuingiz bilan shug'ullanish imkoniyati";
- "oliy ma'lumot olishga intilish" motivlari bilan belgilanadigan vaziyatga yo'nalغانlik.

Kasbiy yo'nalغانlik turlarga qarab, kasbiy va pedagogik yo'nalغانlik darajalari ham belgilanadi, masalan:

1. To'g'ri pedagogik va fan yo'nalishining yetakchi qiymati bilan tavsiflangan yuqori daraja.

2. Fanga yo'naltirilganlikning haqiqiy pedagogik yo'nalishdan sezilarli ustunligi bilan tavsiflangan o'rtacha daraja.

3. Past daraja, ikki turdagi oriyentatsiya mavjudligi bilan tavsiflanadi: mavzu va vaziyat.

O.M.Kokunning tadqiqotiga ko'ra, yoshlarning tanlagan kasbi bo'yicha harakatlar tizimi quyidagicha ta'riflanadi, ya'ni jamiyatda ma'lum bir kasb egasi bo'lish, qiziqqan fan yo'nalishlariga ko'proq vaqt ajratish, tanlagan kasbi bo'yicha faoliyat olib borish istagi, tanlagan kasbining shart-sharoitlarini o'rganish, mutaxassisligi bo'yicha yangi bilimlarni o'zlashtirish, erkin tarzda faoliyat olib borishda psixofiziologik jihatdan shakllanganligi hisoblanadi.

Yu.A.Afonkina konsepsiyasiga asoslanib, ya'ni kasbiy yo'nalish - bu shaxsning hozirgi yoki kelajakdagi mehnat subyekti sifatida uning psixologik tarkibini belgilaydigan harakatlantiruvchi kuch bo'lgan o'z (potensial yoki haqiqiy) kasbiy faoliyatini qurishdagi faolligini ta'minlaydigan barqaror xususiyatlar tizimi deb aytish mumkindir.

L.I.Bojovich tomonidan kasbiy yo'nalganlikning kelib chiqishi, ma'lum bir vaqtga kelib shakllangan shaxsning fazilatlari, uning qarashlari, qiziqishlari, intilishlari, tajribalari va boshqalar bilan belgilangan.

Insonning kasbga ijobiy munosabat ko'rsatkichi, uning kasbiy yo'nalishining psixologik mazmunini ochib beradi. "Kasbga munosabat" tushunchasi o'z-o'zidan psixologik ahamiyatga ega, chunki u faqat faoliyat yo'nalishini aks ettiradi va uning obyektini ko'rsatadi. Bir nechta odamning bir xil kasbga bo'lgan ijobiy munosabati turli xil ehtiyojlar va intilishlarga asoslangan bo'lishi mumkin. Faqat subyektiv munosabat asosidagi motivlar tizimini tahlil qilish orqali uning haqiqiy psixologik mazmunini baholash mumkin.

Ilmiy-nazariy hamda zamonaviy psixologik adabiyotlar tahlilidan shu narsa ko'rinadiki, kasbiy yo'nalganlik bu – ijtimoiy munosabatlar hamda o'quv faoliyatidagi qiziqishlar bilan bog'liq motivatsion hatti-harakatlar va turli darajadagi ehtiyojlarning qondirilishi bilan sodir bo'ladigan jarayondir.

O'quv faoliyati jarayonida talabalarni reyting tizimi bo'yicha baholashni amalga oshirish talabalarning tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, talabalarning oliygohdagi ta'lim

motivatsiyasi, bilimlarni o'zlashtirishga qiziqishi, tanlagan kasbi bo'yicha faoliyat olib borish xohishlari, kasbi bo'yicha yetarli ma'lumotlarni bilishi, bilim va ko'nikmalar, mustaqil ishlashga tayyorlik darajalariga qarab belgilanishi kerak.

Shunday qilib, shaxsning kasbiy faoliyatini qurishdagi faolligini ta'minlaydigan ikkita haqiqat mavjud: insonning o'zi va uning atrofidagi dunyosi. O'z faoliyati va ijtimoiy munosabatlar tizimini murakkablashtirish jarayonida inson tashqi dunyoni va u orqali o'zini yanada chuqurroq anglaydi. Shaxsning dunyoqarashida tashqi dunyo qanchalik aniq va chuqurroq tahlil etilsa, uning dunyo haqidagi bilimlari qanchalik yetarli bo'lsa, uning hayotdagi o'rni to'g'risida xabardorligi shunchalik aniq bo'ladi va uning dunyo bilan o'zaro ta'siri shunchalik samarali bo'ladi,

Insonning dunyoga munosabati har doim uning o'ziga, o'z hayotiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Hayotda qanday o'z o'rnini topishi, qanday hayot yo'lini belgilashi, hayotda qanday mavqega ega bo'lishi, hayoti davomida qanday maqsadlarni amalga oshirishi, xato va kamchiliklarni bartaraf etishi, shaxsning yo'nalishi deb ataladigan faoliyatda namoyon bo'ladi.

Kasbiy qiziqishlar shaxs umrining mazmuni hamda shaxsiy hayot faoliyati jarayonida zarur bo'lgan vazifalarni hal etish, uning insonlar bilan munosabat jarayonlarida hamda o'zlaridagi yashirin bo'lgan qobiliyatlarni rivojlantirishda namoyon bo'ladi.

Talabalarda tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish uchun ularning kasbi va faoliyatining asosiy tomoni aloqalar haqida emas, balki subyektiv munosabatlarning paydo bo'lishi bilan namoyon bo'ladi. Subyektiv munosabatlarning paydo bo'lishi, albatta, mavjud obyektiv munosabatlar bilan belgilanadi. Biroq u shaxsiy ahamiyatga ega bo'lmasligi yoki faoliyatning ayrim tomonlarining salbiy munosabatni keltirib chiqarishi ham mumkin. Kasbga bo'lgan munosabatni faqat faoliyat, inson tomonidan kasbiy yo'nalganlikning namoyon bo'lishi sifatida bir tomonlama tushunish noto'g'ri bo'ladi. Aslida, bu yerda o'zaro ta'sir mavjud, chunki kasb ham inson ruhiyatiga ta'sir qiladi. Kasbning ta'siri ostida shaxs ongida paydo bo'ladigan turli xil ijtimoiy-psixologik jarayonlar uning

o'zi uchun ma'lum darajada foyda keltiradigan harakatlar bilan belgilanadi, ya'ni shaxs psixofiziologik tomonlarining o'zgarishi bilan kasbiy vazifalarga bo'lgan bilim va malakalar sekin-asta rivojlana boshlaydi. Natijada, ushbu bilimlarni chuqurlashtirish, "noo'rin tanlovlarni" istisno qilishga hissa qo'shadi.

Kasbiy yo'nalganlik darajasining oshishi u rivojlanishining asosiy mazmunini tashkil etadi. "Kasb tanlash, shaxsning faoliyati shaxs va mehnat o'rtasidagi bunday munosabatlarga olib keladi degan yondashuv mavjud bo'lsa, unda insonning ijodiy va axloqiy kuchlarining yanada rivojlanishi muvaffaqiyatli bo'ladi.

Talabalar o'rtasida yetarlicha chuqur kasbiy yo'nalganlikning yo'qligi oliy ta'lim dargohida o'qish paytida uni shakllantirish imkoniyatini bermaydi. Biroq vazifa shundan iboratki, kasb tanlash kasbiy yo'nalish darajasini bosqichma-bosqich oshirishning mantiqiy natijasi bo'lib chiqadi.

Kasbiy yo'nalganlikni rivojlantirish jarayonida shaxs bir qator bosqichlarni bosib o'tadi, ya'ni:

- tashqi tomondan ma'lum bir kasbni egallashga qaror qiladi, hissiy munosabatlarni o'zlashtiradi, lekin mustaqil ravishda kasbiy harakatlarni amalga oshira olmaydi;
- tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini ko'rsata oladi, lekin oliygohdagi kasbiy fanlarning ijtimoiy ahamiyati, ularni kasbiy faoliyat jarayonidagi foydali jihatlariga e'tibor bermaydi, natijada o'z-o'ziga bo'lgan ishonchli harakatlari namoyon bo'lmaydi;
- tanlagan mutaxassisligiga qiziqish, shaxs va tadbirkorlik bir-biri bilan uyg'unlashadi, tanlagan kasbi bo'yicha yashirin qobiliyatlar, yetarli darajada kreativ xatti-harakatlar, tanlagan kasbining jamiyatdagi o'rnini va mavqeyiga to'liq ishonch hosil bo'lishi ko'zga tashlanadi.

Kasbiy rivojlanishni anglab yetish, uning manbasini faqat shaxsning ichki dunyosi, uning ongli faoliyati bilan belgilanadi. Kasbiy yo'nalganlikning rivojlanishi ko'p jihatdan ko'proq umumiy motivatsion omillarga, xususan, mafkuraviy motivlarga, o'zini namoyon qilish istagiga, moddiy ehtiyojlarni

qondirish istagiga va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Agar motivlar kurashi yuzaga kelsa, tanlovni qayta yo'naltirish yoki dastlabki niyatni saqlab qolish mumkin.

Kasbiy yo'nalganlikning rivojlanishi yangi ma'lumotlar oqimini ta'minlaydigan kognitiv faoliyat yo'nalishda to'g'ridan-to'g'ri tanlov motivlarining ustunligi namoyon bo'ladi.

Kasb haqidagi yangi ma'lumotlarni qayta ishlash natijasida odam unga yangicha munosabatda bo'lishi, uni shaxsan oldindan tasavvur eta olishi, o'zlashtirilayotgan bilimlarning mazmun-mohiyati va aniqligiga, tanlangan mutaxassisligining kerakli tomonlarini o'rganishga ruhiy jihatdan mosligi bilan ahamiyatlidir.

Kasbga bo'lgan munosabatni faqat faoliyat, inson tomonidan kasbiy yo'nalganlikning namoyon bo'lishi sifatida bir tomonlama tushunish noto'g'ri bo'ladi. Aslida, bu yerda o'zaro ta'sir mavjud, chunki kasb ham inson ruhiyatiga ta'sir qiladi. Kasbning ta'siri ostida shaxs ongida paydo bo'ladigan turli xil ijtimoiy-psixologik jarayonlar uning o'zi uchun ma'lum darajada foyda keltiradigan harakatlar bilan belgilanadi, ya'ni shaxs psixofiziologik tomonlarining o'zgarishi bilan kasbiy vazifalarga bo'lgan bilim va malakalar sekin-asta rivojlana boshlaydi. Natijada, ushbu bilimlarni chuqurlashtirish, "noo'rin tanlovlarni" istisno qilishga hissa qo'shadi.

O'quv motivatsiyasini shakllantirish pedagogik jarayonning muammoli tabiatini aniqlash va uni amalga oshirish texnologiyasini qo'llash bilan tavsiflanadi. Ushbu muammo nafaqat ilmiy tushunchalarda mazmunan to'liq tahlili yoritilmaganligi, balki oliy ta'lim muassasalarida ijobiy barqaror o'quv motivatsiyani shakllantirishga yordam beradigan modellar va dasturlarning yetarli darajada ishlab chiqilmagani bilan ham xarakterlidir. Kasbiy motivatsiya talabalarni kasbiy-didaktik bilim, ko'nikma va malakalarni yetarli darajada o'zlashtirishlariga turtki beradi. Bo'lajak shifokorda kasbiy motivatsiyani shakllantirish ta'lim jarayonida innovatsion g'oyalarni yaratish va samarali ravishda tashkil etish hamda pedagogik izlanuvchanlikni amalga oshirishni kafolatlaydi.

Bugungi kunda zamonaviy shifokorga jamiyat tomonidan pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda gigiyenadan chuqur bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Chunki ta'lim sohasiga oid mukammal bilimga ega bo'lish bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Shifokor o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklar, rivojlangan davlatlar tajribasidan xabardor bo'lishlari lozim. Bo'lajak shifokor ta'lim va tarbiya metodikasini egallashlari, bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi, pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi, o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borish malakasiga ham ega bo'lishlari zarur.

Bo'lajak shifokorni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'quv faoliyati motivatsiyasi asosiy omil hisoblanadi. O'quv faoliyati motivatsiyasi harakatlantiruvchi kuch bo'lib, talabalarni bilim, ko'nikma va malakalarni faol o'zlashtirishga yo'naltiruvchi jarayondir.

1.3. Talabalar kasbiy yo'nalganligi va o'quv motivlariga oid ilmiy tadqiqotlar sharhi.

O'zbekistonda ta'lim va tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan ko'nikma, malaka, bilimlarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, o'quv faoliyati samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni olib borish ta'lim-tarbiyaning natijadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda o'quv motivlari va kasbiy yo'nalganlikning o'zni alohida ahamiyatga egadir. Shu bois tibbiyot oliygohi talabalarida o'z kasbiga bo'lgan motivatsiyasini shakllantirish dolzarb muammolardan bo'lib, bu muammoni ilmiy tadqiq etish ta'lim psixologiyasi asoslarini chuqur o'rganishni talab etadi.

Ta'lim psixologiyasi shaxsning bilimlarini egallash, mustahkamlash uslublaridan iborat faoliyat jarayonlarini qamrab oluvchi qator savollarning tuzilishini o'rgatadi va buning natijasida odamning individual tajriba, bilim, malaka hamda ko'nikmalari shakllanadi. Inson dunyo bilan hamkorlikdan nimadir yangi narsa o'rganish va o'z ehtiyojlarini qondirish muammolarini takomillashtirib borganligi sababli ham bilim olishga bo'lgan intilish insonning butun umri davomida shakllanib boradi, chunki odam har bir amaliy bilimni hayotdan o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim olish har bir faoliyatda mavjud bo'lib, u subyektning shakllanish jarayonini o'z ichiga qamrab oladi. Shunday qilib, ta'lim olish yetarli darajadagi keng tushunchadir. U nafaqat bu sohaning uyushtirilgan shakllarini (maktab, litsey, kollej, oliygoh), balki inson tomonidan kundalik hayotda egallanayotgan bilim va malakalarini ham o'z ichiga oladi. Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar ko'pchilik tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan [14, 15, 38, 44, 54, 58, 64, 70, 81, 95, 124, 164, 168 va boshqalar].

Talabalik davri, yosh davrlari psixologiyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yosh davri xususiyatlarining tarkib topishi ko'plab individual-psixologik va ijtimoiy omillarga bog'liq. Yoshlik shaxs shakllanishida juda muhim ahamiyat kasb etadigan mas'uliyatli davrdir.

Yoshlikning ilk davri organizm jinsiy jihatdan yetilishi va fiziologik rivojlanishining yakunlanishi bilan xarakterlanadi. Ilk yoshlik davri oxiriga borib tana rivojlanishidagi nomutanosibliklar barham topadi, yuz bichimi katta yoshdagi kishilarga xos tarzda shakllanadi. Bu omillarning barchasi yigit yoki qiz uchun jismoniy yoxud aqliy mehnatning nisbatan murakkabroq turlari bilan shug'ullanishlariga imkon yaratadi. Bu yoshda biologik sabablar asosida insonning tevarak-atrofdagi kishilar bilan munosabati o'zgaradi. Yoshlardagi yuqori darajadagi asabiylik va qo'zg'aluvchanlik munosabatlarning keskinlashuviga olib kelishi mumkin. Jismoniy o'zgarishlar bilan bir qatorda ijtimoiy-psixologik omillar bilan tavsiflanuvchi inson psixikasida ham o'zgarishlar yuz beradi.

Tadqiqot ishimizning respondentlari, oliy ta'lim dargohlarida tahsil olayotgan talabalar bo'lganligini inobatga olib, mazkur yosh davridagi somatik o'zgarishlar bilan bog'liq bir necha muhim holatlar turli madaniyatlarda inson yoshining o'ziga xos bosqichlari bilan izohlanishini qayd etamiz.

1. Tana va uning funksiyalariga nisbatan qiziqish kuchayadi. Yoshlarda yaqqol namoyon bo'layotgan jismoniy o'zgarishlarni ko'rgan atrofdagi yoshi katta kishilar ularning muayyan muammolarni hal qilishlarini kutishadi. Akseleratsiya bir tomondan ijobiy ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan yosh yigit-qizlarning holatini murakkablashtiradi. Yoshlarning nisbatan erta jismoniy rivojlanishi, kattalarning ular psixik rivojlanishini hisobga olmagan holda talablarining kuchayishiga olib keladi.

2. Yoshlik davrida o'z tanalaridagi bo'layotgan fiziologik o'zgarishlarni kuzatib borish kuchayadi. Me'yoriy rivojlanishdagi "og'ishishlar" ular tomonidan nihoyatda og'ir qabul qilinishi va tushkunlikka tushishlariga olib kelishi mumkin. Lekin talabalik davridagi yoshlarning bunday tana o'zgarishlarini kompensatsiyasini turli ma'lumotlardan ko'rish orqali o'rganish, taqqoslashlari uchun biz yuqorida qayd etayotgan axborotlardan foydalana olish maydoni mavjuddir.

3. Yoshlik davrining o'ziga xos xususiyatlarini anglamaslik nafaqat yigit-qizlar, balki ularning ota-onalari tomonidan ham noadekvat qabul qilinadi. Bu esa, tanadagi nomutanosibliklar bilan bog'liq ravishda ko'zga tashlanadigan jismoniy o'zgarishlar bilan bog'liqligi bilan xarakterlanadi.

Yoshlik davrida yigit va qizlarning ijtimoiy mavqeyi va jamiyatda tutgan o'рни ham o'zgarib boradi. Moliyaviy, iqtisodiy jihatdan hali ko'pincha katta yoshlilarga tobeligiga qaramay, ma'lum o'rinlarda ularning fikrlari inobatga olinib boshlaydi. Yoshlarning mustaqillikka intilishi, muhim qarorlarni o'zlari qabul qilishga bo'lgan intilishlari oshib boradi. Biroq ushbu davrdagi ijtimoiy mavqe ikkiyoqlama xususiyatlidir.

Talaba shaxsining mazkur yoshi davrida ijtimoiy maskanlar bo'lgan oilada, oliy dargohda, mahallada uning katta kishi, voyaga yetgan shaxs ekanligi ta'kidlanadi, ikkinchidan, deyarli barcha sohada yigit yoki qizning katta yoshdagilarga (ota-onalar, qarindoshlar, yoshi ulug'lar, o'qituvchilar)ga bo'ysunishi talab etiladi. Ijtimoiy holatidagi bunday talablar yoshlar psixologiyasiga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatadi.

Yoshlik davri shaxs rivojlanishi, insonning o'zini o'zi anglashi va hayot yo'lini tanlashida katta rol o'ynaydi. Yoshlik davrining kishi hayotida muhim o'rin tutishini ta'kidlagan o'zbek psixologlaridan B.S.Abdullaeva, F.A.Akramova, N.B.Atabaeva, N.G.Kamilova, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, N.S.Safaev, U.D.Qodirov, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziev va boshqalar mazkur yoshni ilmiy tadqiq etishgan.

Psixolog T.A.Nejnova (1991) o'quv motivatsiyasiga erishish uchun turli motivatsion omillar bo'lishligini hisobga olgan bo'lib, uning tomonidan turli xil «motivatsion shakllar» ajratiladi: yaxshi davomat, ma'lumot olish uchun maxsus qiziqishlarning zarurligi, yaxshi natijalar sari intilish, mas'uliyatli bo'lish, mag'lubiyatlardan qo'rqmaslik, yutuqlarga intilish bilan bir qatorda mag'lubiyatga uchramaslik xavfi, burch va mas'uliyatlilik va boshqalarni ko'rsatib o'tgan.

E.G'.G'oziev fikricha, talabalarning yetakchi faoliyati o'quv jarayoni hisoblanilib, shu orqali mutaxassislar tayyorlashning asosiy maqsadlariga erishiladi. Bunda o'qish faoliyati talabaning psixik holatlari xususiyatlarini rivojlanishiga kasbiy muhim bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga ta'sir ko'rsatadi. Agar o'qish ijodga aylansa, talabalarning hissiy sohasiga ta'sir qilib, diqqat va xotirasini rivojlantiradi, qoniqish hissini yuzaga keltiradi, faoliyatga nisbatan qiziqish ortadi.

D.B.Elkonin fikri bo'yicha, o'quv faoliyati – bu nazariy bilimlarini o'zlashtirishga qaratilgan va fikrlashining o'sishini ta'minlaydigan omillardan bo'lib, o'qish faoliyati ta'lim oluvchi tomonidan amalga oshirilib, o'zini o'zgartirish uchun maxsus tashkil qilingan harakat bo'lagi bo'lib, buning muhim

qismi o'quv topshirig'i hisoblanadi. O'qish faoliyati jarayonida talabalar kattalarning tarbiyasiga tayanadi va ulardan o'rganadi.

R.I.Sunnatova (1996) o'z tadqiqotlarida boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilari hamda talabalarning o'zini-o'zi boshqarish jarayonidagi fikrlash faoliyatlarini o'rganadi. Olima o'quv-tarbiya jarayonlarini takomillashtirish va samaradorligini ta'minlashga ta'sir etuvchi muhim omillar haqida yangicha yondashuvlarni ilgari suradi. Muallifning ta'kidlashicha, yoshlarning o'zini o'zi anglashi, o'quv-tarbiya jarayoni va kasbiy tayyorgarlikka nisbatan ongli munosabatda bo'lishi, o'qitishda ta'lim oluvchilar tafakkuri (mustaqil fikrlashi) dagi individual-tipik farqlarni hisobga olish, yangi ta'lim muassasalarida saboq oluvchilarning ijtimoiylashuvi xususiyatlariga e'tibor berish talabalar o'quv motivatsiyasi samaradorligini ta'minlovchi muhim omillar hisoblanadi.

F.I.Haydarov (1996) tomonidan o'quv faoliyati motivlari masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, bu borada qishloq va shahar maktab o'quvchilarining o'qish motivlarini rivojlanishi bo'yicha tadqiqot ishini olib boradi. Tadqiqot natijalaridan shuni ko'rish mumkinki, shaxsda o'qishga nisbatan ijobiy xususiyat bilimga qiziqish, intiluvchanlikni yuzaga chiqishi ichki turtki sabablar, ya'ni motivlarga bog'liqligi asoslab berilgan [164].

V.Ya.Kikot, V.A.Yakuninlar (1996) ta'lim va ta'lim olish maqsadlari tushunchasiga e'tiborni qaratganlar: birinchisi, talabalarga nisbatan tashqi hisoblanilib, bu ijtimoiy ehtiyojlarni ifodalaydi. Ikkinchisi esa, oldingi tajriba asosida shakllangan individual ehtiyojlarni aniqlaydi. Bularning har ikkalasi bir-biri bilan ideal hollarda mos kelishi mumkin. Agar birinchisi o'zini individual motivlar strukturasida aks ettira olsa, ikkinchisi, o'quv jarayonida umumiy motivatsiyalar asosida (kasbiy bilim olishga intilish, pragmatik, ijtimoiy va shaxsiy qarashlar) talabalarda turli fanlarga nisbatan ma'lum munosabatlar paydo qiladi. Bunda kasbga tayyorgarlik uchun fanning muhimligi, aniq bilim sohasi va mazkur predmetning qismlariga qiziqish, dars berish sifatining mazkur fanga nisbatan qoniqish hosil qilishi hamda ushbu fan o'qituvchisi bilan hamkorlik tufayli o'quv motivatsiyasiga nisbatan ahamiyatli omillardan biri hisoblanadi.

S.V.Bobrovitskayaning (1997) ma'lumotlariga ko'ra, faqat 43% talabalar kasb haqida tasavvurga ega ekanliklari (pedagogika instituti birinchi bosqich talabalarida so'rovnoma o'tkazilganda), ulardan yarmi bolalar bilan muloqat qilish hamda kasbni yoqtirishni aytishgan bo'lsalar, qolganlari esa pedagogika institutiga kirishdan maqsadlari u yoki bu predmetlarga qiziqishlari bo'lganligi uchun kelganlarini aytishadi.

P.Ya.Galperin (1998) fikricha, insonning har bir harakatida nazorat, bajaruv va mo'ljal qismlari mavjuddir. O'quv jarayonida yo'l- yo'riqlar, faoliyatni bajarish va o'qituvchi tomonidan nazorat olib boriladi. Bu konsepsiya asosida o'qitish faoliyatini tashkil etishning yaxshi natija berishi, nafaqat P. Ya. Galperin tomonidan, balki uning maktabi tomonidan ham isbotlangan.

Talabalarning har qanday fanlarni o'rganishlaridan asosiy maqsadi- hayotiy vazifalar va amaliy masalalarga ilmiy nuqtayi nazardan yondashganligidadir. Psixologiyani o'rganish har bir shaxsning xulq-atvori xususiyatlarini tushunish va tushuntirib berish, ilmiy yo'nalishlarni tahlil qilish va ular bilan kundalik hayotda to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rganib olish kerakligini bildiradi.

Talabaning faoliyat maqsadi fanni o'rganish, o'qituvchining maqsadi esa uni tadbiq etishdir. Bu maqsadlar keyinchalik birlashadilar, ammo maqsadlarni qo'yish jarayonida ular turli ko'rinishga ega bo'ladilar. Talaba, o'z navbatida, o'qituvchidan "bilim olishga" intiladi, o'qituvchi esa unga o'sha zarur bilimni "berishga" va mavjud bilimlardan foydalanishni o'rgatishga harakat qiladi. Bu esa o'quv faoliyatini shakllantirishda o'quv motiv va motivatsiyalarining o'rnini beqiyos ekanligidan dalolat beradi.

Psixologiyani o'rganishda har bir talaba o'zining bo'lajak kasbidan qat'i nazar shaxsning xarakteri, qobiliyatlari, temperamenti va boshqa xislatlarini aniqlash, insonning harakatlari, qilayotgan ishlarini baholash, tahlil qilishda jamiyatda, jamoada boshqa odamlar bilan shaxsiy munosabatlarda psixologik fikrlarini o'rganib olish zarurligini taqozo qiladi.

V.Ya.Lyaudisning (1989) fikricha, psixologiyani ijtimoiy – tarixiy fan sifatida talqin etish kerak, bu esa uning tarkibidagi tadqiqotlar tabiiy fanlar

usullarini rad etmaydi. Biroq uning asosiy mohiyatida ijtimoiy va gumanitar fanlar idrok etilishi yotadi.

Gumanitar idrok etish – ilmiy idrok etishning alohida turi bo‘lib, tabiiy fanlarga o‘xshash o‘rganilayotgan obyektga subyektning boshqacha munosabatini ko‘zda tutadi. Gumanitar idrok etishning diqqat markazida buyumlar yotadi, shuningdek, u quyidagicha izohlanadi. Shaxs emas, subyekt yoki obyekt emas, balki subyekt – obyekt munosabatlari bo‘ladi, deb ta’kidlaydi.

Psixologiyada o‘qitish xususiyatlarini tushunishda muhim bo‘lgan gumanitar idrok etishning yana bir xislati bu psixologik idrok etishning prinsipial ravishda geterogenligidir. Bu ko‘p jihatdan rasmiylashgan bo‘lib, faqatgina ilmiy, nazariy, mantiqiy fikrlarni nazarda tutib qolmay, balki obrazli, badiiy, tasviriy, xayoliy, ko‘rgazmali-amaliy fikrlashni ham ko‘zda tutadi [87].

Uning muhim qismlari va sohalari: kishilar muloqoti va o‘zaro aloqasi, guruh ruhiyati, shaxs ruhiyati, ishlab chiqarish, ta’lim, boshqarish, ommaviy axborot sohasi, oilaviy munosabatlar, fan, siyosat, din va boshqalardagi ijtimoiy psixologiyaning amaliy ko‘rinishi alohida katta blokni tashkil etadi.

O‘z-o‘zini tarbiyalash vazifasi talabalarning kasbiy yo‘nalishlari shakllanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu tushunchaga o‘z kasbiga qiziqish, yaxshi mutaxassis bo‘lib yetishish va ilg‘or kasb egasiga xos bo‘lgan xususiyat va qobiliyatlarni o‘zida tarbiyalashga intilishlar kiradi.

Bizning fikrimizcha, 2022-2023 - yillarda tadqiqot mavzusi doirasida olib borilgan ilmiy ishlarni qayd etish joizdir: A.E.Turaxonovning “Talabalarda kasbiy mas’uliyat shakllanishining psixologik xususiyatlari” mavzusidagi, U.Yu.Latipovanning “Talabalarda ijodiy faollik motivatsiyasi shakllanishining psixologik xususiyatlari” mavzusidagi, A.E.Muxtarovanning “Pedagog-psixologlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning psixologik xususiyatlari”, A.N.Qurbonboyevning “O‘quv faoliyatida talabalar o‘zini o‘zi faollashtirishining psixologik xususiyatlari”, Sh.A.Usmonovning “Talabalardagi aqliy qobiliyatlar ularning kasbiy muvaffaqiyatining asosi sifatida”, I.A.Yusupjonovanning “Pedagogika yo‘nalishi talabalari kasbiy shakllanishining psixologik xususiyatlari”

ilmiy tadqiqot ishlari talabalar va yoshlarning o'quv faoliyatining dolzarb masalalariga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Lekin shuni qayd etish kerakki, bizning olib borgan ilmiy tadqiqot ishimizda tibbiyot talabalari o'quv faoliyati motivlari va kasbiy yo'nalganlik muammosi maxsus ilmiy tadqiq etilgan va tadqiqot natijalari asosida o'quv faoliyati motivlari va kasbiy yo'nalganlikni rivojlantirishga oid maxsus model ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiq etilgan.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda tibbiyot oliygohi talabalarining kasbiy yo'nalganligi, o'quv motivlari muammosi talabalarining psixologiya sohasidagi dunyoqarashini har tomonlama shakllanishida o'z samarasini berishi mumkinligi ko'pchilik psixolog olimlar tomonidan tan olingan. Bunda talabalar kasbiy fikrlash mahoratini rivojlantirishda o'quv motivatsiyalarining o'рни muhim hisoblanadi va o'qish jarayonida motiv va motivatsiya tushunchalarining keng joriy qilinishi fanni o'zlashtirishda o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

1- Bob bo'yicha xulosalar

Biz tomonimizdan tahlil etilgan adabiyotlarda, asosan, yosh avlodni tarbiyalash va o'quv jarayonida tanlangan kasbga yo'nalganlik, motiv va motivatsiyaning o'рни haqida turli ma'lumotlar mavjudligini ko'rsatadi. Ulug' allomalarimiz asarlaridagi kasbiy yo'nalganlik, o'quv faoliyat motivlari bilan bog'liq muammolari haqidagi qarashlar har tomonlama tasvirlangan bo'lsa, boshqa faylasuf olimlar esa jamiyat va inson tafakkuri xususidagi tadqiqotlarida inson ruhiyatiga e'tibor berish zarurligini ham uqtiradilar. Kasbiy motiv va motivatsiya haqidagi ma'lumotlar chet el va rus psixologlari hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda ham keng yoritilganligining guvohi bo'lamiz. Yuqorida keltirilgan ilmiy- tadqiqot ishlarining nazariy metodologik asoslari bilan tanishish kasbiy motiv va motivatsiyalar haqida quyidagicha xulosaga olib keladi.

1. Adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'lishicha, shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'zini qanday tutishi, egallagan mavqeyi ham sababsiz, o'z-

o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada «motiv» va «kasbiy motivatsiya» tushunchalari ishlatiladi.

2. Mazkur muammo bo'yicha har qanday kasbiy motivlar zahirida shaxs ehtiyojlari yotganligi ko'rsatilgan bo'lib, turli kasb egalari faoliyat motivlarini o'rganishda motivlar xarakterini bilish va ularni o'zgartirish muammosi atroflicha yoritilgan.

3. Hozirgi zamon psixologlarining tadqiqotlarida kasbiy motiv va motivatsiya masalalari umumpsixologik va etnopsixologik nuqtayi nazaridan o'rganilib, xulq, munosabat, muomala, faoliyat kategoriyalari ularning izlanish obyekti sifatida xizmat qilgan. Shuningdek, ushbu muammolar ijtimoiy, maxsus, pedagogik, tibbiy va yuridik-psixologik jabhalarga asoslanib o'rganilgan.

4. Insonning ichki va tashqi manbalari, ehtiyojlari, qiziqishini boshqarish imkoniyati motivatsiyaning yuksak funksiyasini bajarish bilan tavsiflanishi keng yoritilgan.

Biroq talabalar kasbiy yo'nalganligi va o'quv motivatsiyasini belgilovchi ijtimoiy-psixologik muammolarning ba'zi tomonlari hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Jumladan, tibbiyot institutlari ta'lim jarayonida talabalar o'quv faoliyati motivlarining turli psixologik omillari aynan milliy-madaniy muhit shart-sharoitlari ta'siri nuqtayi nazaridan o'rganilmagan.

Bizning fikrimizcha, shu maqsadda psixologik tadqiqotlar o'tkazish va uning yutuqlarini amaliyotga qo'llash zarurati mavjud.

II BOB. TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINING KASBIY YO‘NALGANLIGI VA O‘QUV MOTIVLARINING PSIXOLOGIK TAHLILI

§ 2.1. Tibbiyot oliygohi talabalarining kasbiy yo‘nalganligi va o‘quv motivlarini ilmiy tadqiq etish metodologiyasi

Ma'lumki, kasb orqali shaxs ko'plab muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin. Biroq bugungi kun talabasi o'sha kasb–hunar mohiyatini to'liq anglayaptimi, tushunyaptimi va kelajagini qay darajada tasavvur qilyapti, degan haqli savol paydo bo'lishi tabiiydir.

Tibbiyot oliygohi talabalarining kasbiy yo‘nalganligi va o‘quv motivlarini ilmiy tadqiq etish metodlarining o‘ziga xos jihatlari shundan iboratki, ular psixikasi ruhiy kuchlarining kasbiy masalalarni hal etishga, o‘zining vazifalarini bajarishga tayyorligi va yo‘nalganligi darajasi bilan belgilanadi.

Tibbiyot oliygohi talabalarining kasbiy yo‘nalganligi va o‘quv motivlarini talqin qilish va eksperimental psixologiya metodlariga tayangan holda tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘lib, bu psixologik tadqiqotlarning ketma-ketligini ta'minlash, psixodiagnostik izlanishlarni farqlay olish xususiyatiga ham bog'liqligi bilan tavsiflanadi. Bizning tadqiqotimizda tibbiyot instituti talabalarining o‘quv faoliyatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashda shaxsning individual xususiyatlari hamda yosh va jins tafovutlarini hisobga olishni taqozo etadi.

Tadqiqotning I bobida ushbu muammo atroflicha o'rganilganligini e'tiborga olib, talabalar kasbiy yo'nalganligi va o'quv motivlarini tibbiyot instituti talabalari misolida o'rganishni lozim topdik. Bu esa, o'z navbatida, talabalar o'quv faoliyati jarayonining muvaffaqiyatli samaradorlik va mahsuldorligini ta'minlash uchun motivatsiya doirasi tuzilishini inobatga olishlik, uning har qaysi jabhasi, jihatiga alohida ahamiyat berilishi muhimligini talab qiladi. Bunda talabalarning kelgusi ish faoliyatlarini amalga oshirishda inson hayoti bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilishda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni inobatga olinishi hamda kasbiy tayyorgarlik darajasini yuqori saviyada amalga oshirilishi ko'zda tutiladi.

O'z-o'zini tarbiyalash vazifasi talabalarning kasbiy yo'nalishlari shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu tushunchaga o'z kasbiga qiziqish, yaxshi shifokor bo'lib yetishish va ilg'or tibbiyot xodimiga xos xususiyat va qobiliyatlarni o'zida tarbiyalashga intilish kiradi.

Har qanday kasbda bo'lganidek, bo'lajak shifokor amaliy faoliyatida zarur bo'lgan bilim, mahorat va ko'nikmalarni egallab olishi bilan bir qatorda, bemorlarning ruhiy holatlari, ya'ni qo'rquv, ishonchsizlik, vahima, umidsizlik kabi hissiyotlariga alohida sinchkovlik bilan e'tibor qaratishlari zarur. Kasblar ichida katta mas'uliyat, sabr-toqat va fidoiyligni talab qiladigan shifokorlik kasbini egallash osonlikcha kechmaydi. Buning uchun talaba doimo izlanishi va muntazam ravishda bilim doirasini kengaytirib borishini taqozo qiladi. Ushbu xususiyatlarning shakllanishi va rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan muammolarni o'rganish talabalarning kasb egallashlarida muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, o'quv faoliyatining faolligi, ijodiyligi, nostandartligi, samaradorligi, bilimlarning puxtaligi, mantiqiyliqi, izchilligi talabalarning motiv va motivatsiya xususiyatlariga bog'liq bo'lib, ular qanchalik anglangan, maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, mazkur faoliyat shunchalik muvaffaqiyatli amalga oshadi. Shu bilan bir qatorda shaxsning faoliyati, xatti-harakati, ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining tarkib topishi ham ko'p jihatdan o'quv motivatsiyasiga

bog'liqdir. Bu esa, o'z navbatida, bo'lg'usi shifokorlarning amaliy faoliyatida o'z samarasini beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda tibbiyot instituti talabalarining kasbiy yo'nalganligini hamda ulardagi o'quv motivatsiyasini o'rganish maqsadida kerakli metodikalardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Psixik hayot va uni belgilovchi sabablar juda murakkab va xilma-xil bo'lgani uchun psixologiya fanida har xil metodlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Tadqiqotimizda psixik xususiyatlarni tekshirishda talabaning tarjimai holi, uning ijtimoiy kelib chiqishi, olgan tarbiyasi, faoliyati, orzu-havaslari, yoshi, salomatligi, do'stlari, atrof-muhiti va shunga o'xshash jihatlar nazarga olinadi. Bunga sabab, kishining psixik xususiyatlari va xislatlari bir shaklda qotib qolmasdan ,o'sib, o'zgarib turadi va bu faqat organizmning tabiiy holati bilangina emas, balki, asosan, talabaning ijtimoiy hayot kechirish tarzi, uning dunyoqarashi, qadriyatlari, mafkurasi va maqsadlari bilan ham belgilanadi. Faqat yagona bir metod bilangina ilmiy natijalarga kelish mumkin emas.

Psixologiyada inson psixik taraqqiyotining murakkab qonuniyatlarini tadqiq qilish, psixikaning turli xil ijtimoiy faoliyat turlarida rivojlantirish masalalarini hal qilish hamda shaxsning psixik tuzilmasini shakllantirishni o'rganish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. O'quv motivatsiyasini tarkib toptirish uchun psixologiyaning o'ziga xos bo'lgan metodlaridan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun inson psixikasini tadqiq qilish metodlarining turli yo'nalishlari mavjud. Tekshiriladigan psixik hayot hodisalari juda xilma-xil bo'lib, murakkab va psixologik holatlar, hodisalar va jarayonlar qanday metodlar, ya'ni qaysi yo'llar, qanday usullar bilan tekshirilishiga bog'liq. Ushbu masalalarni yechishda metodologik tamoyillar ishlab chiqilishi, mavjud tamoyillarning ilmiy tadqiqotlarda o'rinli qo'llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

«O'qish motivlari» ma'nosining o'rganilish tomonlari ko'p qirrali bo'lib, ulardan birining tanlab olinishi alohida metodikalarni tanlash zaruriyatini paydo qiladi. O'quv motivatsiyasining tashxisi juda murakkab jarayon hisoblanib, uning samaradorligini kuzatish va sharhlashda faqat miqdoriy o'lchamlar bilan cheklanib

qolmasdan, balki ularning sifatiy tahlilini kompleks metodlar yordamida amalga oshirish ahamiyatlidir.

Ilmiy tadqiqot obyekti bilan tartibli ravishda ish ko‘rish uchun hozirgi zamon psixologiyasida samarali qo‘llanilib kelayotgan metodlarga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Bu borada, S.L.Rubinshteyn (1989) «Umumiy psixologiya asoslari» kitobida eng asosiy psixologik metodlar sifatida kuzatuv va eksperimentni alohida ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, faoliyat mahsulini o‘rganish metodidan foydalanishda qo‘shimcha ma’lumotlarni qo‘lga kiritish vositasi sifatida suhbat va so‘rovnoma metodlariga murojat qilinadi. Tabiiyki, vaqt bu tasnifning qirralarini belgilaydi.

Tadqiqotimizning obyekti esa Andijon davlat tibbiyot institutining 470 nafar 1-5 bosqich talabalari hisoblanadi. Ularning o‘quv faoliyati motivatsiyasiga ijtimoiy-psixologik omillar ta’siri xususiyatlari va dinamikasi izlanishimizning predmeti hisoblanilib, uni o‘rganishda quyidagi metodlardan foydalandik.

1. Kuzatish.
2. Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi.
3. Anketa.
4. Suhbat-so‘rovnoma.

1. Kuzatish metodi – bu o‘quv motivatsiyasini o‘rganishda eng ko‘p qo‘llaniladigan metoddir. Maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan ko‘zlangan, tashkillashtirilgan idrok – kuzatish deyiladi va kuzatiluvchi hodisa, jarayon uchun maxsus sharoit yaratilmaydi, obyektga ta’sir o‘tkazmaydi, kuzatuvchi maqsadi bilan shartlangandir.

Kuzatishning asosiy xususiyatlari shundaki, bu metod yordamida psixik hayotni sezgi organlarimiz bevosita seza oladigan, o‘zimiz bevosita idrok qila oladigan faktlari aniqlanadi va tasvirlanadi. Kishining psixik hayotida mimika, imo-ishora, nutq, turli harakatlar va umuman kishining butun xatti-harakati va faoliyatini bevosita kuzatish mumkin.

Kuzatish metodi psixik hodisalarni faqat tasvir etish imkonini berish bilangina cheklanib qolmay, balki shu hodisalarni tushuntirish, ya’ni ularning tevarak-

atrofdagi muayyan tarbiyaga, odamning faoliyat xarakteriga, organizmning umumiy ahvoliga va nerv sistemasining ishlash xususiyatlariga bog'liq ekanligini ochib berish imkonini ham yaratadi.

Bundan tashqari, ushbu metoddagi inson faoliyatining har xil turlarida psixikani tekshirishda ham foydalaniladi. Unda shaxslarning psixik sifatlari: tashabbuskorligi, ijodiy tafakkur jarayoni, yangilikni bayon qilishi, o'z oldiga qo'ygan maqsadga yetish yo'lida sabr-matонат ko'rsatishlari kuzatish yo'li bilan tekshirib o'rganiladi. Psixologiyada kuzatish metodi inson hayoti va faoliyatining odatdagi sharoitidagina emas, balki shu bilan birga, klinika sharoitida psixikaning kasallik oqibatida o'zgarganligini tekshirishda ham qo'llaniladi. Ayni vaqtda kasallikni tekshirish uchunгина emas, shu bilan birga, odamning normal ahvolidagi psixik hodisalarni yaxshiroq tushunib olish uchun ham klinik kuzatish ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Bu metod yordamida psixik jarayonlarni va shaxsning psixologik xususiyatlarini tabiiy sharoitda, ya'ni talaba u yoki bu faoliyatda qanday bo'lsa shundayligicha o'rganiladi. Biroq psixik hodisalar insonning subyektiv ichki kechinmalari bo'lgani uchun ularning ichki mazmuni shaxsning o'zigagina ayondir.

Ayrim psixologlar unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lib, matematik hisoblashlarga berilmaydigan, yuzaki, subyektiv bayondan iborat deb hisoblaydilar.

Psixologiyada guruhii jarayonlarning shaxs xulq-atvoriga ta'sirini o'rganish maqsadida bevosita ichkaridan kuzatuv tashkil qilinadi, bunda kuzatuvchi shaxs o'sha guruhga tabiiy ravishda qo'shiladi va zimdan kuzatish ishlarini olib boradi. Kuzatish metodining ijtimoiy hayot, professional ko'rsatkichlarni qayd qilishda so'zsiz afzalliklari bor.

Kuzatish metodining ijobii tomoni shundaki, bu metod yordami bilan psixik hayot faktlari ularning tabiiy sur'atda ro'y berishi, borishi va o'rganishida olib o'rganiladi, ya'ni haqiqatda, kishilarning kundalik turmushida qanday ro'y bersa, o'shanday holida tekshiriladi.

Kuzatish muayyan maqsadga qaratilgan bo'ldi va oldindan ishlab chiqarilgan rejaga binoan takomillashtiriladi. Kuzatish jarayonini amalga oshirish predmetli vositalar bilan jihozlantirilib, natijalarni qayd qilish mo'ljallanadi. Biz qo'llamoqchi bo'lgan kuzatishning asosiy maqsadi – o'quv jarayonini o'rganish orqali o'quv motivatsiyasining turli ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning negizida mazkur mezonlar yuzasidan psixologik xulosalar chiqarishdan iboratdir.

Ko'rsatkichlar sifatida quyidagilar xizmat qilishi mumkin:

- 1) darsda talabalar faolligining har xil alomatlari;
- 2) o'z harakatlari natijasi, usulni ajrata olish ko'nikmasi;
- 3) o'qituvchiga beriladigan savollar xususiyati mazmuniga nisbatan munosabat;
- 4) o'quv faoliyatining rasmiy jabhalariga nisbatan munosabat;
- 5) sababiy aloqalar qonuniyligiga munosabat;
- 6) olingan bilimlarning amaliy va ijtimoiy ahamiyatiga nisbatan munosabat va boshqalar.

Tajriba materiallarining ko'rsatishicha, kuzatish tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari mashg'ulotlariga nisbatan ularning individual munosabati yuzasidan boy psixologik material to'plash imkoniyatini yaratadi.

2. Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi. Talaba psixologiyasini, xususan uning shaxsiy xususiyatlarini, orzu-havaslarini, his-tuyg'ularini o'rganishda tatbiq qilinadigan bu metoddan foydalanish shundan iborat bo'ladiki, unda kishining mehnat samarasi, ijodiyoti, qilgan ishlari tahlil qilinadi. Bunda har xil jins va yoshdagi talabalarning qiziqishlari, mashg'ulotlari, fanni o'zlashtirishlari va boshqa ijodiy ishlari tahlil qilinib, ularning bilim olish va kasb egallashlaridagi tasavvurlari, qobiliyatlari, orzu- havaslari, bilim va tajribalari aniqlanadi.

Insonning faoliyat sohalarini, uning mehnat natijalarini tekshirish psixikani bilish uchun muhim vositadir. Shaxsning kuch va qobiliyatlari u yaratadigan narsalarda gavdalanadi.

Talaba faoliyatining natijalarini tekshirganimizda biz, shu samaralarni barpo etgan kishilar qanday qilib fikr yuritganligini va his qilganliklarini, nimaga

intilganliklarini, ularning irodasi naqadar kuchli bo'lganliklarini, ularda qanday mahorat va malakalar bo'lganligini bilib olamiz.

Bu metod umumiy tarzda o'quv motivlarining mavjudligini aniqlash imkonini berib, talabalarining o'quv predmetlariga nisbatan qiziqishini tahlil qilish, boshlang'ich bosqich talabalarining o'quv motivatsiyasini aniqlashga tadbiriq qilinadi.

O'quv faoliyatining eng muhim omillarini ochishga qaratilgan o'quv motivlarini aniqlash maqsadida A.A. Rean va V.A.Yakuninlar tomonidan tavsiya qilingan «Talabalar kasbiy yo'nalganligini o'rganish» metodikasidan foydalanildi. Ushbu metodikaning 2 xil varianti mavjud bo'lib, ularning har ikkalasi ham talabalarining o'quv jarayonidagi motiv va motivatsiyasining qay darajada shakllanganligini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu metodika 16 ta so'rovnomadan iborat bo'lib, u ikki xil variant topshiriq'idan iborat.

Birinchi variantli topshiriqda talabalar berilgan savollardan o'zlariga juda ma'qul bo'lgan faqat 5 ta savolni maxsus blankada to'ldiradilar.

Bunda tibbiyot instituti talabalarining tanlagan kasbiga bo'lgan munosabatlari natijalari aniqlanadi. Belgilangan savollar hajmi qancha yuqori bo'lsa, ularga nisbatan kasbiy yo'nalganligining roli shuncha yuqori bo'ladi. Sinaluvchilar tomonidan to'ldirilgan blankalar yakka holda, guruhlar va bosqichlarga nisbatan o'rganiladi.

Ikkinchi variantli topshiriqda talabalar berilgan savollarning barchasiga, ahamiyatliligiga qarab 7 balldan 1 ballgacha baho beradilar.

Har bir savol uchun alohida berilgan ballar barcha talabalarining individual, guruh va bosqichlariga nisbatan taqsimlanadi va savollar mohiyatiga qarab ajratiladi: kuchli va kuchsiz ahamiyatga egaligi va har bir bosqich talabalarini uchun ustuvor motivlar faoliyati xususiyatiga qarab o'rganiladi.

Kasbiy yo'nalganlikning xilma-xilligi, motivatsiya doirasining kengligi tufayli ularning barchasi hayot va faoliyatning juda ko'p qirralarida ishtirok etadi va bu mazkur faoliyatning mahsuldorligi, samaradorligi, barqarorligi va

uzluksizligini ta'minlaydi hamda o'quv faoliyatiga oid motivlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini topishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tibbiyot instituti talabalarining kasbiy malakalarni egallashlari yillar davomida sifat o'zgarishlariga yuz tutadi. Agar qanchalik mutaxassislikka oid bilimlar ko'payib borsa, kasbga yo'nalganlikning ahamiyatliligi shunchalik darajada ortib boradi.

Shunga qaramasdan, ma'lum tartibda o'quv motivatsiyasini shakllantirish mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Navbatdagi metodika «O'quv motivlarini aniqlash» so'rovnomasi bo'lib, talabalarga quyidagicha topshiriq beriladi: «Berilgan qog'ozga o'zingiz yoqtirgan fanlardan eng ahamiyatli 3 ta hamda yoqtirmagan 3 tap redmetlarni marhamat qilib yozing. Ular nima uchun sizga yoqishi va yoqmasligini tushuntiring, fanlarga nisbatan shaxsiy munosabatingizni ko'rsating» degan ko'rsatma beriladi. Bu metodika orqali talabalarning bilim olishga bo'lgan ijobiy va salbiy munosabatlari negizida nimayotishi hamda uni keltirib chiqadigan sabablar aniqlaniladi.

3. Anketadan foydalanish metodi.

Hozirgi davrda uzluksiz ta'limni ta'minlashda kasbiy mutaxassislikni tanlash masalasi asosiy o'rinni egallaydi. Kasb tanlashning darajasi ko'p jihatdan talabaning ixtisoslikka, o'quv faniga nisbatan munosabatida o'z aksini topadi. Agar kasb tanlovchi bunga o'z xohish-irodasi bilan yondashgan bo'lsa, o'qishning samaradorligi, shaxslararo aloqasi, o'quv faniga nisbatan ijobiy munosabati yuksaladi. Talaba bilan o'qituvchilarning o'zaro muloqoti iliq ruhiy muhitda ko'riladi. So'rovnoma mohiyatiga singdirilgan savollar barcha vaziyatlar, holatlar yuzasidan javob olish imkoniyatini beradi.

O'tkazilgan ushbu tajriba natijalari alohida e'tiborli bo'lib, unda har bir talabaning kelajakdagi kasb tanlash motivlarining kelib chiqish sabablari qanday darajada namoyon bo'lishi o'rganiladi.

Har bir o'quvchi institutga kirishidan oldin o'z oldiga biror bir kasb egallashni maqsad qilib qo'yadi. Buning uchun uning o'zida bo'lgan shaxsiy qiziqish va orzularidan tashqari maktab o'qituvchilari, ota-onasi, do'stlari hamda

nufuzli insonlarning ma’lum darajada ta’siri yotadi. Afsuski, hozirgi kunda ko‘pchilik holatlarda o‘quvchining o‘zi xohlamagan tarzda ota-onasining maslahati bilan oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirish davom etmoqda. Bundan tibbiyot institutlari ham mustasno emas. Bu esa ,o‘z navbatida, talabaning tahsil olishi hamda kasb egallashida o‘z aksini topmoqda.

Aslida shifokorlik kasbini egallash mas’uliyatli jarayon bo‘lib, unda xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yish, yaxshi bilimga ega bo‘lmaslik kelajak uchun katta xavf tug‘diradi. Shu sababli, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagog-psixolog va o‘qituvchilarning zimmasida talabalarda kasb egallashga nisbatan bo‘lgan qiziqish va motivlarni imkon darajada oshirish yotadi. Bu esa, o‘z navbatida, bo‘lajak kasb egalarining shakllanishida o‘z samarasini beradi.

Yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarni bajarish maqsadida biz T.I. Ilina (Ye.P.Ilina, 2000) tomonidan tavsiya qilingan «Oliy o‘quv yurtida o‘qish faoliyatining motivatsiyasi» mavzusidagi metodikani amalga oshirdik.

Metodika maxsus anketa so‘rovi orqali o‘tkaziladi. Anketada avval talabaning familiya, ismi, sharifi, fakulteti, guruhi, yoshi, jinsi, millati, oilaviy ahvoli (bo‘ydoq yoki bo‘ydoqmasligi), ota-onasining ma’lumoti kabi asosiy belgilar beriladi, so‘ng 50 ta savolnomadan tashkil qilgan metodika keltiriladi. Savolnomada muallif tomonidan bir qator ahamiyatsiz bo‘lgan savollar talabaning fikrini chalg‘itish maqsadida keltirilgan bo‘lib, ular eksperimentda hisobga olinmaydi va savollarga talabalar rozi bo‘lsalar «ha», norozi bo‘lsalar «yo‘q» deb javob beradilar.

Metodikada 3 ta shkala mavjud bo‘lib, ular «bilim olishga», «kasb egallashga» hamda «diplom olishga» qaratilgan.

Savolnomada keng tartibda keltirilgan savollar talabalardagi o‘quv motivatsiyasi va kasb tanlashga nisbatan bo‘lgan barcha qarashlarini atroflicha o‘rganishda yaxshi samara beradi.

Ikkita birinchi shkaladagi motivlarning natijalari talabalarning o‘z kasbini to‘g‘ri tanlaganligi va undan qoniqishidan dalolat beradi.

Anketa metodidan foydalanish har bir talabaning individual ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashda yaxshi imkoniyat beradi.

4. Suhbat-so'rovnoma metodi psixik hodisalarning asosan ichki, subyektiv tomonini tekshirish uchun hozirgi zamon psixologiyasida keng qo'llaniladi. Xususan, fikrlash, iroda, xayol va ijod jarayonlari kabi eng oliy ruhiy holatlarni o'rganishda bu metoddan ko'p foydalaniladi. Uning qiymati shundaki, respondentning diqqatini ichki kechinmalariga qaratadi va uni shu haqda chuqur o'ylashga, mushohada qilishga, o'zining kelgusi kasbini tahlil qilishga majburlaydi.

Suhbat metodi shaxsning individual xususiyatlarini (e'tiqodlari, havaslari, ichki kechinmalari, ijtimoiy-jamoaga munosabati, o'z vazifalarini tushunish) tekshirishda qo'llaniladi. Bu metod bilim olish va tarbiyalashning psixik asoslarini tekshirishda, masalan, talabaning kasbiga nisbatan bo'lgan qiziqishi, ta'lim olishga nisbatan bo'lgan intilishi va fanlarga nisbatan bo'lgan munosabatlarini tekshirishda o'z samarasini beradi. Mazkur metod tadqiqotning turli bosqichlarida qo'llaniladi. Masalan, dastlabki tanishish bosqichida, ayniqsa, kuzatish metodi orqali qo'lga kiritilgan xulosalarni aniqlashda qollaniladi. Suhbat metodidan mohirlik bilan foydalanish juda qimmatli natijalarga erishishga yordam berishi mumkin. Shu maqsadda biz «Men nima uchun tibbiyot institutiga o'qishga kirdim» mavzusida mualliflik so'rovnomasi yordamida suhbat o'tkazdik.

«Men nima uchun tibbiyot institutiga o'qishga kirdim» savolnomasi 6 ta savoldan iborat bo'lib, talabalarining kasbiy faoliyatiga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga bag'ishlangan. Metodika quyidagi savollardan tarkib topgan:

- 1) ota-onamning bergan maslahatlariga binoan;
- 2) gazetadagi institut to'g'risida e'lon bilan tanishganimdan keyin;
- 3) sinfdosh do'stlarimning ra'yiga qarab;
- 4) meningcha, shifokor bo'lish sharaflı kasb;
- 5) o'qituvchilarim meni shu qarorga ko'ndirishdi;
- 6) shifokorlik kasbini egallash orzusi meni yetaklab keldi.

Suhbat-so'rovnoma metodi yordamida siniluvchining individual xususiyatlariga qarab, suhbat vaqtida savollarni o'zgartirish, to'ldirish, boshqacha

qilib berish mumkin. Bu vaqtda tadqiqotchi sinaluvchini kuzatib, masalan, nutqining xususiyatlarini, mimikasini va shunga o'xshash xislatlarini qayd qilib turadi. Bu metodning afzalliklari shundan iboratki, unda talabalar ichki kechinmalarini mukammal tasvirlab yoki so'z bilan istagancha tushuntirib, atroflicha javob qaytarishlari mumkin.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan tarzda tibbiyot instituti talabalarining o'quv motivlarini o'rganish maqsadida A.A. Rean va V.A. Yakuninlar, Ye.P. Ilin va N.A. Kurdyukova, T.I. Ilinalar tomonidan tavsiya qilingan metodikalar hamda tadqiqotda olingan empirik materiallarning ahamiyatliligi va ishonchliligini aniqlash uchun „St'yudent'’, „Korrelyatsion’’ va „Faktorli tahlil’’ kabi matematik-statistik metodlaridan foydalanildi. Ko'rsatilgan metodikalarning tadqiqotimizda qo'llanilishi, tibbiyot instituti talabalarining ta'lim olish jarayonida sodir bo'ladigan qiziqish, istak, tashabbus va izlanishlarini amalga oshirish hamda yuzaga keladigan muammolarini bartaraf qilishda o'z samarasini bermoqda.

Motivatsiyaning ichki turida faoliyat shaxsning o'zi uchun muhim bo'ladi. Tashqi kasbiy motivatsiyada faoliyatning mazmuniga nisbatan boshqa tashqi ehtiyojlarning qondirilishi istagi tushuniladi (jamiyatda mavqega erishish, yuqori darajadagi mehnatga haq to'lanishi), natijada, ijobiy va salbiy motivlarning tashqi ko'rinishi yuzaga chiqa boshlaydi.

Talabalardagi o'quv motivlari kasbiy motivlar bilan birgalikda sekin- asta rivojlanib boradi. Ya'ni samarali ko'rsatkichga ega bo'lgan o'quv motivatsiyasiyalari, o'z navbatida, kasbiy motivatsion rivojlanishga xizmat qiladi.

Shaxsning kasbiy rivojlanishi muammosi zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Buning bir misoli etib insoniyat umri va hayoti uchun xavfli bo'lgan koronavirus infeksiyasi bo'lgan Covid-19 ning asoratlarini bartaraf etishda tibbiyot sohasida raqobatbardosh yangi kasblar va mutaxassisliklarni yetishtirib chiqarishga zarurat borligini ko'rsatish mumkin.

Kasbiy rivojlanish talabalarning ma'lum bir ehtiyoj va talablaridan kelib chiqqan holda nazariy hamda amaliyotdagi bilimlarining mazmuniga e'tibor berish orqali shakllanadi.

Talabalarning o‘quv motivlari bevosita kasbiy tayyorgarlik sifati shakllanishiga ta’sir qiladi. Ba’zi olimlar o‘quv motivlariga quyidagicha tavsif beradilar: shaxsiy obro’- e’tibor motivlari, obro’ orttirish motivlari, o’zini o’zi boshqarish va hokazo.

Psixologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish va qayd etilgan natijalar asosida ilmiy–amaliy xulosalar chiqarishda, muayyan metodologiyaga tayanish juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Tadqiqotimizning nazariy va metodologik asoslari sifatida psixologiya fanining ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo‘nalganlik to‘g‘risidagi konsepsiyalar; L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, B.G. Ananov, L.I. Bojovich, V.A. Petrovskiy, I.V. Dubrovina, D.I.Feldshteynning o‘quvchi shaxsining muloqot jarayonida shakllanishi to‘g‘risidagi nazariyasi; o‘qitish jarayonini insonlashtirish konsepsiyasi, K.Rodgersning tizimlilik tamoyili, B.F. Lomov shaxslararo munosabatlar nazariyasi, V.V.Nikandrov, V.A.Ganzen psixologiya fanining ong va faoliyat birligi, determinizm, taraqqiyot tamoyillari va o‘zbek psixologiya maktabi vakillarining o‘qish va o‘qitish jarayoniga bag‘ishlangan izlanishlari asos sifatida xizmat qildi.

§ 2.2. Tibbiyot oliygohi talabalarida kasbiy yo‘nalganlik namoyon bo‘lishidagi psixologik xususiyatlar

Shifokorlik kasbi jamiyatda muhim o‘rinni egallab, tibbiyot sohasining o‘quv faoliyati jarayonida talabani o‘rab turgan ijtimoiy muhit, shaxslararo ijtimoiy munosabat va guruhiiy tayyorgarlik kabi o‘ziga xos xususiyatlarni qamrab oladi. Bo‘lajak mutaxassislarning amaliy faoliyatida turli xil temperament va xarakterga ega bo‘lgan bemorlar bilan individual va guruhiiy tarzda ishlashi, ular bilan kerakli munosabatda bo‘lishi va kasbiy qobiliyatlarini shakllanib, rivojlanib borishini taqozo etadi. Bunda o‘quv jarayoni, guruhdagi muhit hamda talaba va o‘qituvchilarning o‘zaro munosabati, hamkorligi ularning amaliy faoliyatida

klinikada yakka holda talabalar bilan bir qatorda, bemorlarga ham ta'sir ko'rsatadi. Shifokor, o'z navbatida, bemorlarga guruhiiy terapiya, logoterapiya yoki monoterapiya usullaridan foydalanadi. Bunda ,albatta ,bemorning psixik holatiga katta e'tibor qaratiladi. Ko'pchilik hollarda, ayniqsa ,nevrologiya va psixiatriya sohasida guruhiiy terapiyaning ta'siri yaxshi samara ko'rsatadi. Bunda bemorlar bir-birlari bilan fikr almashib, yaqin munosabatda bo'ladilar. Ular o'zlaridagi barcha kasalliklarining belgilari hamda davolash usullari, qo'llagan dori-darmonlarining ta'siri haqida fikr almashib taskin topadilar. Bunda psixotreninglarning qo'llanilishi yaxshi samara beradi. Bir-biriga o'xshash dardga chalingan bemorlar jamoasida tashkillashtirilgan erkin suhbat va maslahatlar jarayonida logoterapiya eng yaxshi usullardan biri hisoblanadi.

Shifokorlik kasbini egallash ancha murakkab va mas'uliyat talab qiladigan mutaxassisliklardan biri bo'lib, buning uchun 9-10 yil mobaynida tinmay izlanish va kerakli bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Albatta, bu davrda bo'lajak shifokor turli ijtimoiy munosabatlarning guvohi bo'lib, o'zining kasbiy xususiyatlarini shakllantirib boradi, bunda bemorning saviyasi, madaniyati va savodxonligi katta ahamiyat kasb etadi. Ayrim hollarda shifokorning tajribasizligi natijasida bemorga kasalligini noto'g'ri talqin qilinishi depressiv shakllardan boshlab, letal holatlarga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli, bu borada mukammal bilim va amaliy tajribaga ega bo'lish hamda xato va kamchiliklarga mumkin qadar yo'l qo'ymaslik talab etiladi.

1-2 boshlang'ich bosqich talabalari asosan fundamental fanlarni egallaydilar. 3-bosqichdan boshlab ular umumblok, ya'ni asosan kasbga yo'naltirilgan fanlarni katta qiziqish bilan o'rganadilar. 1-bosqichdan boshlab, o'quv yili tugagach barcha talabalar 1 oylik amaliyot ishini o'taydilar. Bu vaqtda talabalar o'quv faoliyati jarayonida olgan nazariy bilimlarini amaliyotda ro'yobga chiqaradilar. Ular tajribali shifokorlar jamoasida bo'lishlari bilan bir qatorda turli yoshdagi bemorlar bilan yaqindan muloqotda bo'lib, kasallik tarixini rasmiylashtirish, tashxis qo'yish va davolash usullari bilan tanishadilar. Ushbu kasbni egallash davrida bo'lajak

shifokorlar turli qiyinchilik va to'siqlarga duch keladilar. Bu jarayonlarni amalga oshishida talabani, avvalambor, shaxs sifatida ko'rib chiqish o'rinlidir.

Shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (oilalar, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat jamoalari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshqalar) bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va e'tiqodiy dunyoqarashlar ichki va tashqi motivatsiyaning ta'sirida shakllanib, ular bevosita oilalar, bog'cha, maktab va boshqa o'quv - tarbiya muassasalari, ya'ni ijtimoiy muhit orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasiga ko'tarilsa, unda yana yangidan-yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi va o'sishiga olib kelsa, u shaxsning maqsadiga aylanadi hamda hayoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida o'qituvchi, vrach yoki olim, kashfiyotchi bo'lib el-u yurtiga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy jamiyatning qay darajada shakllanganligiga qarab, ta'lim oluvchi talabalarning ichki yoki tashqi motivatsiyasi o'z ifodasini topadi. Afsuski, tajriba shuni ko'rsatadiki, tibbiyot institutiga kirgan talabalarning ko'pchiligida (asosan oilaviy an'analarni davom ettirish, ya'ni ota-onasi shifokor bo'lganligi sababli) tashqi motivlar kuchli rivojlanganligi aniqlandi. Ular uchun tibbiyot oliygohida o'qish sharaflilar, oq libos kiyishga qiziqish, ijtimoiy hayotda obro'li kasbga ega bo'lish, oliy o'quv yurtining diplomini olishdek baxt birinchi o'rinda turishligini guvohi bo'ldik. Achinarlisi shundaki, juda kamchilikni tashkil qiladigan talabalarda ichki motivlar yuqori o'rinda turib, yaxshi bilim olish, kelajakda yaxshi shifokor bo'lish, o'z yurtdoshlariga xolis xizmat qilish istagi borligi aniqlandi. Bu esa, o'z navbatida, bog'cha, maktab, kasb-hunar maskanlari, oilalar va murabbiylarning yoshlarning ichki motivatsiyasi rivojlanishiga kamroq e'tibor berayotganliklaridan dalolat beradi.

Yaxshi o'qituvchi, murabbiy, mutaxassis, ota-onalar bo'lish mumkin, lekin biz o'qituvchilar nafaqat bilim berish bilan chegaralanibgina qolmasdan, balki ularning ichki kechinmalariga befarq bo'lmasligimiz va ijobiy tomonlariga ham e'tibor

berishimiz lozim. Tibbiyot instituti talabalari nafaqat mukammal bilimga ega bo‘lishlari, balki ijtimoiy jamiyatga foyda keltiradigan, bemorlarga kasbiy yordam bera oladigan, ularda ishonch hissini uyg‘otadigan, yaxshi munosabatda bo‘ladigan va ijobiy psixologik ta’sir ko‘rsata oladigan shaxslar bo‘lib yetishishlari zarur.

Tibbiyot institutiga ilk qadam qo‘ygan talabada hali yetarli darajada bilim olishga va tinmay izlanishga ko‘nikma hosil qilinmaganligi sababli 1-bosqich talabalarining boshlang‘ich darslaridanoq bir qator muammolar vujudga keladi. Bunga talabalarining salomatligi, yoshi, tahsil olgan maktabi, yashash sharoiti, ijtimoiy kelib chiqishi va ota-onalarning savodxonlik darajasi katta ahamiyat kasb etadi. O‘rta maktab, litsey va kollejlarning o‘quv dasturlaridan keskin farq qiladigan oliy o‘quv yurti ishchi o‘quv dasturlari talabalarining birdaniga ko‘p hajmdagi vazifalarni bajarishi uchun deyarli barcha bo‘sh vaqtlarini sarflashlariga majbur qiladi. Kundan kunga hajmi murakkablashib borayotgan o‘quv dasturlariga moslashish bir qator o‘ziga xos qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Bundan ta’lim olayotgan oliygohning muhiti, talabalarining guruhdagi munosabati, atrofdagilarning ta’siri va o‘zaro muloqot mustasno emas.

Yangi fanlar bilan tanishish, ularni o‘zlashtirish va tushunib yetishlari uchun albatta, ma’lum vaqt kerak bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, talabalarda ko‘nikish (adaptatsiya) davrini belgilaydi. Bu davrda tibbiyot instituti talabalarining birinchi maqsadi- ular oldiga qo‘yilgan barcha vazifalarni bajarishdan iborat bo‘ladi. Tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, tibbiyot instituti talabalaridagi ichki xohish, istak va qobiliyatlar yaxshi rivojlangan paytda fanlarni o‘zlashtirish juda erkin va ortiqcha zo‘riqishsiz amalga oshadi, lekin o‘z istagi bilan kasb tanlamagan talabalarda esa buning aksi kuzatilmoqda.

Talabalar o‘quv motivatsiyasini o‘rganishda, har bir talabani individual shaxs sifatida ko‘rib chiqish o‘rinli bo‘lib, uning fe’l-atvorida atrofdagi do‘st –u yorlari, oilasi, tarixiy zamon, davr, davlat tuzumi va o‘sha jamiyatdagi siyosat, iqtisodiyot va mafkuraning ta’siri bo‘lib, bu ta’sir uning yaxlit dunyoqarashi, fikrlash tarzi, taffakkurida o‘z aksini topadi.

Tajribamizda tibbiyot instituti talabalarining turli yo‘nalishlaridagi, ya’ni davolash, pediatriya, stomatologiya ishi fakultetlarining talabalari ishtirok etib, kelajakda ular ijtimoiy hayotda har xil toifadagi bemorlar bilan ishlashlariga to‘g‘ri keladi. Bu esa ,o‘z navbatida, alohida tayyorgarlik ishlarini olib borishni taqozo qiladi. Masalan, pediatriya fakulteti talabalarining ish faoliyati davolash fakulteti talabalarinikidan farq qilib, unda yosh bolalar bilan bo‘ladigan munosabatda kattalarnikiga nisbatan o‘zgacha e’tibor va yanada chuqurroq bilimga ega bo‘lish talab etiladi. Xuddi shunday shifokor bilan hamshira hamda shifokor-bemor va hamshira-bemor munosabatlari amaliyotda bir-biridan farqlanadi. Har bir fakultet talabalarining ijtimoiy hayotdagi roli (pozitsiyalari) tibbiyot sohasida alohida o‘rin tutadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, bo‘lajak shifokorlarning kasb egallashi va yaxshi bilimga ega bo‘lishini ta’minlash maqsadida biz tadqiqotimizda tibbiyot instituti talabalarining o‘quv motivatsiyasini belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillarni o‘rganishni maqsad qilib, uni amalga oshirish uchun bir qator metodikalardan foydalandik.

Tadqiqot oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – talabalarning o‘quv motivlarini tekshirishga oid metodikalarni to‘g‘ri tanlab, ishlab chiqib, ularni tajribada o‘rinli tarzda qo‘llashdir. Ana shu murakkab vazifani amalga oshirish har xil xususiyatli izlanishlarni ketma-ket, tartib bilan ,o‘rinli olib borishni taqozo qiladi.

Tibbiyot oliygohi talabalari kasbiy yo‘nalganligining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Yo‘naltiruvchi intellektual bilish. Bu tarkibiy qism bo‘lajak shifokor shaxsining bilish sohasini o‘z ichiga oladi; kasbiy idroki, fikrlashi, tasavvuri, xotirasi, dunyoqarashi, diqqati va ular bilan birgalikda tanlagan kasbiga intellektual tayyorligini tashkil etadi.

2. Motivatsion tayyorligi. Bo‘lajak shifokorning motivatsion tayyorligining asoslari o‘z kasb mutaxassisligini tushuna olishi, o‘zidagi pozitiv munosabatlarni yuzaga chiqara olishi, o‘z-o‘ziga baho berishi bilan belgilanadi.

3. Ijrochilik. Bu tarkibiy qismi kasbiy mahoratni (bilim, malaka, ko'nikmalar), kasbiy xulq odatlari kabi muhim kasbiy sifatlar to'plami, kasbiy qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi va bo'lajak shifokorning irodaviy tayyorligi uning xulqi va faoliyati davomida o'zini boshqarishga qodirligi, operatsional funksiyali tayyorgarlikni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak shifokorning yuqoridagi kasbiy tayyorligi komponentlari bir – biri bilan uzviy bog'liqdir. Bir tarkibiy qismlarning mukammal darajada shakllanishi, kelajakda bemorlar bilan ishlash sifatining yuqori darajada bo'lishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, shaxs kasb egasi bo'lishi uchun ham o'z ontogenezida ma'lum bir davrlarni bosib o'tishi lozimligi ham bir qator psixologlar, xususan, T.V. Kudryavsevning ilmiy ishlarida izohlanadi. Uning fikricha, shaxsning biror bir kasbni egasi bo'lishi uchun ma'lum bir protseduralardan o'tishi lozim bo'lar ekan. Bu uchun esa ma'lum bir muddat va qarorlar qabul qilish kerak bo'lar ekan. Bu jarayon shaxsning kasbga ega bo'lishini ta'minlashi ta'kidlanadi.

Tadqiqotchi olim T.V.Kudryavsev kasb egasini 4 xil davrga ajratadi:

- Kasb egasi bo'lish haqidagi o'y-xayollar.
- Kasb egasi bo'lishga tayyorgarlik ko'rish va tayyorlanish.
- Kasbga mos bo'lgan bilimlarni egallash, unga kirib borish va o'zini ishlab chiqarish jamoasida tasavvur etish.
- Kasbiy faoliyati jarayonida to'laqonli mehnat qilish.[3;96]

Ijtimoiy-psixologik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, juda ko'p kreativ va noan'anaviy g'oyalar, insonning ehtiyojlaridan hamda o'y-xayollaridan kelib chiqadi, ushbu harakatlar natijasida tanlangan kasb haqidagi bilimlarni o'rganishimiz yanada faollashadi. Kasb mohiyati va ko'nikmalari haqida ta'lim olingach, shaxs o'zini shu kasb egasi sifatida his qilishi va xodimlar jamoasida bo'lishga intilishiga olib keladi.. Shaxs o'zi orziqib kutgan hamda ilm olgan kasbi, sohasida to'liq o'zini namoyon qiladi va bu faoliyat uning hayotining muhim bir qismiga aylanar ekan.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning o'quv motivatsiyasi dinamikasini

o‘rganish jamiyatning asosiy muammolaridan hisoblanadi, shuning uchun juda ko‘p psixologik adabiyotlarda kasb tanlashning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilganligi ham juda ahamiyatlidir.

Tibbiyot oliy o‘quv yurti talabalarining bilim olishi tibbiyot va, umuman, sog‘liqni saqlash sohasini rivojlantirishning muhim bosqichlaridan biridir. Bo‘lajak shifokorlar orasida eng yuqori motivatsiya klinik bo‘limlarning yuqori kurslarida o‘qiyotganda, talaba kelajakdagi kasbiga yaqinroq bo‘lganda kuzatiladi. Bu borada, talabalar o‘quv faoliyatiga ta’sir qilayotgan muammolar ham mavjuddir. Ularga past darajali o‘quv motivatsiyasilarini misol qilishimiz mumkin.

«Motivatsiya» zamonaviy psixologiyada ijobiy harakatlarni rivojlantiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Bular tarkibiga, o‘y-xayollar, ehtiyojlar, faol harakatlar, o‘quv motivlari, irodaviy harakatlar kiradi. Motivatsiyani insonning temperamentidan, xarakteridan, ijtimoiy kelib chiqishidan hosil bo‘ladigan, shaxsiy faoliyatini aniqlab beradigan psixologik sabablar majmuyi deb atashimiz mumkin.

Motivatsiya – ehtiyoj yoki istak, stimullashtirilgan va yo‘naltirilgan xulq - atvordir. “Motivlar – insonni u yoki bu faoliyat bilan shug‘ullanishga majbur etuvchi ichki turtki kuchi”dir. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo‘zg‘atuvchi sifatida talqin qiladi va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydi.

Tibbiyot oliy o‘quv yurti talabalarining insonlar salomatligini tiklash yoki tibbiy jihatdan yordamni adekvat tashkil etish bilan bogliq faoliyatni amalga oshirishlariga undaydigan sabablarni - faoliyat motivlari deb yuritiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida birinchi o‘rinda talabaga faqat ma’lum ko‘nikma, bilim va malakalarni o‘rgatish emas, balki ta’lim jarayonining natijasini aks ettiruvchi shaxsning xususiyatini va individualligini shakllantirish, shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari va motivlari tizimini ishlab chiqish zarur bo‘lib, bu ,o‘z navbatida, ta’lim sifatining ko‘rsatkichidir.

Tibbiyot oliy o‘quv yurti talabalari kelgusi kasbiy faoliyatning motivatsiyasini shakllantirishda ilmiy yondashuvga binoan motivatsiyaning ichki

salbiy ta'siri va ijobiy ta'siriga oid ma'lumotlar mavjudligi mazkur dissertatsiyada ko'rilayotgan mavzunung naqadar muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga kasbiy motivatsiyaning xususiyatlarini ochib beruvchi qarama-qarshi yondashuvlar ushbu yo'nalishda yangi tadqiqotlarni olib borishni talab qiladi. Yani alohida jihati shuki, bo'lajak shifokorlarda talabalarning muvaffaqiyatiga qarab ichki va tashqi kasbiy motivatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash muammosini dolzarblashtiradi.

Motivatsiyaning ichki turida faoliyat shaxsning o'zi uchun muhim bo'ladi. Tashqi kasbiy motivatsiyada faoliyatning mazmuniga nisbatan boshqa tashqi ehtiyojlarning qondirilishi istagi tushuniladi (jamiyatda mavqega erishish, yuqori darajadagi mehnatga haq to'lanishi), natijada, ijobiy va salbiy motivlarning tashqi ko'rinishi yuzaga chiqa boshlaydi.

Talabalardagi o'quv motivlari kasbiy motivlar bilan birgalikda sekin- asta rivojlanib boradi. Ya'ni samarali ko'rsatkichga ega bo'lgan o'quv motivatsiyasialari, o'z navbatida, kasbiy motivatsion rivojlanishga xizmat qiladi.

Shaxsning kasbiy rivojlanishi muammosi zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Buning bir misoli etib insoniyat umri va hayoti uchun xavfli bo'lgan koronavirus infeksiyasi bo'lgan Covid-19 ning asoratlarini bartaraf etishda tibbiyot sohasida raqobatbardosh yangi kasblar va mutaxassisliklarni yetishtirib chiqarishga zarurat borligini ko'rsatish mumkin.

Kasbiy rivojlanish talabalarning ma'lum bir ehtiyoj va talablaridan kelib chiqqan holda nazariy hamda amaliyotdagi bilimlarining mazmuniga e'tibor berish orqali shakllanadi.

Zamonaviy psixologiya fanida talabalarning kasbiy motivlarini aniqlash, psixologiyaning nazariy hamda amaliy yondashuvlari asosida talabalarning amaliyot jarayonidagi faoliyatlari davomida tatbiq etish orqali amalga oshiriladi.

Tibbiyot oliy o'quv yurti talabalari kelgusi kasbiy faoliyatning motivatsiyasini shakllantirishga ilmiy yondashuvga binoan motivatsiyaning ichki salbiy ta'siri va ijobiy ta'siriga oid ma'lumotlar mavjudligi mazkur dissertatsiyada ko'rilayotgan mavzunung naqadar muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga kasbiy motivatsiyaning xususiyatlarini ochib beruvchi qarama-qarshi yondashuvlar ushbu yo'nalishda yangi tadqiqotlarni olib borishni talab qiladi. Yani alohida jihati - bo'lajak shifokorlarda talabalarning muvaffaqiyatiga qarab ichki va tashqi kasbiy motivatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash muammosini dolzarblashtiradi.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar kasbiy yo'nalganligi quyidagicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi, ya'ni:

1. Maqsadli ko'rinish - talaba tanlagan kasbining tuzilishi va mazmunini anglab yetishi, kasb to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi.

2. Tashkiliy ko'rinish – tanlagan kasbining ijtimoiy hayotdagi o'rni, obro'-e'tibori, mehnatga yarasha haq to'lanishi

Kasbiy yo'nalganlikning ijtimoiy tarkibiy qismini rivojlantirishning eng muammoli sohalari quyidagilardir:

1. Kasb obrazining psixologik komponenti.
2. Kasbning mutaxassisga qo'yiladigan talablari to'g'risida taqdimotlar.
3. Shifokorlikning dastlabki ko'rinishi.
5. Kasbiy faoliyat davomida o'z-o'zini rivojlantirish.

Bo'lajak shifokorlar ijtimoiy hayotda boshqa yo'nalishdagi talabalardan birmuncha farq qiladi, chunki bo'lajak shifokorlarning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, tibbiy texnologiya rivojlanishi bilan doimiy aloqada bo'ladi, amaliyotda shifokor davolagan bemorlarining ahvoli bilan bog'liq bo'lgan ko'plab sinovlarga duch keladi. Shuning uchun ulardan kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, bemorlar va ularning yaqinlari bilan muloqot qilish, tibbiyot jihozlari bilan ishlashni o'rganish ko'nikmalarini chuqur egallash, kasbiga nisbatan mas'uliyatni his qilish talab etiladi.

O'quv faoliyati jarayonida bo'lajak shifokorlar bemorlar va ularning yaqin qarindoshlari bilan ishlash uchun amaliy faoliyatga psixologik tayyorlik, shuningdek, ularda yuqori kasbiy axloq shakllana boshlaydi. Bo'lajak shifokor tanlagan mutaxassisligi bo'yicha uzluksiz o'z-o'zini tarbiyalash va takomillashtirish uchun motivatsiya oladi. Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyat

shifokordan boshqa ixtisoslik vakillariga qaraganda yaxshiroq axloqiy, fuqarolik va shaxsiy fazilatlarni kutadi. Bu shakllangan fazilatlar kasbiy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Ushbu xususiyatlarni qabul qilish va amalga oshirish hozir ham bo'lajak shifokorlar tayyorlashning dolzarb va muhim qismi bo'lib qolmoqda. Tibbiy amaliyotda sodir bo'ladigan ziddiyatli vaziyatlarning haddan tashqari xilma-xilligi mutaxassisning axloqiy fazilatlarini tibbiy kasb uchun obyektiv zarurat toifasiga aylantirishni talab qiladi.

Bo'lajak shifokorlar bemorlar va ularning yaqinlari bilan ishlashda hamda tibbiyot texnologiyalarni tushunishda tashkil etilgan samarali o'quv jarayonidan unumli foydalanishlari, zarur bilim va ko'nikmalarga, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishlari o'ta muhim jihat hisoblanadi, aks holda, kasbiy faoliyati davomida yuqori sifatli tibbiy yordam ko'rsatishi qiyinroq kechadi.

Ko'pgina psixologlar shaxsiyatning tuzilishini hisobga olib, asosiy komponent - uning yo'nalishini ajratib ko'rsatadilar. Oriyentatsiya - bu shaxs yaxlitligining barqaror xususiyati bo'lib, u ko'p jihatdan ma'lum darajada axloqiy hamda kasbiy sifatlarni o'z ichiga olgan shaxsning rivojlanish ko'rsatkichlaridir.

Kasbiy yo'nalishni shakllantirishning birinchi zaruriy sharti bu - shaxsning kasbiga alohida ijobiy munosabatining paydo bo'lishidir. Subyektiv munosabatning kelib chiqishi o'rnatilgan obyektiv munosabatlar bilan belgilanadi. Biroq shaxsiy ahamiyatga ega bo'lmaslik faoliyatning ayrim jihatlariga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqarishi mumkin. Bu shaxsning hozirgi vaqtdagi tarbiyalanganlik darajasi, shaxsiy fikrlashlari hamda maqsadli xatti-harakatlari orqali namoyon bo'ladi.

Tibbiyot oliygohi talabalarining tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlari ko'rinishi ularning kasbiy yo'nalganligini belgilab bermaydi, balki uning faoliyat yo'nalishini aks ettiradi va uning obyektiga ishora qiladi xolos. Kishining kasbga ijobiy munosabati turli ehtiyoj va intilishlarga asoslanishi kerak. Subyektiv munosabat asosida yotgan motivlar tizimini tahlil qilish orqaligina uning haqiqiy psixologik mazmunini baholash mumkin. Shaxs ongida paydo bo'ladigan va ayniqsa muhim bo'lgan his-tuyg'ular, tasvirlar, fikrlar bilan tavsiflanadi; bu

kasbning shaxsga qo‘yadigan obyektiv talablari. Kasbiy yo‘nalishni shakllantirish jarayonida inson bir necha bosqichlarni bosib o‘tadi, ya’ni talaba tashqi ko‘rinishda ma’lum bir kasbni egallashga qaror qiladi, hissiy munosabat, vaziyatga qiziqish, muammoni o‘rtaga tashlashda kasbiy oriyentatsiya shakllanadi, yuqori kasbiy mahorat qayd etiladi.

Bizning tadqiqotimizda, asosan, Andijon Davlat Tibbiyot instituti, Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, Toshkent Farmasevtika institutining davolash , pediatriya, stomatologiya fakultetlarida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etdilar. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, oliygohlarning davolash fakultetida tahsil oladigan talabalar pediatriya fakulteti talabalaridan yuqori kasbiy yo‘nalishga ega ekanligi aniqlandi. Ya’ni 23 foiz talabalar kasbiy yo‘nalishga ega emaslar. Ushbu talabalarining kasbiy yo‘nalganligini oshirish uchun institutda o‘tkazilayotgan turli xil tanlovlardagi ishtirokini ta’minlash, ularning darsdan bo‘sh vaqtlarida klinik fanlarni o‘zlashtirishda alohida birlashtirilgan ustozlar yordamida kasbiy bilimlarni rivojlantirish, simulyatsion markazlarda amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish orqali tuzatish mumkin, bu ularning kelajakdagi mutaxassisligiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga yordam beradi.

Stomatologiya fakulteti talabalarining 10 foizi kasbiy yo‘nalishning past darajasiga ega. Bu talabalarining kasbiy yo‘nalishi yo‘qligini ko‘rsatadi.

Bizning so‘rovnomamizda “Siz tanlagan kasbingizni yoqtirasizmi?”, “O‘z mutaxassisligingizni o‘zlashtirganingizdan qanday qoniqish hosil qilasiz?”, “O‘z mutaxassisligingiz bo‘yicha ishni bajarishda o‘z qobiliyatingizga ishonasizmi?” kabi savollar berildi. Olingan javoblar tahlil qilinib, talabalar bilan muhokama qilindi.

O‘tkazilgan turli xil psixologik tadqiqotlar tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining kichik (I-II) va yuqori (IV-VI) kurslari talabalarining shaxsiy fazilatlarida katta farq borligini aniqladi.

2.3. Tibbiyot oliygohi talabalarida o‘quv motivlari va asosiy omillarning psixologik tavsifi

Tibbiyot oliygohi talabalarining o'quv motivlaridagi asosiy jihatlar va omillar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tahlil etilgan. Talabalar o'quv motivlari, birinchi navbatda, ularning klinik fanlarni mukammal o'zlashtirishi, ularni tashqi hamda ichki tomondan rag'batlantirish orqali namoyon bo'ladi, ya'ni talaba o'zlashtirayotgan fanlariga qiziqishi, shaxsiy "men"ining tanlagan kasbiga bo'lgan moyilligi darajasi bilan uzviy bog'langan bo'ladi.

Bakalavriat talabalari o'z hayotlaridan qoniqish hosil qiladi va o'zlarini farovon his qiladilar. Ular salbiy his-tuyg'ularga qaraganda ko'proq ijobiy his-tuyg'ularni boshdan kechirishadi. Yuqori sinf o'quvchilaridan farqli o'laroq, ular atrofdagi odamlarni do'stona, sezgir, yordam berishga va qo'llab-quvvatlashga tayyor deb bilishadi. Ularning ongida ular atrofidagi dunyo yaxshi niyatlarga to'la bo'ladi.

1-2-kurs talabalari "oq xalatlilar sha'ni" va kasb nufuzi, mehnatining inson uchun foydali tomonlariga katta ahamiyat beradi. Salbiy hayotiy vaziyatlar ikkinchi darajani egallaydi yoki ular butun hayotini bag'ishlashni rejalashtirgan sababning foydalari bilan solishtirganda unchalik ahamiyatli ko'rinmaydi. Shu bilan birga, ular o'zlarining shaxsiyati va ideal shifokor qiyofasi o'rtasidagi sezilarli farqni topadi. Bu ularning tanlagan kasbida hali ham o'zlarini to'liq ko'rmaganliklaridan dalolat beradi. Ular uchun faol ish jarayoni, sevimli ish, yangilikni bilish hayotiy qadriyatlar sifatida namoyon bo'ladi.

Katta yoshdagi talabalar ko'proq kasbning mohiyatiga va tibbiy amaliyotining maqsadlariga e'tibor berishadi. Ular uchun kasbning motivatsion salohiyati katta ahamiyatga ega bo'lib, u o'z ishiga nisbatan insonning mavjud resurslari yig'indisini aks ettiradi.

IV va V kurs talabalari amalda o'zlarini yaxshi shifokor qiyofasida tutadi va ular o'z ishlarida asqotadigan barcha kerakli fazilatlarga ega ekanligiga ishonishadi, ya'ni o'qishga qabul qilingan talabalar o'qish davrining dastlabki yillarida tanlagan kasbi bo'yicha zarur bilimlarni egallashga harakat qilsalar, yuqori bosqichga o'tgandan keyin ushbu qiziqishlar asta-sekin sustlashib boradi, natijada

ular tanlagan kasbini tezroq egallashga, kasbiy mavqega ega bo'lishga intiladilar. Biroq ular hayotida kichik yoshdagi talabalar hayotiga o'xshash yoqimli voqealar bo'lmaydi, salbiy his-tuyg'ular ustunlik qiladi.

Magistratura talabalari o'zini yuqori baholaydi va buni hech ham yashirmaydilar. Ular faolroq hayotiy pozitsiyaga ega, noqulay vaziyatni bartaraf etish va nizolarni hal qilish uchun harakat qilishga tayyor bo'ladi. Ular o'zlarini har qanday vaziyatda tuta oladigan va chidamlilikka ega ijobiy odamlar deb bilishadi. Ular o'zlariga yuqori talablar qo'yadilar.

Yuqori bosqich talabalari quyi bosqich talabalariga nisbatan intilishi kerak bo'lgan maqsadlarni aniqlashda ko'proq muvaffaqiyatga erishadilar. Bundan kelib chiqadiki, bakalavriat talabalari kelajakdagi kasbini tanlash motivlarini batafsilroq va aniqroq belgilaydi. Bitiruvga yaqinlashayotgan talabalar odamlarga qiyinchiliklar va sog'liq muammolarini yengishga yordam berish imkoniyatiga ahamiyat berishadi. Shuningdek, ular uchun o'z shaxsiyatiga ega bo'lish va mutaxassis sifatida o'sish, rivojlanish va takomillashtirish zarurati katta ahamiyatga ega.

Katta yoshdagi talabalar tibbiyot oliygohining boshlang'ich kurslarida mazmuni va funksiyalariga o'qiyotganlarga qaraganda ko'proq fikr yuritadilar. Refleksiya – subyekt e'tiborini o'z ongiga, ya'ni uning mazmuni va funksiyalariga qaratadi

IV va VI kurs talabalarida o'qish va butun umri davomida o'z xulq-atvorini doimiy nazorat ostida ushlab turish qobiliyati shakllanib boradi. Ular diqqat bilan tushunishlari, hozirgi voqealarni ishlab chiqishlari va o'z harakatlarini mavjud sharoit bilan bog'lashlari mumkin. Ular o'z xatti-harakatlarini o'zgaruvchan sharoitlarga, bemor va uning yaqinlari bilan bo'ladigan muloqotlarini o'zlarining kayfiyatlari va holatiga qarab muvofiqlashtiradi. Shuningdek, ular o'tmishda tugallangan faoliyat haqida mulohaza yuritish va o'tmishdagi voqealarni tahlil qilish hamda istiqbolli mulohaza yuritish, ya'ni bo'lajak faoliyat, xulq-atvor haqida fikr yuritish uchun retrospektiv aks ettirishga moyil bo'ladi, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni qayta takrorlamaslikni o'rganadi, natijalarni rejalashtiradi va

bashorat qiladi. Tibbiyot oliy o'quv yurtlarining kichik kurs talabalari past darajada aks ettirish qobiliyatiga ega.

Yuqorida aytilgan psixologik xususiyatlar va tavsiflar katta yoshga qarab oshib boradi va bo'lajak mutaxassisning kasbiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Bu esa bo'lajak shifokorlarning o'qish yillari davomida olgan bilimlari va amaliy tajribalari evaziga kompleks tahlil qilish, mulohaza yuritish, murakkab sharoitlarda qaror qabul qilish va prognozlash qobiliyatining rivojlanishiga olib keladi. Amaliyot jarayoni boshlanishi bilan tibbiyot oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari tashxis qo'yish va davolanishni buyurishga hamda tavsiyalar berishga mas'uliyat bilan yondashadi. Yuqori darajada aks ettirish qobiliyatiga ega bo'lgan shifokor eng og'ir muammoli holatlarni oldindan rejalashtirish va yagona asosga keltirish qobiliyati bilan ajralib turadi. U rejalashtirilgan harakatlarni mumkin bo'lgan natijalar bilan mohirona bog'laydi. Bundan tashqari, yuqori darajadagi aks ettirishga ega bo'lgan shifokorlar o'zlarining shaxsiy taassurotlarini tahlil qilish va ularda o'z g'oyalarini to'g'ri talqin qilishga yordam beradigan obyektiv ma'lumotlarni topish qobiliyati bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlar bo'lajak shifokorlarga malakali va hurmatli mutaxassis, o'z ishining ustasi bo'lishga imkon beradi.

Bundan tashqari, I-II va IV-VI kurs talabalarining o'zlariga, hayotga, bo'lajak kasbiga bo'lgan qarashlaridagi farqlarini ham kuzatishimiz mumkin. Bu esa tibbiyot oliygohida o'qish davrida romantizmdan realizmga va mas'uliyatli kasbiy yo'nalganligining o'zgarishiga olib keladi hamda kelajakdagi kasbi haqidagi g'oyalar ham o'zgaradi. I-II-bosqich talabalar tanlagan kasbining olijanobligiga e'tibor qaratadi va bunda yaxshi o'qish uchun motivatsiya topadi, yuqori bosqichlarga o'tganda esa talabalar kelajakdagi kasbi uchun zamin yaratishga hozirlik ko'ra boshlaydilar, ya'ni o'zi xohlagandek mutaxassis bo'lish, yaxshi daromadli ish o'rni, kasbining obro'-e'tibori hamda jamiyatdagi mavqeyi haqida fikrlay boshlaydilar. O'quv faoliyati davomida esa tengdoshlaridan birmuncha farqli o'laroq, fikrlash qobiliyatlari ham oshib boradi.

Bundan tashqari, tibbiyot oliygohi talabalarining kasbiy yo'nalganligi ularning tanlagan kasbi hamda yo'nalishi asosida kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayoni bilan belgilanadi.

Tibbiyot oliygohi talabasi kasbiy xususiyatlarining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsiy komponent. U kasbiy faoliyat tizimining sifat xususiyatlarini, kasbiy aloqalar tizimini, kasb egasining shaxsiyati tizimi va kasbiy axloq tizimini o'z ichiga oladi.

2. Strukturaviy (tuzilmali) komponent. Bu kognitiv, affektiv va xulq-atvor komponentlarining o'zaro bog'liqligi va individual xususiyatlar majmuasini nazarda tutadi.

3. Dinamik komponent kasbiy rivojlanishning turli davrlaridagi tarkibiy qismlar shaxsning mutaxassis sifatida to'liq ro'yobga chiqishi bilan yakunlanadi [2].

Shifokorning kasbiy yo'nalganlik dinamikasi va malakasi, yo'nalishi, muhim ijtimoiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, ularning yordami bilan integratsiya va doimiy kasbiy o'sishga tayyorlik darajasi aniqlanadi. Kasbiy o'zini o'zi anglash esa bu jarayonning markaziy tarkibiy qismi hisoblanadi. Kasbiy rivojlanish jarayonida shifokor doimiy ravishda murakkablashib borayotgan ko'plab axloqiy, kommunikativ va kognitiv muammolarni hal qiladi. Natijada, mutaxassis vaqt o'tishi bilan o'z faoliyati uchun muhim bo'lgan ishbilarmonlik va axloqiy fazilatlarga ega bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, kasbiy rivojlanish bu -shaxsning kasbiy jamoaga kirishini ko'rsatadi.

Talabalarining atrofdagi odamlarni hayratda qoldirishni yaxshi ko'radigan yana bir jihati shundan iboratki, bu anatomiya fani darsliklari, ichki organlarning rasmlarini topish mumkin bo'lgan oddiy kitoblar bilan qurollanadilar

Talabalar ta'lim jarayonidagi o'quv motivlarining yana bir ko'rinishlari shundan iboratki, ularda o'quv motivlaridan ko'ra o'rganishga, anglashga, bilishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqadigan motivlari ustunroq turadi, shuningdek, yuqorida sanab o'tilgan o'quv motivlari orqali mustaqil fikrlash, to'g'ri tashxis

hamda tahlil qilish va baholashni amalga oshiradigan murakkab dinamik qobiliyatlar shakllanadi.

Tibbiyot oliygohi talabalari, asosan, yuqori intellektual qobiliyatga ega bo'ladilar. Darhaqiqat, katta miqdordagi ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonida ularning miyasida doimiy ravishda yangi psixologik aloqalar paydo bo'ladi. Ular haqiqatan ham ajoyib xotiraga ega va mantiqiy fikrlash qobiliyati yaxshi rivojlangan bo'ladi.

Tibbiyot oliygohi talabalari yuqori rivojlangan pozitiv his-tuyg'uga ega bo'ladi. Shuningdek, ular dahshatli vaziyatlarning tabiiy hikoyachilaridir. Tibbiyot talabalari hayotida juda ko'p kulgili hikoyalar mavjud. Shifokorlar haqidagi bu hikoyalar sodir bo'libgina qolmay, ular og'izdan og'izga o'tib ham kelmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi kunda tibbiyot oliygohi talabalari amaliyot jarayonlari davomida haqiqiy odamning jasadida bilimlarni oshirmasdan, balki ular zamonaviy plastik maketlar, mulyajlar orqali mashq qilmoqdalar.

Tibbiyot oliygozlarida o'qish davomida talabalar mutaxassislikni o'zlashtirish bilan bog'liq bir qator inqirozlarni boshdan kechiradi. O'qishning dastlabki bosqichlarida o'zini talaba sifatida anglashda inqirozlarga to'qnash keladi, tanlagan kasbi haqidagi tasavvurlarning paydo bo'lishi sustroq bo'ladi hamda ushbu faoliyat ko'proq darajada tajribani to'plash bilan emas, balki tushunish bilan bog'liq jarayondir. Tanlangan kasbga munosabat kelajakdagi bo'lajak shifokorlarning o'quv hamda kasbiy motivlarining namoyon bo'lishi orqali aniqlanadi.

Talabalar hayotida shifokor sifatida o'zini namoyon etishi ularning klinik fanlarni o'zlashtirishda, amaliyot jarayonida bemorlar va ularning yaqinlari bilan muloqot qilish ko'nikmalari shakllanganda o'zining kasbiy xususiyatlarini ochib beradi. O'z navbatida, kasbiy o'zini o'zi anglashda inson asta-sekin kasbiy faoliyat subyekti sifatida o'z shaxsiyati xususiyatlarini anglab yetadi. Kasbiy o'zini o'zi anglash natijasida o'z "men-imidj" ining kasbiy jihatlari shakllanadi.

Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayonida professional o'zini o'zi anglash – institutning tajribali o'qituvchilari yordamida amalga oshiriladi. Psixolog olimlar ushbu jarayonni ikki xil ko'rinishda baholaydilar, ya'ni birinchidan, kasbiy o'zini

anglash atrofidagi odamlar bilan munosabatlarning turli shakllari orqali sodir bo‘ladi. Ikkinchidan esa, inson o‘zining tanlagan kasbi va yutuqlarini tahlil qiladi, ularni o‘tmishdagi muvaffaqiyatlari bilan taqqoslaydi. O‘zini va o‘z harakatlarini boshqalar nuqtayi nazari bilan baholagan holda, bo‘lajak mutaxassis o‘zining kasbiy mohiyati, “O‘z professionalligi” haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Bu ijtimoiy “oyna” orqali u o‘z kasbini o‘rganadi, malakasini oshiradi, o‘zini mutaxassis sifatida tan oladi.

Kasbiy o‘zini o‘zi anglash jarayoni talabalik davridan boshlanadi va mutaxassisning butun tibbiy amaliyoti davrida davom etadi. Uning yordami bilan shifokor o‘zining o‘tmishdagi xatolarini tuzatadi va kelajakda ularni takrorlashdan qochadi.

Inson salomatligini muhofaza qilish sohasidagi har qanday kasb hurmatga loyiqdir. Biroq o‘z ishining haqiqiy ustasi bo‘lishdan oldin, kelajakdagi “Aesculapius” tibbiyot universitetida o‘qish uchun uzoq yo‘lni bosib o‘tishi kerak.

Aslida, tibbiyot oliygohi talabalarining hayoti qiyinchiliklarga to‘la. Albatta, ko‘pchilik uchun o‘qish oson – buning asosiy shartlaridan biri bu - tibbiyotga bo‘lgan qiziqishi va intilishidir. Talabalik davrida har xil turdagi faoliyatlarga ko‘nikish qiyin kechadi, ya’ni talabalar turli xil ma’ruzalar, seminarlarda qatnashishlari kerak. Birinchi bosqich davrida tibbiyot oliygohi talabalarining kun tartibi soat 8-9 dan 14-40 gacha davom etadi. Aytish joizki, talaba uyga kelganida, u dam ololmaydi. Yuridik yoki iqtisodiy oliygoh talabalarini hayotdan zavqlanish imkoniyatiga ega bo‘lgan bir paytda, tibbiyot oliygohi talabalarini asosiy kuchini hafta davomida o‘qish uchun sarflaydi.

Shifokorlar mutlaqo alohida toifadagi shaxslardir. Aytishlaricha, tibbiyot xodimi yuz ifodasi bilan ajralib turadi. Professional shifokorlar singari, tibbiyot oliygohi talabalarini ham ushbu yuz ifodasiga tegishli, ular ko‘p jihatdan boshqa oliygoh talabalaridan farq qiladi, ya’ni:

- barcha talabalar oq xalat kiyishlari shart. Bundan tashqari, ular bu vazifani o‘zlari juda xohlaydilar – o‘qishga yangi qabul qilingan vaqtdan boshlab o‘zini shifokor sifatida ko‘cha-ko‘yda ham insonlarning e’tiborini tortish maqsadida oq

xalatda yurishga qiziqadilar. Yuqori bosqichlarga o‘tgandan keyin esa, oq xalat kiyish talabalar uchun unchalik qiziqish uyg‘otmaydi, faqatgina institutdagi o‘quv jarayonlaridagina kiyishga majbur bo‘ladilar.

Talabalarning atrofdagi odamlarni hayratda qoldirishni yaxshi ko‘radigan yana bir jihati shundan iboratki, bu anatomiya fani darsliklari, ichki organlarning rasmlarini topish mumkin bo‘lgan oddiy kitoblar bilan qurollanadilar.

Tibbiyot oliygohi talabalari, asosan, yuqori intellektual qobiliyatga ega bo‘ladilar. Darhaqiqat, katta miqdordagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish jarayonida ularning miyasida doimiy ravishda yangi psixologik aloqalar paydo bo‘ladi. Ular haqiqatan ham ajoyib xotiraga ega va mantiqiy fikrlash qobiliyati yaxshi rivojlangan bo‘ladi.

Tibbiyot oliygohi talabalari yuqori rivojlangan pozitiv his-tuyg‘uga ega bo‘ladi. Shuningdek, ular dahshatli vaziyatlarning tabiiy hikoyachilaridir. Tibbiyot talabalari hayotida juda ko‘p kulgili hikoyalar mavjud. Shifokorlar haqidagi bu hikoyalar sodir bo‘libgina qolmay, ular og‘izdan og‘izga o‘tib ham kelmoqda.

Shuni ta’kidlash joizki, hozirgi kunda tibbiyot oliygohi talabalari amaliyot jarayonlari davomida haqiqiy odamning jasadida bilimlarni oshirmasdan, ular zamonaviy plastik maketlar, mulyajlar orqali mashq qilmoqdalar.

Gippokrat davridan beri shifokorlarni o‘qitish jarayoni jasadlarda mashq qilish bilan uzviy bog‘liq edi. Ma’lum bo‘lishicha, XXI asrda tibbiyotchi talabalarining ko‘pchiligi plastikdan yasalgan simulyatsiyalarda o‘qishni davom ettirmoqda. Hozirda ular jasadlarda amaliyotni ta’minlashi shart emas. Bu, albatta, milliy mentalitet, islom dini aqidalariga to‘g‘ri kelmasligi bilan bog‘liq. Yaxshi mutaxassis bo‘lish uchun plastikdan yasalgan simulyatsiyalardan foydalanib o‘rganish ham zarar qilmaydi. Bu ta’lim oluvchilarning tanlagan kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lishi ularning kasbiy qiziqishlariga, klinik fanlarning sir-asrorlarini o‘rganish istagiga qarab belgilanadi.

Talabalik jarayonida ta’lim motivlari bir qatorga joylashtiriladi, ma’lum bir tizim bo‘yicha tartibga solinadi. Ulardan ba’zilar o‘quv motivatsiyasi tarkibida muhimroq o‘rinni egallaydi, boshqalari esa kamroq ahamiyatga ega bo‘ladi.

O'quv motivatsiyasi tarkibida yetakchi komponentni aniqlash muammosini hal qilishdagi qiyinchiliklar, asosan, insonning motivlari inson shaxsiyatining eng dinamik tomoni ekanligi bilan bog'liq. Xuddi shu o'quv faoliyati turli motivlar uchun turtki bo'lishi mumkin. U yoki bu motivning ustunligi juda ko'p turli xil holatlarga bog'liq.

Bundan tashqari, bir xil ehtiyoj turli motivlar orqali namoyon bo'lishi mumkin va bir xil motiv turli ehtiyojlarni aks ettirishi mumkin. Ehtiyojlarni turli yo'llar bilan qondirish mumkin bo'lganidek, bir xil motiv har xil faoliyat turlarini keltirib chiqarishi mumkin.

V.G. Lisovitskiyning so'zlariga ko'ra, qachonki dars qiziqarli tashkil etilgandagina, talaba o'z ixtiyori bilan o'qishga hamda fanlarni yaxshi o'zlashtirishga harakat qila boshlaydilar. Umumiy olib qaralganda, talabalar o'quv motivlari ularning shaxsiy ehtiyoji ekanligini tan olishimiz kerak.

Talabalarning o'quv faoliyatida burch motivlari va o'z-o'zini tarbiyalash motivlari ustun bo'ladi.

I. O'quv faoliyatining o'ziga xos bo'lgan, uning bevosita mahsuli bilan uzviy holda kechadigan motivlar quyidagicha:

1. Ta'lim jarayoni bilan birgalikda rivojlanadigan motivlar (o'rganish, yangi faktlarni o'zlashtirish, bilim, harakat usullarini egallash, o'rganilayotgan hodisalarning mohiyatiga kirib borish istagidan kelib chiqadi).

2. O'quv faoliyati motivlarini tahlil etish ta'lim jarayonida kreativ qobiliyatlarni ko'rsatish, mustaqil qaror qabul qilish, mashg'ulotlar davomida nutq so'zlash, muhim topshiriqlarni bajarishda irodaviy xususiyatlarni namoyon qilish va tarkib toptirish orqali amalga oshiriladi.

2. Ta'lim faoliyatidan tashqarida bo'lgan narsalar bilan bog'liq motivlar:

1) ijtimoiy motivlar:

a) jamiyat, guruh, o'qituvchi, ota-ona va boshqalar oldidagi burch va javobgarlik motivlari;

b) o'z taqdirini hal etish orqali o'zlashtirayotgan yangi bilimlarini kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun muhim ekanligini anglab yetish yoki rivojlanish motivlari;

2) tor doiradagi shaxsiy motivlar:

a) shaxsning farovon motivlari (ota-onasining va ustozlarining roziligini olish istagi, yaxshi baho olish istagi);

b) obro'li motivlar (rahbarlikka intilish, birinchi o'quvchilar qatoriga kirish, eng yaxshi bo'lish, sinfdoshlar orasida munosib o'rin egallash istagi);

3) salbiy motivlar (agar o'quvchi yaxshi o'qimasa, o'qituvchilar, ota-onalar, sinfdoshlari orasidagi muammolardan qochish).

Tibbiyot oliygohi talabalarining o'quv motivlaridagi asosiy jihatlar sifatida shuni ta'kidlash kerakki, ular birinchi navbatda shaxsiy intellektual qobiliyatlarining o'quv jarayoniga ta'siri bilan rivojlanib boradi. Institut o'qituvchilari dars va amaliyot jarayonlarini talabalarning shaxsiy qobiliyat darajalarini inobatga olgan holda olib borishi kerak.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun tibbiyot oliygochlari talabalarining o'quv motivlari ularning shaxsiy qobiliyatlari bilan birgalikda amalga oshirilishini isbotlab berdik. Tadqiqotimizning uchinchi bobida Andijon Davlat Tibbiyot instituti, Toshkent Tibbiyot akademiyasi hamda Toshkent Farmasevtika instituti talabalarida intellektual shkalalar orqali tajribalar o'tkazdik, to'plangan natijalarni talabalarning kasbiy yo'nalganligi bilan solishtirish orqali ularda klinik fanlardan o'zlashtirish darajasi yuqori ekanligini aniqladik.

Bundan tashqari, yana bir juda muhim jihat, tibbiyot oliygohi talabalarida muntazamlik aniqlandi. Ma'lum bo'lishicha, "kuchli" va "zaif" talabalarni taqqoslaganimizda, talabalarning aqliy faoliyatidan ko'ra, ulardagi o'quv motivlarining darajalari yuqoriligi bilan belgilanadi, ya'ni "kuchli" talabalarning o'quv motivlari ular o'zlashtirayotgan fanlarning mohiyatini to'liq anglab yetishi, ularning maqsadlari doimo izlanish va harakatda bo'lishidadir.

"Zaif" talabalarga kelsak, ularning motivlari, asosan, tashqi vaziyatlarga bog'liq: yomon o'qiganligi uchun qoralanish va jazodan qochish, stipendiyalarni yo'qotmaslik va hokazo.

Talabalarning ta'lim jarayonidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari, asosan, ulardagi o'quv motivlarining darajasi bilan belgilanadi, ya'ni o'quv motivlarining

shakllanishi hamda rivojlanishi orqali kasbiy qobiliyatlar va bilimlar yetarli darajadagi ko'rsatkichni tashkil etadi.

O'quv jarayonidagi talabalarning ta'lim motivlarining natijalarini aniqlash orqali, ta'lim va kasbiy faoliyatni rejali tartibda rivojlantirish mumkin. Shuningdek, talabalarning o'quv motivlarini rivojlantirish uchun ta'lim muassasidan juda katta mas'uliyat talab etiladi. Lekin ta'lim motivlarini shakllantirishda oliygoh professor-o'qituvchilardan tinimsiz mehnatni, fanining yetuk mutaxassisi bo'lishni, talabalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda mutaxassislik fanlarini adekvat tasvirlash yo'llarini topishini talab etadi.

Bundan tashqari, tibbiyot oliygozlari talabalarida ayni paytda ikki turdagi motivlar namoyon bo'lmoqda, birinchisi, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish bo'lsa, ikkinchisi esa , muvaffaqiyatga erishish motivlari. Albatta, muvaffaqiyatga erishishda talabalarning o'quv motivlarini rivojlantirish zarur. O'quv motivlarining yuzaga kelishi bilan talabalarning konstruktiv, bo'lajak shifokor sifatida ijobiy natijalarga erishishiga olib keladi. Shaxsiy faoliyat muvaffaqiyatga erishish zarurligini belgilaydi. Muvaffaqiyatsizlik qo'rquvining motivatsiyasi salbiy sohaga tegishli. Ushbu turdagi motivatsiya bilan inson, birinchi navbatda, buzilish, muvaffaqiyatsizlik, tanqid, jazodan qochishga intiladi. Bu holatda salbiy oqibatlar kuzatilishi ham mumkin. Hali hech narsa qilmagan odam allaqachon mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqadi va muvaffaqiyatga erishish yo'llari haqida emas, balki uning oldini olish yo'llari haqida o'ylaydi.

Hozirgi rivojlanish jarayonida ushbu muammo doirasida olib borilgan ko'plab eksperimental tadqiqotlar tahlili talabalarda muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish hamda muvaffaqiyatga erishish istagida bo'lgan talabalarning psixologik portretini yaratish uchun imkoniyat tug'iladi.

Muvaffaqiyatga erishish motivlari – bunday motivga ega bo'lgan talabalar o'quv faoliyatining unumdorligi va faollik darajasi kamroq darajada tashqi nazoratga bog'liq bo'ladi, maqsadga erishishda qat'iyatliligi bilan ajralib turadi, ular o'z kelajagini uzoq vaqt davomida rejalashtirishga moyil bo'ladi. Ular o'rtacha qiyinchilik yoki biroz oshirib yuborilgan, garchi amalga oshirish mumkin

bo'lsa-da, majburiyatlarni olishni afzal ko'radi. Ular o'zlariga real erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni qo'yadi, agar ular tavakkal qilsa, ehtiyotkorlik bilan harakatlanadi, natijada tanlagan kasbi bo'yicha ko'proq muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquv motivlari- bu motiv egalari esa, kreativ fikrlay olmaydilar, ta'lim jarayonida ham o'qituvchilar tomonidan berilgan topshiriqlarni mas'uliyat bilan bajarmaydilar yoki ularni rad etish sabablarini topadi. Asossiz yuqori maqsadlarni qo'yadi, boshqa hollarda esa ular xarajatlar talab qilmaydigan oson vazifalarni tanlaydi. Ular muvaffaqiyatsizliklarni hisobga olgan holda o'zlarining muvaffaqiyatlarini ortiqcha baholashga moyildirlar. Muammoli xarakterdagi vazifalarni bajarayotganda, vaqt yetishmasligini ro'kach qiladi. Ular, qoida tariqasida, maqsadga erishishda qat'iyligi bilan farqlanadi, vaqtini maqsadsiz oqib o'tayotgandek his qilishadi va boshdan kechirishadi.

Talabalarda muvaffaqiyat motivatsiya diagnostikasi va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish motivatsiyasi kuzatish usuli orqali aniqlanishi mumkin. Bu yerda hal qiluvchi holat shundaki, o'qituvchi turli xil hayotiy va tarbiyaviy vaziyatlarda talabaining xatti-harakati va faoliyatini kuzatish imkoniyatiga ega. Bunda o'qituvchining talaba shaxsi, faoliyati va xulq-atvorida kuzatayotgan narsalarni chuqur o'ylangan va chuqur psixologik tahlil qila olishi ham xuddi shunday hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, zamonaviy psixodiagnostikada shaxsiy motivatsiyaning ko'rib chiqilayotgan turlarini diagnostika qilishga qaratilgan turli xil maxsus usullar ham mavjud.

Bundan tashqari, talabalarda motivatsion sohasi odatda proyektiv usullar yordamida ham o'rganiladi. Proyektiv usullar juda ko'p vaqt talab qiladi va qo'shimcha ravishda mutaxassis-psixologdan eng yuqori malakani talab qiladi

Endi kasbiy motivatsiya va uning talabalar muvaffaqiyatiga ta'siri masalasini ko'rib chiqaylik. Hozirgi vaqtda talabalar muvaffaqiyat darajasini ularning shaxsiy qobiliyatlari hamda o'quv motivlarini rivojlantirish belgilab beradi. Talabalarning o'zi tanlagan kasbiga qiziqishi kuchli bo'lsagina, ta'lim jarayonida ham ular faol

harakat olib boradilar. Ulardagi qobiliyatlarning shakllanishiga qarab, ta'lim muassasasining ta'lim faoliyatiga va imidjiga sezilarli darajada ta'sirini o'tkazadi.

Tibbiyot oliygohlarida iqtidorli yoki sust o'zlashtiradigan talabalarning rivojlanishi ulardagi aqliy qobiliyatlari orqali emas, balki ularning kasbiy motivatsiyasining rivojlanish darajasi bilan farqlanadi. Bunga sabab, oliy o'quv yurtlariga tanlov asosida qabul qilishning tizimli yo'lga qo'yilganligidadir. O'tkazilgan test sinovlari natijalariga ko'ra, yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan abituriyentlar bilan oliygohga qabul qilingan talabalar bir-birlari bilan tanlagan yo'nalishi va kasbi haqida o'rtoqlashadilar, ya'ni ularda kasb motivlarining namoyon bo'lishi kuzatiladi, natijada, bunday psixologik yaqinlik talabalarning o'quv va kognitiv faoliyatga bo'lgan ichki motivlari tizimi rolini o'ynaydi.

Kasbiy motivatsiya kasbga ijobiy munosabat jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki bu motiv ta'limning yakuniy natijalariga uzviy bog'liq bo'ladi. Kasbga bo'lgan ijobiy munosabat, uning malakali g'oyasi bilan birgalikda, ko'proq shaxsiy motivlarning shakllanishini belgilaydi. Ushbu pozitsiya oliy va o'rta-maxsus ta'lim jarayonida olib borilgan tadqiqotlar bilan eksperimental ravishda tasdiqlangan.

Eksperimental tadqiqotlar natijasida tibbiyot oliygohlarining 1-kurs talabalari orasida tanlangan kasbdan maksimal darajada qoniqish kuzatilganligi aniqlandi. Darslarni qiziqarli o'tilmasligi, o'qituvchilarning o'z fanlarini talabalarga to'liq yekazib bera olmasliklaridan kelajakda bu ko'rsatkich, 6-kursgacha doimiy ravishda kamayib boradi. Boshqa hollarda, qoniqishning pasayishi mantiqan oliygohdagi o'qitish darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Birinchi kurs talabalari kelajakdagi kasbi haqidagi ideal g'oyalarga tayanadi, ular haqiqatga duch kelganda, og'riqli o'zgarishlarni boshdan kechiradi.

Birinchi kurs talabalarini yangi yashash sharoitlariga moslashtirish zarurati ham bu davrni ma'lum darajada inqirozga olib keladi. Moslashuvdagi qiyinchiliklar ichki noqulaylik, yangi vaziyatdagi keskinlik, tashvish hislari talabalar shaxsiy rivojlanishidagi noto'g'ri tendensiyalarni keltirib chiqarishi mumkin, bu o'zini va oldingi yutuqlarini qadrsizlantiradi, shaxsiy rivojlanishda buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Kasbdan mamnunlik va oliygohni tugatgandan so'ng ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish niyati, ikkinchi tomondan, asosan reproduktiv ta'lim faoliyati jarayonida kasbiy ko'nikmalar asoslarini egallash istagi mavjud. Psixologik nuqtayi nazardan, bu pozitsiyalar bir-biriga mos kelmaydi, chunki ijodiy stimullar faqat tegishli ijodiy muhitda, shu jumladan, ta'lim muhitida shakllanishi mumkin. Shubhasiz, kelajakdagi kasb va uni qanday egallash haqida haqiqiy tasavvurlarni shakllantirish 1-kursdan boshlab amalga oshirilishi kerak.

Oliy ta'limda talabalar safidan chetlashish muammosi bo'yicha olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlar natijasida tibbiyot oliygohlarida tahsil olayotgan talabalarining aksariyat qismi chet tilini bilmasligi aniqlandi. Shu bilan birga, bu holat nafaqat chet tillarini o'zlashtirishdagi obyektiv qiyinchiliklar bilan izohlanadi, balki talabaning ko'pincha chet tilining kelajakdagi shifokorlik faoliyatidagi o'rni haqida yomon tasavvurga egaligi, buning natijasida chet tili bo'yicha akademik ko'rsatkichlar va darajalarning yetishmasligi bilan bog'liqdir. Shuning uchun talabalar o'rtasida kelajakdagi kasbiy faoliyatning haqiqiy qiyofasini shakllantirish jarayonida zaruriy komponent - bu bitiruvchilarning aniq amaliy faoliyati uchun chet tillarining ahamiyatini asosli qilib tushuntirish talab etiladi. Talabalarining shifokorlik kasbiga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish davomida ular tanlagan kasbining xususiyatlari, rivojlanish ko'rsatkichlarini belgilab beradigan motivlarni ham inobatga olish zarur.

Hozirgi zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy maqsadi ham ta'lim oluvchilarda tanlagan kasbiga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish, tegishli fanlarni o'zlashtirishi, berilgan topshiriqlarni mas'uliyat bilan bajarishi, ulardagi o'quv motivlarini rivojlantirish uchun oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilaridan doimiy ravishda o'z ustida ishlashni, yangi bilimlarni berishda noan'anaviy yondashuvlarni o'zlashtirishni hamda xorijiy tillarni ham bilishni talab etmoqda.

Oliygo'h talabalarining tanlagan kasbidan qoniqishi esa subyektning o'z kasbiga munosabatini aks ettiruvchi ko'rsatkichdir. U umumlashtirilgan tavsif sifatida juda muhim hisoblanadi. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, shifokorlar o'z

kasbidan qoniqishining past bo'lishi ko'p hollarda kadrlar almashinuvining sababi bo'lib, bu, o'z navbatida, salbiy iqtisodiy oqibatlariga olib keladi. Bundan tashqari, insonning ruhiy salomatligi ham ko'p jihatdan tanlangan kasbidan qoniqish darajasiga bog'liq bo'ladi, shuningdek, psixologik stresslarni bartaraf etishda shaxsdan yuqori professionallikni talab etadi.

Tibbiyot oliygohlari talabalari o'rtasida o'quv va kasbiy faoliyat motivatsiyasi har doim ham yuqori darajada emas, uning darajasini saqlab qolish va yaxshilash uchun doimiy ishlashni talab qiladi. Shuningdek, talabalar shifokorlik kasbi bo'yicha yangi tushunchalarni amaliyot jarayonidagi tibbiy jihozlar, bemor va ularning yaqinlari o'rtasidagi muloqotlarni ijobiy tashkil etilishi talabalar o'quv motivatsiyalarini samarali tarzda rivojlantirishiga olib keladi.

Biz ushbu tadqiqotimiz jarayonida tibbiyot oliygohlaridagi ta'limning barcha bosqichlarida talabalarning tanlangan kasbga bo'lgan qiziqishlarini oshiruvchi metodik tavsiyalarni ham ishlab chiqdik.

Bo'lajak shifokorlarning nafaqat kasbiy yo'nalishini, balki ularning o'quv motivatsiyasi va qadriyatlar yo'nalishlarini, o'z-o'zini hurmat qilish darajasini, kasbga bo'lgan munosabatini, ularning bemorlar bilan bog'liq harakatlarini rivojlantirish ham juda muhimdir.

Tibbiyot oliygohi talabalarining kasbiy va shaxsiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan maqsad shuki, ularning kasbiy yo'nalishi, o'quv motivatsiyasi, kasbga bo'lgan munosabati, hayotiy va qiymat yo'nalishlari, shuningdek, bemorlar va ularning yaqinlari bilan ishlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirishdan iborat.

Oliygothga kirishda talaba yangi ijtimoiy guruhga kiradi, u orqali ta'limning dastlabki bosqichlaridayoq talaba tanlangan kasbining egasiga aylanish uchun harakat qila boshlaydi. Aynan shu yerda u oliygohda o'qish xususiyatlarini o'zlashtirishga intiladi, unda yangi jamoa bilan hamkorlikda kasbiy maqomga erishish bilan bog'liq shaxsiy qobiliyatlar paydo bo'ladi va professional shifokor sifatida rivojlanish zarurati shakllanadi, o'zining "men"-i- professional imidji g'oyasi kuchayadi.

Ushbu davrda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish birinchi kurs talabalarining o'quv faoliyatini o'ziga moslashtirish jarayonlari bilan bog'liq. O'rganish va o'ziga bo'lgan ishonch uchun ijobiy motivatsiyani shakllantirish, kasbiy rivojlanishning ijtimoiy integratsiya samaradorligi bilan belgilanadi.

Talabalar shaxsini har tomonlama o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, kasb tanlashning o'zi ko'pincha tasodifiy bo'lib, shaxsning ma'lum bir kasbiy faoliyatga moyilligiga mos kelmaydi, bu esa talabalarni ta'lim muassasasidan chetlashishiga sabab bo'ladi. Ushbu va boshqa omillar tufayli oliygohda o'qishga moslashish davrida noqulayliklar yuzaga keladi.

Tibbiyot oliygohlaridagi talabalar 3-4 bosqichlaridagi o'quv jarayonlarida ko'pincha umidsizlikni boshdan kechirishlari, o'rganish motivatsiyasining pasayishi mumkin. An'anaviy ravishda, ushbu bosqichni moslashish bosqichidan keyin sodir bo'ladigan ixtisoslashuv bosqichi deb ham atash mumkin. Ushbu davrda kasbiy bilimlarining shakllanish darajasi, muammoli joylarni va ularni tuzatish usullarini aniqlash, bo'lajak shifokor sifatida o'z-o'zini anglash boshlanadi.

4-5 kurs talabalari uchun keyingi ish joyini tanlash, tanlangan kasbga bo'lgan umidlarini taqqoslash va ularning kasbiy rivojlanishining haqiqiy holati-kasbga yo'naltirish bosqichi dolzarb bo'lib qoladi. Ushbu davrda yangi turlar va kelajakdagi kasbiy faoliyatning yangi mazmuni shakllantiriladi. Kasbga va uning vakili sifatida o'ziga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgaradi, bu sohada yangi shaxsiy ma'nolar paydo bo'ladi.

Shu bilan birga, yuqori kurslarda talabalarining tanlangan kasbi ularning qobiliyatlari, tabiati va moddiy talablariga mos kelmasligi ham mumkin. Bu esa ularning o'quv faoliyati motivatsiyasiga ta'sir qiladi.

II bob yuzasidan xulosalar

Shunday qilib, bo'lajak shifokor shaxsiyati va kasbiy o'ziga xosligini shakllantirish xususiyatlari ochib berildi, bo'lajak shifokorning kasbiy shaxsini shakllantirishning ahamiyati aniqlandi.

Tadqiqotimizda tibbiyot oliy o'quv yurtlari kichik va yuqori kurs talabalarining shaxsiy fazilatlari qiyosiy tahlil qilinib, o'qish muddatiga qarab talabalarining kasbga munosabati qanday o'zgarishi ham o'rganildi. Tibbiyot fakulteti talabasi uchun kasbiy o'zini o'zi anglash zarurati izohlandi.

Tibbiyot oliygohida o'qiyotganda talabalar o'zlarining kasbiy identifikatorlari ijtimoiy komponentida eng ko'p rivojlanadi. Bu esa ularni boshqa mutaxassislik talabalaridan ajralib turishini taqozo etadi.

Turli kurslarda talabaning shaxsiyati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchi kursda - bu abituriyentni talabalar muhiti bilan tanishtirish bo'lsa, yakuniy kurslarda esa - kelajakdagi mutaxassislik bo'yicha amaliy ko'rsatmalar shakllanadi. Tibbiyot oliy o'quv yurti talabasining kasbiy shaxsini anglash jarayonida ko'pchilikka tanish bo'lgan professional qiyofasi stereotiplari yengib o'tiladi. Bo'lajak shifokorda kasbiy markazlashuv darajasi ko'tarila boshlaydi va barqaror professional-ruhiy pozitsiyasi shakllanadi. Bu xislatlarsiz kasbni to'liq egallab bo'lmaydi.

Kasbiy o'zini o'zi anglash tibbiyot oliygohida o'qishdan boshlanadi va bo'lajak shifokorga tanlagan kasbida rivojlanish imkonini beradi. Shuningdek, bu bo'lajak shifokorga xatolarni tahlil qilish va kelajakda ularning paydo bo'lishining oldini olishga yordam beradi.

Respublikamizda faoliyat olib borayotgan tibbiyot oliygohlarida bo'lajak shifokorlarni yetuk hamda zamonaviy mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun yetarli sharoitlar yaratilmoqda. Buning natijasida talabalar o'z tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha yanada chuqurroq bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmoqdalar. Shunday ekan, tibbiyot oliygohlaridagi professor-o'qituvchilar hamda talabalar oldiga juda katta bilim va mas'uliyat yuklaydi.

Shunga qaramay, mamlakatimizdagi ba'zi tibbiyot oliygohlarida tahsil olayotgan talabalarining kasbiy yo'nalganligi hamda ularning o'quv motivlari

orasidagi bog'liqlik ko'zga tashlanmaydi. Talabalar kasbiy jihatdan chuqur bilim va ko'nikmalarga ega emas, buning sababi tibbiyot oliygohi talabalari uchun mutaxassislik fanlariga qo'shimcha ravishda pedagogika va psixologiya fanlarining yetarli darajada o'tilmasligidir.

Agar talabaga dars berishda uning shaxsiy ehtiyojlari, mayllari hamda qiziqishlari inobatga olinadigan bo'lsa, ularda tanlagan kasbiga bo'lgan ishtiyoq yanada kuchayib mutaxassisligi bo'yicha raqobatbardosh kadr bo'lib yetishib chiqishiga sabab bo'ladi. Tibbiyot oliygohlarida tahsil olayotgan talabalar bilan suhbatlar natijasi shuni ko'rsatdiki, ularning aksariyat qismi faqatgina diplomga ega bo'lish, xususiy davolash muassasalari faoliyati bilan shug'ullanish, xususiy tadbirkorlik qilish, dorixonalar tashkil etish uchun tahsil olayotganligining guvohi bo'ldik. Bu narsa, o'z navbatida, katta muammo hisoblanadi.

Tadqiqodimiz jarayonida Andijon Davlat Tibbiyot instituti, Toshkent Tibbiyot akademiyasi, Toshkent Farmasevtika instituti talabalarining kasbiy yo'nalganligi bilan o'quv motivlarining bog'liqligi darajalari o'rganib chiqildi. Tadqiqodimiz natijalariga ko'ra, oliygohlar talabalarida pedagogik-psixologik qobiliyatlar yetarli darajada emasligi aniqlandi. Talabalarning aksariyat qismi oliygoh rahbariyati hamda professor-o'qituvchilari bilan juda ham yaqin munosabatda ekanligi, bu esa talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishlari pasayishiga sabab bo'lishini ko'rsatadi.

Yuqoridagi faoliyatlarni kamaytirish, pedagogik muhitni sog'lomlashtirish maqsadida biz tomonimizdan bir nechta takliflar ishlab chiqildi:

1. Tibbiyot oliygohlari professor-o'qituvchilarining kasbiy hamda pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish.
2. Tibbiyot oliygohlarida psixologiya-pedagogika fanlari soatlarini ko'paytirish orqali talabalarning shaxsiy hamda psixologik xususiyatlarini o'rganish.
3. Talabalarni ko'proq individual darslarga jalb etish orqali ularda kasbiy yo'nalganlik hamda o'quv motivlarini rivojlantirish.

Bundan tashqari, bo'lajak shifokorlarning kasbiy hamda o'quv motivlarini rivojlantirishda jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kasallik turlari, aholini qiynab kelayotgan ichki ruhiy kechinmalarini inobatga olish, amaliyot jarayonida bemorlar va ularning yaqinlari o'rtasida samimiy muloqot qilish ko'nikmalarini ham o'zlashtirishlari zarur.

Bizning fikrimizcha, shifokorlarning kasbiy faoliyat obyektlarida yaratilgan shart-sharoitlar qanchalik talab darajasida bo'lsa shifokorlarning mehnatga bo'lgan layoqati shunchalik rivojlanib boraveradi, chunki talabalar ana shunday tibbiyot muassasalarida amaliyot jarayonlarini olib boradilar, bu esa, o'z navbatida, bo'lajak shifokorlarning kasbiy hamda o'quv motivlarini yanada takomillashib borishiga sabab bo'ladi.

Tibbiyot oliygohlarida bo'lajak shifokorlarning kasbiy yo'nalganligini hamda o'quv motivlarini rivojlantirishda oliygoh professor-o'qituvchilarining kasbiy bilimlari hamda talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlar va shart-sharoitlar juda katta ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, oliygoh talabalarining yangicha dunyoqarashlar, mustaqil fikrlash, tashabbus ko'rsatish hamda zamonaviy tibbiyot yangiliklaridan vaqtida xabardor bo'lishlari ham juda muhimdir.

Respublikamizning tibbiyot oliygohlarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar jarayonida oliygohda tahsil olayotgan "pediatriya ishi" fakulteti talabalari boshqa yo'nalishlardagi talabalarga qaraganda ancha o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori darajada ekanliklarini qayd etdilar, buning sababini so'raganimizda "pediatriya ishi" fakultetida ko'proq qizlar tahsil olishi hamda qizlarning asosiy qiziqtirgan kasblari bolalar bilan ishlash ekanligini ko'rsatdi.

Talaba qizlar bilan suhbatlar o'tkazganimizda, ularning eng asosiy maqsadi- bolalar shifokori bo'lish hamda uning asosiy sababi, jamiyatimizda ayollarning naqadar oilaparvar ekanligini isbotlash yoki bola parvarishi bilan bog'liq jarayonlarga juda katta qiziqishlari borligini asoslab berdilar.

III BOB. TIBBIYOT OLİYGOHI TALABALARIDA O‘QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEZONLARI

§ 3.1. Tibbiyot oliygohi talabalarida o‘quv motivlari dinamikasini ta’minlashga empirik yondashuv

Tibbiyot oliygohi talabalarida o‘quv motivlari dinamikasini ta’minlash ularning kasbiy yo‘nalishlari shakllanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu tushunchaga

o'z kasbiga qiziqish, yaxshi shifokor bo'lib yetishish va ilg'or tibbiyot xodimiga xos xususiyat va qobiliyatlarni o'zida tarbiyalashga intilish kiradi.

Har qanday kasbda bo'lganidek, bo'lajak shifokor amaliy faoliyatida zarur bo'lgan bilim, mahorat va ko'nikmalarni egallab olishi bilan bir qatorda, bemorlarning ruhiy holatlari, ya'ni qo'rquv, ishonchsizlik, vahima, umidsizlik kabi hissiyotlariga alohida sinchkovlik bilan e'tibor qaratishlari zarur. Kasblar ichida katta mas'uliyat, sabr-toqat va fidoiyligni talab qiladigan shifokorlik kasbini egallash osonlikcha kechmaydi. Buning uchun talaba doimo izlanishi va muntazam ravishda bilim doirasini kengaytirib borishi zarur. Ushbu xususiyatlarning shakllanishi va rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan muammolarni o'rganish talabalarning kasb egallashlarida muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotimizda N.S.Badmayevning „Talabalar o'quv motivatsiyasini diagnostika qilish” metodikasini o'tkazdik. Ushbu testni o'tkazishimizdan maqsad, tibbiyot talabalarining o'quv motivatsiyani shakllantirish va uni rivojlantirishdan iborat edi. Natija quyidagi 3.1.1-jadvalda ko'rsatib o'tilgan.

3.1.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, muloqot motivlari shkalasi bo'yicha har ikkala jins vakillarida o'rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi. $t = -0,2$; $*p < 0,05$. Bunga sabab har ikki jins vakillarida muloqot jarayoni erkin, tabiiy, qiziqarli, bir-birini boyituvchi, bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi, o'zini namoyon etuvchi bo'lishi mumkinligi, muloqot jarayonida suhbatdosh shaxsiga e'tibor, do'stona munosabat, muloqot sharoitlariga mos, suhbatning ritorik jihatini ko'zda tutilishi, muloqotda qiz va yigitning o'xshashlik jihatlari mavjudligi, ularning qiziqishlari, intilish va xohishlari, istaklarining bir xil ekanligi aniqlandi.

3.1.1-jadval

N.S.Badmayevning Talabalar o'quv motivatsiyasini diagnostika qilish”

so'rovnovasi natijalari, Student t mezonini bo'yicha, **n -149**

Motivlar Shkalasi	T	n	O'rta qiymat	Dispersiya	Jins
I. Muloqot motivi	1	92	16,75	8,39	-0,2
	2	57	16,82	7,86	
II. Qochish motivi	1	92	17,98	19,79	-3,44

	2	57	20,03	7,92	
III. Obro' motivi	1	92	21,79	10,75	-2,35
	2	57	22,80	3,97	
IV. Kasbiy motivlar	1	92	27,78	7,99	0,45
	2	57	27,57	6,71	
V. Ijodiy o'z-o'zini amalga oshirish motivlari	1	92	8,68	4,92	-2,75
	2	57	9,40	,85213	
VI. Ta'lim va kognitiv motivlar	1	92	29,72	21,62	-2,42
	2	57	31,31	11,18	
VII. Ijtimoiy motivlar	1	92	21,25	15,20	-2,32
	2	57	22,38	4,27	

Izoh: *p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001, 1- Talaba yigitlar; 2-Talaba qizlar.

Qochish motivlari shkalasi bo'yicha har ikkala jins vakillarida o'rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi. $t = -3,4$: $<0,01$. Bunga sabab ,tibbiyotning talaba yigitlari talaba qizlardan ko'ra qondan qo'rqishlari, bilimsizlik, xavotirlanish hissining yuqori ekanligi tufayli ishni boshlashdan avval nima bo'lsa ham muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'lmaslikni ko'proq o'ylaydilar. Shu tufayli o'g'il bolalarda ko'proq ishonchsizlik, stress holatlari, o'lim xavfidan qo'rqish, yutuqqa erishishga ishonmaslik, pessimistga o'xshash holat kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, oxir- oqibat ular baribir muvaffaqiyatsizlikka uchrab: "O'zi sira omadim yurishmaydigan odamman-da",- degan xulosaga keladilar. Agar birinchi toifali shaxslar bir ishni muvaffaqiyatli tugatgach, ko'tarinkilik bilan ikkinchi ishga kirishsa, ikkinchi toifa vakillari har qanday ishni yakunlangandan so'ng, uning natijasidan qat'i nazar, ruhan tushkunlikka tushishi va o'rganish hissi bilan boshqa ishga kirishishlari aniqlandi.

Obro' motivlari shkalasi bo'yicha har ikkala jins vakillarida o'rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi. $T = -2,35$: $p < 0,01$. Bundan ko'rinib turibdiki,qizlardan ko'ra yigitlarda obro' motivlari ustun ekan.Bunga sabab esa,tibbiyot oliygohlarida tahsil oladigan talaba yigitlarda g'urur hissining yuqori ekanligi, tez fursatda katta yutuqlarga erishishni xohlashlari, emotsional his-tuyg'uga tez berilishlari, buni esa hatto o'qish jarayonida ham namoyon qilishlari,obro' - e'tiborga ega bo'lishni istashlari, o'qish jarayonida eng yaxshi va

lider talabalar qatoridan joy olish istagining mavjudligi, oliy ta'limda o'z o'rniga ega bo'lishni istashlari, o'qituvchilar bilan munosabatning yaxshilanishi uchun ko'p harakat qilishlari, buning uchun ota-onalar va boshqa atrofdagilarning roziligini olishlari, oliy ta'limni yaxshi baholarga yopish va diplom olish istaklarining mavjudligi aniqlandi.

Ijodiy o'z-o'zini amalga oshirish motivlari shkalasi bo'yicha har ikkala jins vakillarida o'rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi. $t=-2,75$; $p<0,01$. Bundan ko'rinib turibdiki, qizlarga nisbatan yigitlarda jamiyat taraqqiyotida hamda odamlar hayoti muammolariga javob berish hissining mavjudligi, yaqinlarining o'limi hamda stresslari, yangi narsalarni bilish istagining yuqoriligi, ijtimoiy ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish xohishlari ustun ekan.

Ta'lim va kognitiv motivlar shkalasi bo'yicha har ikkala jins vakillarida o'rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi. $t=-2,42$; $p<0,01$. Bundan ko'rinib turibdiki, yigitlardan ko'ra qizlar o'zlarining kelajaklari uchun oliy ta'limda muvaffaqiyatli o'qishlari, imtihonlarni a'lo baholarga topshirishlari, stress va bilimsizlikni yengib o'tishlari, olayotgan bilimlaridan zavqlanish hayotda bir marta bo'lsa ham oliy ta'limni bitirishga majbur ekanliklari, dars jarayonlarida doimo faol bo'lishlari, darsdan keyingi kurslarni ham muvaffaqiyatli tugatishlari, chuqur va mustahkam bilim olishlari, o'z mutaxassisligi bo'yicha ilmiy ishlarni olib borishlari va o'z kasblarini saqlab qolish istagining yuqori ekanligi aniqlandi.

7-shkala ijtimoiy motivlar bo'yicha har ikkala jins vakillarida o'rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi. $t=-2,3^*$; $p<0,05$. Ushbu shkaladan ko'rinib turibdiki, yigitlardan ko'ra qizlarda ustunlik jihatlari borligi isbotlandi. Bunga sabab, qizlar oliy ta'limni yakunlaganidan so'ng ular hayotlarida olgan bilimlari kelajakda ular uchun asqotishi va kelajakda katta imkoniyat eshigini ochishi, moliyaviy ta'minlanganlikka erishish lozimligi, ilmiy darajaga erishishlarida bilimning tutgan o'rni beqiyos ekanligi, ota-onalari oldidagi o'z burchlarini to'g'ri anglashlari va o'z kasbi doirasida yuqori lavozimlarga ega bo'lish istaklarining yuqori ekanligi aniqlandi.

3.1.2.-jadval

**N.S.Badmayevning “O‘quv motivatsiyasini diagnostika qilish”
so‘rovnomasi asosida bo‘yicha korrelatsion tahlil natijalari**

	I	II	III	IV	V	VI	VII
I	1						
II	0,48***	1					
III	0,68***	0,48***	1				
IV	0,07	0,23**	0,17*	1			
V	0,53***	0,29**	0,6***	0,37***	1		
VI	0,54***	0,39***	0,61***	0,62***	0,59***	1	
VII	0,64***	0,38***	0,8***	0,34***	0,52***	0,74***	1

Izoh:*p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001;I. Muloqot motivi(shahar va tuman), II. Qochish motivi(shahar va tuman), III. Obro‘ motivi(shahar va tuman), IV. Kasbiy motivlar(shahar va tuman), V. Ijodiy o‘z-o‘zini amalga oshirish motivlari(shahar va tuman), VI. Ta’lim va kognitiv motivlar(shahar va tuman), VII. Ijtimoiy motivlar(shahar va tuman)

3.1.2. jadvalda ko‘rinib turibdiki, “O‘quv motivatsiyasini diagnostika qilish” korrelatsion tahlili bo‘yicha shahar va tuman hududlarining o‘rtasida o‘rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi. Buni quyidagi jadvallar orqali ko‘rib chiqildi.

3.1.3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qochish motivlari shkalasi bo‘yicha har ikkala hudud vakillarida o‘rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi. $t=3,27; p<0,01$. Bundan ko‘rinib turibdiki, shaharda yashovchi talabalardan ko‘ra ,tumanda yashovchi talabalarda ustunlik jihatlari namoyon bo‘ldi. Bunga sabab tuman hududida yashovchi talabalarda do‘stlar bilan aloqa o‘rnatishning ustunligi, atrofidagi do‘stlarining ular haqidagi fikrlari muhimligi va ularni iqtidorli, kelajakda istiqbolli bo‘lishi uchun oliy ta’limni bitirish kerakligi, oliy ta’limda yaxshi o‘qimaslik va jazodan qochish hissi ustunligining namoyon bo‘lishi aniqlandi.

3.1.3-jadval

N.S.Badmayevning “O’quv motivatsiyasini diagnostika qilish” testi bo’yicha hududiy tafovut natijalari, (Styudent t’’mezoni bo’yicha) n =149

motivlar	Hudud	n	o'rta qiymat	dispersiya	T
I	Shahar	28	16,7500	10,56481	-0,06
	Tuman	121	16,7851	7,65344	
II	Shahar	28	16,5714	15,80952	-3,27**
	Tuman	121	19,2810	14,98705	
III	Shahar	28	22,1786	3,78175	-0,01
	Tuman	121	22,1818	9,46667	
IV	Shahar	28	27,7500	10,63889	0,08
	Tuman	121	27,6942	6,81405	
V	Shahar	28	9,1786	1,63360	0,89
	Tuman	121	8,9091	3,90000	
VI	Shahar	28	29,3571	29,71958	-1,11
	Tuman	121	30,5620	15,39821	
VII	Shahar	28	20,8929	9,72884	-1,47
	Tuman	121	21,8678	11,53237	

Izoh:I. Muloqot motivi, II. Qochish motivi, III. Obro‘ motivi, IV. Kasbiy motivlar, V. Ijodiy o‘z-o‘zini amalga oshirish motivlari, VI. Ta’lim va kognitiv motivlar, VII. Ijtimoiy motivlar

Tadqiqotimizning navbatdagi metodi N.S.Badmayevning talabalar o‘quv motivatsiyasini o‘rganish testini o‘tkazdik. Ushbu metodni o‘tkazishdan maqsad, kasbiy motivlarning maqsadli natijalar asosida, universitet va jamoalar faoliyati, ta’lim muassasalarida talabalarning o‘quv motivatsiyasini aniqlashdan iborat. Natijalar quyidagi 3.1.4-jadvallarda keltirilgan.

3.1.4-jadval

N.S.Badmayevning “Talabalar o‘quv motivatsiyasini diagnostika qilish” testi bo’yicha korrelyatsion bog‘liqlik natijalari

Motivlar	1	2	3	3
1	1			
2	-0,46	1		
3	0,01	-0,34	1	
4	-0,47	-0,25	-0,31	1

Izoh: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$; *** $p < 0,001$. 1. O'quv faoliyatining motivlari, 2. Ta'limning ijtimoiy ahamiyati motivlari, 3. O'qishda o'zini ko'rsatish motivlari, 3. O'quv va kasbiy yo'nalganlik motivlari

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, korrelyatsion jihatdan talabalarining o'quv motivatsiyasi bo'yicha o'quv faoliyati motivlari shkalasi ta'limning ijtimoiy ahamiyati hamda o'quv va kasbiy yo'nalganlik shkalalariga bog'liq ekanligi, tibbiyot talabalarining bilim olishlari uchun ijtimoiy muhitning o'rni hamda ularning kelajak uchun yo'lga qo'ygan kasbiy yo'nalganliklari bilan birga namoyon bo'lishi, ta'limning ijtimoiy ahamiyati motivlari shkalasi o'quv va kasbiy yo'nalganlik motivlari shkalasi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Har bir tibbiyot oliygohi talabasi bilimning ijtimoiy ahamiyati uning kelajakda qaysi kasbni egallashi bilan bog'liq ekanligini, ushbu kasbga yo'nalganligida namoyon bo'lishini o'zlarida sinovdan o'tkazdilar. O'qishda o'zini ko'rsatish motivlari shkalasi tibbiyot talabalarining o'quv va kasbiy yo'nalganlik motivlariga bog'liqligi namoyon bo'ldi. Bundan ko'rinib turibdiki, tibbiyot oliygohi talabarlari o'quv faoliyati davrida ushbu bilimlarni va usullarni o'zlashtirishi, bu jarayonda talaba o'zini o'zi rivojlantirishi juda muhim bo'lib, o'quv faoliyati motivlari talabaning ehtiyojlari, qiziqishlari, moyilligi, qiymat yo'nalishlari bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.

3.1.5-jadval

N.S.Badmayevning “O'quv motivatsiyasini o'rganish” testi jinsllararo tafovut natijalari (Styudent t' mezon bo'yicha)

Shkalalar	T	n	o'rta qiymat	Dispersiya	t
-----------	---	---	-----------------	------------	---

O'quv faoliyatining motivlari	1	184	9,43	6,76	-1,2
	2	114	9,79	5,05	
Ta'limning ijtimoiy ahamiyati motivlari	1	184	15,89	4,93	1,12
	2	114	15,54	9,77	
O'qishda o'zini ko'rsatish motivlari	1	184	15	12,79	0,9
	2	114	14,58	19,89	
O'quv va kasbiy yo'nalganlik motivlari	1	184	9,26	20,00	1,35
	2	114	8,47	30,30	

Izoh: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$; *** $p < 0,001$. 1- Talaba yigitlar; 2- Talaba qizlar.

3.1.5-jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki, talabalar o'quv motivatsiyasida yigit va qizlar o'rtasida ushbu shkalalar bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi. Bunga sabab, tibbiyot universiteti talabalarida o'qishga bo'lgan motivatsiyaning mavjud holati va ularning ta'lim faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar o'rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Tibbiyot oliygohlarida o'qiyotgan talaba, birinchi navbatda ,yangi vaziyatga moslashish bilan bog'liq bir qator muammolarga duch keladi, bu maktab ta'limidan tubdan farq qiladigan o'quv jarayonini tashkil etish shakllari va usullaridir. Shu bilan birga ,dars mashg'ulotlari va amaliyot jarayonlaridagi holatlardan xavotirlanish, qondan qo'rqish, jarrohlik harakatlarida hushdan ketish holatlari, o'lim xavfining ortishi talabalar o'rtasida tez-tez uchrab turayotganligi aniqlandi.

3.1.6-jadval

N.S.Badmayevning "O'quv motivatsiyasini o'rganish" testi bo'yicha hududiy tafovut natijalari (Styudent t mezoni bo'yicha)

Shkalalar	hudud	n	o'rta qiymat	Dispersiya	T
O'quv faoliyatining motivlari	Shahar	56	7,35	4,08	-8,22
	Tuman	242	10,08	5,20	


Ta'limning ijtimoiy ahamiyati motivlari	Shahar	56	16,85	2,74	3,57
	Tuman	242	15,50	7,38	
O'qishda o'zini ko'rsatish motivlari	Shahar	56	17,25	10,88	5,31
	Tuman	242	14,28	14,94	
O'quv va kasbiy yo'nalganlik motivlari	Shahar	56	9,42	25,99	0,79
	Tuman	242	8,85	23,57	

Izoh:*p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001

Navbatdagi 3.1.6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, talabalar o'quv motivatsiyasining „Student t” mezonini hududlar tahlil natijalari bo'yicha farqli taqqoslab chiqilganda „O'quv faoliyatining motivlari” shkalasi bo'yicha o'rta statistik jihatdan ahamiyatli katta farq aniqlandi. $t=-8,22; p<0,001$. Tuman hududida yashovchi tibbiyot oliygohi talabalarining shahar hududida yashovchi talabalardan ko'ra o'quv motivatsiyasi ustun ekanligi aniqlandi. Bunga sabab, tumanlar hududida aynan shu tibbiy xizmat uchun ehtiyojning yuqoriligi va talaba yoshlarning kelajakda o'z yo'nalishi bo'yicha yaxshi mutaxassis bo'lish uchun astoydil izlanishi va intilishlari natijasidir. Bemorlar dardlarini tushunish bilan birga ularga ruhiy dalda berish, shirinso'zlik, xushmuomalalik, tanlayotgan kasbiga nisbatan mehr va sadoqat, qondan qo'rqmaslik, depressiv holatlarga tez berilmaslik, o'lim holatlarida stressga tushmaslik ushbu hududlarda yuqori ekanligi aniqlandi.

„Ta'limning ijtimoiy ahamiyati motivlari” shkalasi bo'yicha hududlar tahlil natijalari bo'yicha farqli taqqoslab chiqilganda o'rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi. $t=3,57; p<0,01$. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu shkalada shahar hududida ta'lim oluvchi tibbiyot oliygohi talabalarini tuman hududida ta'lim oluvchi tibbiyot oliygohi talabalaridan ustun ekanligi aniqlandi. Olib borilgan kuzatishlar va suhbatlar jarayonida talabalarning bu sohani tanlashlari uchun ko'proq ijtimoiy muhit ta'siri kuchli ekanligi aniqlandi. Tibbiyot oliygozlari talabalarining ijtimoiy faolligi ular o'qiydigan va kelajakda ishlaydigan, hayot tajribasini egallaydigan tibbiy jamoalarining ijtimoiy faolligi bilan bog'liq ekanligi, ularning ushbu

tanlagan yo‘nalishlari ularda faxr- iftixor tuyg‘usini oshirishi kuzatishlarimiz va tadqiqotlarimiz davomida o‘z isbotini topdi.



3.1.1-rasm. N.S.Badmayevning “O‘quv motivatsiyasi” testi bo‘yicha hududlar kesimidagi natijalar

Navbatdagi “O‘qishda o‘zini ko‘rsatish motivlari” shkalasi bo‘yicha hududlar tahlil qilinib, ular o‘rtasida farqli taqqoslab chiqilganda o‘rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi. $t=5,31; p<0,001$. Tibbiyot oliygohi talabalari hududlar farqiga ko‘ra, tuman hududida tahsil oluvchi tibbiyot oliygohi talabalari shahar hududida tahsil oluvchi talabalardan ko‘ra ancha yuqori ekanligi aniqlandi. Bunga sabab, tuman talabalarining o‘z tengdoshlari orasida hamda birgalikda tahsil olayotgan talabalar o‘rtasida o‘z-o‘zini ko‘rsatish motivlarining yuqori ekanligi, bilim va ko‘nikmalarining shakllanganligidadir. Yangi sharoitga, do‘stlarga moslashish holatlarining oson kechishi va o‘qishning boshlanish jarayonida tibbiyot oliygohi talabalarining Gippokrat qasamini ichishi ularda yanada faxr-iftixor tuyg‘usining uyg‘onishiga asos bo‘lishi aniqlandi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, tibbiyot oliygohi talabalarining o‘quv motivlari va ularning o‘qish jarayonidagi qiziqishlari boshqa oliy o‘quv yurti talabalariga nisbatan yuqori bo‘lib, ular o‘z ishini ustalik bilan bajaradilar, bu kasb orqali o‘zlarini doimo kerakli shaxs sifatida his qiladilar. Oliygochni

tamomlaganidan so‘ng quchoq ochib kutib oladigan nurli istiqbolning yaratilishi ulardagi o‘ziga bo‘lgan ishonch hissining paydo bo‘lishini yanada oshiradi.

§ 3.2. Tibbiyot oliygohi talabalarida kasbiy yo‘nalganlik va o‘quv motivlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning asosiy ko‘rsatkichlari

Hozirgi ta‘lim olish jarayonida birinchi o‘rinda nafaqat talabalarning kundan-kunga murakkablashib kelayotgan bilimlarni egallash, balki ularni shaxs sifatida faol bilim oluvchi hamda talab qiluvchi motivatsion tuzilmalarga ega ekanliklarini ham inobatga olish kerak. O‘quv faoliyati asosida motiv va talablar xarakteriga ega bo‘lgan shaxsning faollik va yo‘nalishini aniqlovchi, shu jumladan, uning sodir bo‘layotgan voqealardagi faolligi yoki passivligi, beriluvchanligi, qoniqmasligi yotadi. Bundan o‘quv faoliyatiga berilib ketish va undagi faollik, o‘z-o‘zini hamda bajarilgan natijalardan qoniqish hissiyotlari, ongli ravishda insonni hayajonlantirib qayta o‘ylash va keyingi ishlarida o‘z ustida yanada ko‘proq mehnat qilishi va izlanishining asosi bo‘lib hisoblanadi. Har bir insonning xatti-harakati muayyan motivlar tomonidan yo‘naltirilib, unga shaxsiy mazmun berib turadi.

Talabalarning o‘quv motivlari darajasi va ularning o‘ziga xosligini aniqlash uchun Andijon Davlat Tibbiyot institutining oliygoh talabalari tanlab olindi. O‘quv motivatsiya diagnostikasi juda murakkab jarayon bo‘lib, uning samaradorligi kompleks metodlar yordamida aniqlanishi mumkin. Shu sababdan kuzatish, faoliyat mahsulini tahlil qilish, suhbat, anketa va tabiiy eksperimentlardan foydalanildi. Ishonchli ma‘lumotlar to‘plash uchun tajribalarda Ye.P.Illin tomonidan tavsiya etilgan «Talabalarning o‘quv motivatsiyasini o‘rganish metodologiyasi» metodikasidan foydalanildi. Ushbu metodikaning natijalari quyidagi jadvallarda keltirib o‘tilgan.

3.2.1-jadval

Ye.P.Illinning “O‘quv motivatsiyasini o‘rganish” testi bo‘yicha korrelyatsion tahlil natijalari

Shkalalar	Bilim olish	Kasbni o‘zlashtirish	Diplom olish
Bilim olish	1		
Kasbni o‘zlashtirish	-0,01	1	
Diplom olish	-0,15	0,32***	1

Izoh: $p < 0,05$; $p < 0,01$; $p < 0,001$

3.2.1-jadvalning korrelyatsion natijalariga ko‘ra “Kasbni o‘zlashtirish” shkalasi “Diplom olish” shkalasi bilan bog‘liq ekanligi bilan farqlanadi. Unga ko‘ra, ushbu shkalalar o‘rtasida ahamiyatli farq aniqlandi. $t = 0,32$; $p < 0,001$. Bunga sabab, tibbiyot oliygohlari talabalarining asosiy maqsadi - kelajakda o‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishishdir, ularda diplom olishga bo‘lgan ehtiyoj juda yuqori , ba’zi talabalar bilan suhbat jarayonida ular tezroq mustaqil bo‘lishga intilishlari, o‘z shaxsiy dorixona va klinikalarini ochishga imkoniyatlarining mavjudligi yoki oilaviy tibbiyot muassasalarida faoliyat olib borishga bo‘lgan qarorlarining mavjudligi aniqlandi.

3.2.2-jadval

Ye.P.Illinning “O‘quv motivatsiyasini o‘rganish” testi bo‘yicha jinslararo farqli natijalar, (Student t mezonida)

Motivlar	T	N	o'rta qiymat	Dispersiya	Jins
Bilim olish	1	93	7,2	7,18	-0,37
	2	57	7,37	10,22	
Kasbni o‘zlashtirish	1	93	6,1	4,73	0,18
	2	57	5,98	7,84	
Diplom olish	1	93	5,07	7,58	-1,85
	2	57	5,9	6,37	

Izoh: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$; *** $p < 0,001$. 1- Talaba yigitlar, 2-Talaba qizlar.

3.2.2.-jadval natijalariga ko'ra "Talabalarning o'quv motivatsiyasini o'rganish" mezoni asosida jinslar bo'yicha taqqoslab chiqilganda qizlar va yigitlarda ahamiyatli farq aniqlanmadi. Bunga sabab, tibbiyot oliygohlari o'g'il va qiz talabalarining maqsadlari o'xshashligi, bilim olishga bo'lgan ehtiyojning bir xilligi, o'z tanlagan kasblaridan mamnun ekanliklari va qoniqish hosil qilishlari bilan asoslanadi. Talabalarda tashqi o'quv motivatsiyasining ta'siri mahsuli shundan iboratki, ular tibbiyot oliygohlarida o'qitilayotgan ijtimoiy fanlarga nisbatan salbiy munosabatlarini tushuntirib, ko'proq mutaxassislik fanlarini egallash ma'qul ekanligini bildirishdi. Ular bu borada turli mulohazalar bildirib, ayrimlari o'qituvchilarning dars o'tish metodlari yoqmasligini aytishsa, boshqalari behuda vaqt sarflayotganliklari, yana boshqalari fanlarni tushunmasliklarini aytib o'tishdi.

.2.3-jadval

Ye.P.Illinning "O'quv motivatsiyasini o'rganish" metodikasi bo'yicha hududiy farqli natijalar (Student t mezoni asosida)

Shkala	Hudud	N	o'rta qiymat	dispersiya	t
Bilim olish	1	28	9	2,8	3,68***
	2	121	6,87	8,73	
Kasbni o'zlashtirish	1	28	5,75	9,6	-0,67
	2	121	6,09	5,07	
Diplom olish	1	28	5,3	2,91	-0,19
	2	121	5,41	8,27	

Izoh: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$; *** $p < 0,001$. 1-shaharda ta'lim oluvchi talabalar, 2-tumanda ta'lim oluvchi talabalar

Navbatdagi 3.2.3-jadvalning natijalariga ko'ra "Bilim olish" shalasi bo'yicha o'rta arifmetik qiymat bo'yicha katta ahamiyatlili farq aniqlandi $t = 3,68$; $p < 0,001$. Bundan ko'rinib turibdiki, shaharda ta'm oluvchi talabalardan ko'ra tumanda ta'lim oluvchi talabalarning bilim olishga bo'lgan ehtiyoji yuqori ekan. Bunga sabab, tibbiyot oliygohlari ta'lim muassasalarida muammoli o'qitish, vaziyatlarni loyihalash, amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish, inson organlari va kasalliklar ustida bahs-munozara, suhbat, tahlil-mutolaa kabi metodlarni qo'llash o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talabalarning o'quv motivlarini o'rganish o'ziga xos izchillikni ta'minlashga e'tibor berilishini taqozo qiladi. Buning uchun talabalarning ta'lim muassasasiga o'qishga kirishiga ta'sir ko'rsatgan dastlabki motivlar nimalardan iboratligiga alohida ahamiyat beriladi.

Ushbu motivlarning roli ta'lim jarayonidagi o'quv motivlarini shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunga biz tomonimizdan ishlab chiqilgan talabalarning "Men nima uchun tibbiyot institutiga o'qishga kirdim" metodikasini bir qator bandlar bo'yicha o'rganish natijasida erishildi.

Oliygoch talabalarining ushbu soha mutaxassisligini tanlashiga yo'naltiruvchi omillardan biri - ularning shifokorlik kasbiga bo'lgan orzusi yetaklab kelganligi (68 foiz) hamda shifokorlik sharaflari kasb ekanligini (61,7) alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Bu, o'z navbatida, tibbiyot sohasida oliy ma'lumotga egalik xohishi tug'ilganligi (40 foiz), tibbiyot instituti faoliyati bilan oldindan tanishligi tufayli (40 foiz) bilim olishga yo'naltiruvchi motivlarning ta'siri natijasida talabalarda mustaqil fikrlar shakllanganligidan dalolat beradi. Shuningdek, talabalardagi ushbu motivlar ularning shaxs sifatida ijtimoiylashuvdagi o'rnini belgilaydi. Ko'pchilik hollarda talabalarning kasb tanlashida chetdagi ta'sirlar, xususan, oilaviy an'analarni davom ettirish yoki ota-onalarning maslahatiga tayanish (35 foiz) ham kuzatiladi hamda bu holatlar boshqa kasblarni tanlashda

uchraydigan yetakchi omillardan hisoblanadi. Shu o‘rinda talabalarni kasbga yo‘naltirish jarayonida «Men nima uchun institutga o‘qishga kirdim» metodikasining natijalari 3.2.4-jadvalda atroflicha keltirildi.

Talabalarning kasbiy yo‘nalganlik darajasi va ularning o‘ziga xosligini aniqlash uchun tajribada Andijon Davlat Tibbiyot institutining 1-, 2-, 3- va 5-kurs talabalari tanlab olindi.

Kasbiy yo‘nalganlik diagnostikasi juda murakkab jarayon bo‘lib, uning samaradorligi kompleks metodlar yordamida aniqlanishi mumkin. Shu sababdan kuzatish, faoliyat mahsulini tahlil qilish, suhbat, anketa va tabiiy eksperimentlardan foydalanildi. Ishonchli ma’lumotlar to‘plash uchun tajribalarda Ye.P.Ilina va N.A.Kurdyukova tomonidan tavsiya etilgan «Kasbiy yo‘nalganlikni aniqlash» metodikasidan foydalanildi. Ushbu metodika 12 ta savolnomadan tarkib topgan bo‘lib, ular bir qator juft javoblar bilan berilgan. Sinaluvchi istagan 2 ta javobdan 1 tasini tanlashi mumkin.

Har bir to‘g‘ri javob uchun 1 ball beriladi. Ijobiy motivatsiya javoblari «a» javoblaridan 1-6, 8-11 va «b» javoblaridan 7-12 savollariga to‘g‘ri kelsa, qolganlari esa uncha ahamiyatga ega bo‘lmagan savol va javoblardir. 0 dan 12 gacha olingan ballar bilim olishga yo‘naltirilgan ijobiy motivatsiyalar darajasini belgilaydi. Ballning qanchalik yuqori bo‘lishi, demak, kasbiy yo‘nalganlik ham shunchalik yuqori ekanligidan dalolat beradi.

3.2.4-jadval.

Ye.P.Ilin va N.A.Kurdyukovanning «Kasbiy yo‘nalganlikni aniqlash» so‘rovnomasini o‘tkazishda qatnashgan talabalar tarkibi

№	Fakultet	1-kurs talabalari ning soni	2-kurs talabalar ining soni	3-kurs talabalari ning soni	5-kurs talabalari-ning soni	Jami
1	Davolash	55	30	25	30	140
2	Pediatrica	41	39	27	16	123
3	Stomatologiya	32	15	16	20	83
	Jami talabalar	128	83	68	66	346

3.2.5-jadval.

Ye.P.Ilina va N.A.Kurdyukovalarning «Kasbiy yoʻnalganlikni aniqlash» soʻrovnomasini oʻtkazishda qatnashgan talabalarning yosh va bosqichlar kesimida taqsimlanishi

kurslar	qizlar	yigitlar	Talabalarning yoshi														
			16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	34	36
1	146	109	8	13	18	14	17	15	5	2	3	1	-	-	1	1	-
2	129	198	1	6	14	31	34	16	11	5	-	-	-	1	-	-	1
3	55	135	-	-	4	42	44	9	7	2	2	1	1	2	-	-	-
5	1 -	22	-	-	-	-	-	3	2	4	4	-	-	-	1	-	-
Jami	140	206	9	19	36	87	95	43	25	13	9	2	1	3	2	1	1
Foiz	41,6	68,4	1	3,4	17,1	21	23,5	18	7	3	1,1	0,1	0,1	0,3	0,4	0,3	0,1

3.2.6-jadval.

Ye.P.Ilin va N.A.Kurdyukovalarning «Kasbiy yoʻnalganlik» metodikasi boʻyicha soʻrovnoma natijalari

№	Savollar	«a» variant	%	«b» variant	%
1.	Darsdan yomon baho olib kelgandan soʻng uyda...	277	82,0	69	18,0
2.	Yaxshi baho olganingizdan soʻng siz...	290	93,0	56	7,0
3	Siz oʻz olgan bahoyingizdan emas, balki javobingizdan qoniqmagan holatlaringiz boʻlganmi?	269	89,0	77	11,0
4	Siz uchun oʻqish bu:	312	92,0	34	8,0
5	Sizning baholanishingiz darsga tayyorgarligingizga bogʻliqligi?	238	80,0	107	20,0
6	Yomon baho olganingizdan soʻng, siz, notoʻgʻri javobingizni tahlil qilasizmi?	312	91,0	34	9,0
7	Sizning uyga berilgan vazifani tayyorlashingiz uning baholanishi bilan bogʻliqligi?	179	53,0	167	47,0
8	Taʼtildan soʻng darslarga kirishishingiz osonmi?	158	44,0	188	55,0
9	Oʻqituvchi kasalligi sababli dars boʻlmagani uchun achinasizmi?	297	75,0	49	25,0
10	Siz boshqa kursga oʻtganingizda yangi adabiyotlar olasizmi, ulardagi maʼlumotlar sizni qiziqtiradimi?	318	94,0	28	5,0
11	Sizningcha, oʻqish yaxshimi yoki kasal	327	97,0	19	3,0

	bo'lish?				
12	Siz uchun kasb muhimmi yoki bahomi?	19	11,0	327	89,0

Izoh. 346 nafar talaba soniga nisbatan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, so'rovda davolash fakultetining 1-2-3- va 5-kurslaridan 140 nafar, pediatriya fakultetining 1-2-3- va 5-kurslaridan 123 nafar hamda stomatologiya fakultetining 1-2-3- va 5-kurslaridan 83 nafar talaba ishtirok etdi.

Tadqiqot ishi ishonchli bo'lishi uchun boshlang'ich hamda yuqori kurs talabalari tanlab olindi. Bunda talabalarning yoshi, jinsi va oilaviy ahvoli kabi ma'lumotlari ham inobatga olindi. Tajribada 68,4 foizni yigitlar, 41,6 foizni qiz bolalar tashkil etib, 16 yoshdan 36 yoshgacha bo'lgan talabalar qatnashdi (3.2.5-jadval).

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tadqiqotda ko'proq yigitlar qatnashib, ular 206 nafarni, qiz bolalar esa 140 nafarni tashkil qildilar. Yosh jihatidan tahlil qilinganda ularning ko'pchiligi 18 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan talabalarni tashkil etdi. Tajribada 5-kurs talabalarining ishtirok etishi ishga yanada ko'proq mazmun bag'ishlab, tahlil uchun juda qo'l keldi. Sababi 1-kursda ta'lim olayotgan talabalar aksariyatining yoshi 19 ga to'g'ri kelsa, 5-kursda esa to'liq mustaqil fikrga ega bo'lgan 23 yoshdagi talabalar tahsil oladi. Savolnoma bo'yicha olingan natijalarning miqdoriy tahlili foiz ko'rsatkichlarda ifodalandi. Shunga muvofiq har bir ijobiy yo'nalganlikka tegishli bo'lgan savolnomalar alohida tahlil qilindi va 3.2.6-jadvalda ajratib berildi.

Yuqoridagi jadvaldagi natijalardan ko'rinib turibdiki, talabalarning so'rovnomadagi savollarga bergan ijobiy javoblarini sifat jihatidan tahlil qiladigan bo'lsak, undan olingan ma'lumotlarga ko'ra, «Sizningcha o'qish yaxshimi yoki kasal bo'lish?» degan savolga 97 foiz; «Yomon baho olganingizdan so'ng siz noto'g'ri javoblaringizni tahlil qilasizmi?» – 91 foiz; «Siz uchun bilim muhimmi yoki bahomi?» – 89 foiz; «Darsdan yomon baho olib kelgandan so'ng uyda qiladigan ishlaringiz?» degan savolga 82 foiz talaba ijobiy motivatsiya javoblarini

belgilashdi. Ammo talabalarning 44 foizi ta'tildan so'ng darslarga kirishishlari oson emasligini ham ta'kidlab o'tishdi.

Shunisi ahamiyatliki, talabaning yoshi ulg'aygan sari, ya'ni kursdan kursga o'tishida uning kasbiy bilim olishga bo'lgan qiziqishi yanada kuchayib, mas'uliyati oshib, 5-kursga kelganda ularning ko'pchiligi tanlagan kasbiga bo'lgan munosabatini yuqori ballar olishlari bilan isbotlashdi.

Savolnoma o'tkazish jarayonida talabalar o'z fikrlarini katta qiziqish bilan bildirib, kasbiy motivatsiyasiga asosiy turtki beruvchi omil sifatida ta'lim olayotgan guruhi hamda ta'lim muassasalaridagi professor-o'qituvchilarning mahorat bilan o'z kasblariga yondashishlarini ta'kidlab o'tdilar. Suhbat jarayonida ma'lum bo'lishich, institutga kirishdan avval qiziqishi bo'lgan talabalarning ichki yo'nalganligi kuchli bo'lib, ta'lim olish jarayoni erkin, istak va maroq bilan kechishi kuzatildi.

Ammo ota-onasining qistovi va boshqa sabablar bilan o'qishga kirgan talabalarda sharaflilik kasb egasi bo'lishdan ko'ra ko'proq faqat oliy ma'lumotli bo'lish, diplom olish, kelajakda yaxshi maosh olish, ijtimoiy hayotda ortda qolmaslik va h.k. tashqi o'quv motivatsiyasi kuchliroq bo'lgan. Talabalarda tashqi o'quv motivatsiyasining ta'siri mahsuli shundan iboratki, ular tibbiyot institutida o'qitilayotgan ijtimoiy fanlarga nisbatan salbiy munosabatlarini tushuntirib, ko'proq mutaxassislik fanlarini egallash ma'qul ekanligini bildirishdi. Ular bu borada turli mulohazalar bildirib, ayrimlari o'qituvchilarning dars o'tish metodlari yoqmasligini aytishsa, boshqalari behuda vaqt sarflayotganliklari, yana boshqalari fanlarni tushunmasliklarini aytishdi. Shunday qilib, o'rganilgan tajriba natijalari nazariy ma'lumotlariga asoslanib, tibbiyot instituti talabalarida kasbiy shakllanganligini aniqlash yuzasidan diagnostik ishlar amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Talabaning o'quv faoliyati samaradorligi undan muntazam ravishda professional yo'nalganlik darajasini oshirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan olganda, doimiy tarzda talabalarning kasbiy yo'nalganlik darajasini o'rganish va

tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki, professional yo'nalganlik bilim olish, uni amalda qo'llash, kasbiy shakllanishning muhim mezonidir.

Dissertatsion tadqiqotimiz doirasida talabalarning professional yo'nalganlik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar va rivojlanishlarni aniqlashga harakat qildik. Bunga ko'ra, institutga dastlab qabul qilingan talabalarning ikkinchi va uchinchi bosqichga o'tgandan keyingi kasbiy yo'nalganlik darajasini o'rganish maqsadida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan «Talabalarning o'z-o'zini kasbiy yo'nalganlik darajasini baholash» so'rovnomasiga (F.A.Akramova, O'M. Arzikulov) asosan ulardagi kasbiy yo'nalganlik darajalarining o'ziga xos jihatlarni aniqlashga erishdik. Buning uchun 120 nafar 2-kurs talabalari o'zlashtirish ko'rsatkichlarining yuqori, o'rta, qoniqaroli darajalariga asoslanib, 3 guruhga ajratib olindi hamda empirik ma'lumotlar tahlil qilindi. ya'ni:

1. Professional yo'nalganlik yetarli rivojlangan.
2. Professional yo'nalganlik yetarli rivojlanmagan.
3. Professional yo'nalganlik umuman rivojlanmagan.

Buning uchun dastlab biz talabalarga berilgan savollarga diqqat bilan javob berishligi hamda ulardagi eng ko'p aks ettiradigan javob variantini tanlab olishi, uning to'g'risidagi raqamni belgilash vazifalari qo'yildi. (4-ildovaga qarang)

Olingan natijalarni tahlil qilish:

- I. Har bir talabani professional yo'nalganlik indeksi (ko'rsatkichi) aniqlandi. Buning uchun barcha savollarga berilgan javob variantlari yig'indisi hisoblandi va quyidagi me'yor asosida baholandi:

- **64-48 ball** - professional yo'nalganlik yetarli rivojlangan
- **48-32 ball** - professional yo'nalganlik yetarli rivojlanmagan
- **32 va undan kam** - professional yo'nalganlik umuman rivojlanmagan.

Guruh bo'yicha o'rtacha ma'lumotlarni tahlil qilish uchun quyidagi jadval to'ldiriladi.

3.2.7-jadval

Savol №	Tanlangan variantlar soni			
	4	3	2	1
1.	65	33	17	5
2.	63	31	23	3

3.	66	34	16	4
4.	64	29	22	6
5.	60	27	28	5
6.	58	36	19	7
7.	68	37	11	4
8.	64	34	20	2
9.	71	36	12	1
10.	69	31	17	3
11.	74	28	16	2
12.	65	35	15	5
13.	74	31	8	7
14.	78	22	17	3
15.	81	24	11	4
16.	79	17	18	5
Yig'indisi	1173	485	270	66
Ko'paytmasi	1173*4	485*3	270*2	66*1
	4692	1455	520	66
	6733/120			
	56,1			

Jadvaldagi xar bir ustun bo'yicha yig'indi hisoblandi. 1-chi ustunning yig'indisi 4 ga, ikkinchisini 3 ga, uchinchisini 2 ga, birinchisini 1 ga ko'paytirildi. Ko'paytmalar yig'indisi talabalar soniga (**n**) bo'lindi. Natija buyicha professional yunalganlik darajasini 56,1 ni ko'rsatadi.


$$Y = \frac{\sum * 4 + \sum * 3 + \sum * 2 + \sum * 1}{n}$$

64-48 professional yo'nalganlik yetarli rivojlangan

48-32 professional yo'nalganlik yetarli rivojlanmagan

32 va undan kam - professional yo'nalganlik umuman rivojlanmagan.

3.2.1-rasm



Natijalarimiz asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. Birinchi bosqichdagi talabalar uchinchi bosqichga o'tganlaridan keyin ularning kasbiy yo'nalishlari yetarli darajada rivojlanganligini guvohi bo'ldik.
2. Tibbiyot instituti talabalarida kasbiy yo'nalganligining shakllanishida shaxs xususiyatlari asosiy o'rin egallaydi.
3. Shaxsda kasbiy yo'nalganlikning barqarorligi ulardagi qiziqish va turli qarashlarning shakllanganlik darajasiga bog'liq.
4. Kasbiy yo'nalganlikning tarkib topishida shaxsdagi o'z-o'zini anglash va baholash muhim komponent sifatida ko'rsatiladi.
5. Intellektual jihatdan rivojlanganlik shaxsda bilishga nisbatan intilishni kuchaytiradi va kasbiy yo'nalganligining shakllanishida ijtimoiy va shaxsiy motivlar ham muhim omil sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Ushbu metodlar talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirib, ularning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shunday qilib, tibbiyot oliygohlari talabalarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi talabaning shaxsiy xususiyatlari, fazilatlari, ularni olgan bilimlarining mazmuni va amaliyotda qo'llanilishi hamda qadriyatlar tizimiga bog'liq ekan. Tibbiyot oliygohlari talabalarida ta'limga nisbatan ishtiyoq, bilim olishga intilish ularning shaxsiy sifatlari bilan bog'liq holda kechadi.

Ta'lim jarayonida bilimlarni egallashga bo'lgan motivatsiyalar talabalar ehtiyojidan kelib chiqadigan hayotiy pozitsiyalarni, ulardagi shaxsiy qadriyatlarni bildiradi. Talabalardagi motivatsion holatlarga tashxis qo'yish juda muhim vazifa hisoblanadi, negaki ulardagi eng xarakterli faoliyat yoki xulq-atvorga tegishli motivatsiyalar ichki ruhiy ko'rinishdagi yopiq maydon hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar talabalarning yetarli bilim olishlarini, xohish va istak bilan ta'lim olishlarini xohlaydilar, ularning ota-onalari ham farzandlarining oliygohda a'lo baholarga o'qishlarini istashadi. Ammo ko'p hollarda o'qituvchilar va ota-onalar farzandlarining yaxshi o'qimasliklari haqida fikr bildiradilar. Ushbu holatlarni

bartaraf etish uchun oliygoh o‘qituvchilari tomonidan talabalardagi bilim olishga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash, uning paydo bo‘lish omillarini o‘rganish hamda rivojlantirish orqali o‘quv motivlarni shakllantirish talab etiladi.

Oliygo‘h o‘qituvchilari oldidagi eng dolzarb vazifa talabalarning ta‘lim faoliyatlari uchun o‘quv motivlarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi hisoblanadi. Shuningdek, ta‘lim jarayonida talabalarda bilim olish jarayonida sustkashlik yoki qiziqishlarning yetishmasligi kuzatilsa, bunday holat talaba uchun ancha-muncha noqulayliklarni ,muvaffaqiyatsizliklarni keltirib chiqaradi. Talabalar ta‘limning o‘zlari uchun qanchalik muhim ekanligini anglab yetmagunlaricha, ularda o‘quv motivlarini rivojlantirish juda qiyin kechadi.

Shuni tan olib aytish kerakki, hozirga kunda oliy ta‘lim muassasalarida talabalar o‘quv motivlariga unchalik e‘tibor berilmayotgani hamda faqatgina reja asosida tavsiya etilgan mavzularni yetkazish bilangina cheklanish kuzatilmoqda.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, bilimlarni o‘zlashtirish ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda:

1. Talabalarning o‘quv faoliyati tanlangan kasbning ijtimoiy mavqeyini anglab yetish;
2. Talabalarni tanlangan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgan psixologik tadbirlar.

Oliy ta‘lim muassasalaridagi professor-o‘qituvchilarning birinchi vazifasi talabalar tanlangan kasbining kelajakda qanchalik muhimligini tushuntirib berish, dars davomida talabalarni doimo obyektiv ravishda rag‘batlantirib borish orqali ularning kasbiy bilimlarini oshirishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Natijada talabalarning muvaffaqiyat motivlari yanada rivojlanadi, o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishlarining ortishiga sabab bo‘ladi.

§ 3.3. Tibbiyot oliygohi talabalari o‘quv motivlarini rivojlantirishning psixologik modelini joriy etish

Oliygozlarda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadlaridan biri shunday bo'lishi kerakki, ta'lim berayotgan talabalarining tanlagan kasbi va kelajakdagi maqsadi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lishiga erishishlari juda muhim.

Qo'yilgan maqsadlarni motivga aylantirish uchun talabalardan kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyatni anglab yetish hamda tanlagan maqsad yo'lida tinimsiz mehnat qilish talab etiladi.

Bundan tashqari, har bir dars davomida kasb bo'yicha muammoli vaziyatlarni ijobiy hal etish motivlarini shakllantirish talab etiladi, bu esa talabalarda o'quv va kognitiv motivlarining yanada rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Talabalarda yuqoridagi motivlarini shakllantirish va rivojlantirish bilan maqsadlarni to'g'ri qo'yish, uni anglab yetish uchun sharoit yaratadi.

Talabalik davrida nafaqat o'quv va kognitiv motivlar shakllanadi, balki ularda ma'naviy-axloqiy motivlar ham birgalikda rivojlanadi. Bu esa, o'z navbatida, ularda mustaqil hayot uchun istiqbolli qarorlarni qabul qilish, ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan shakllanish qobiliyatlarining ham rivojlanishiga turtki beradi.

Talabalarining ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlarini ijobiy ta'minlash bir nechta o'quv motivlarining umumlashtirilgan holdagi ko'rinishlari bilan nomoyon bo'ladi. Ulardagi eng unumdor motivlar ularning qiziqishlari bilan, qobiliyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan motivlar hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining o'quv motivlarining sustlashishiga sabab bo'luvchi bir nechta omillarni ko'rib chiqamiz:

- talabaning sog'lomlik darajasi. Agarda talaba bilim olishni xohlamasa, birinchi navbatda, uning sog'lomligiga to'liq ishonch hosil qilish kerak, chunki ba'zi bir hollarda, unda psixofiziologik muammolar bo'lishi ham mumkin. Bunday paytlarda o'qituvchilar tomonidan e'tiborli bo'lish va diqqatni jamlash talab etiladi.

Ko'pincha dars paytida talabalarining qoniqarsiz baho olishlari ularning psixologik holatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi tomonidan talabaning "muvaffaqiyatsizligi" haqida gapirilsa, talabaning ong ostida bunday munosabat

yomon xabar bo'lib aks etadi. Bunday yondashuv ijobiy natijalarni keltirib chiqarmasligi mumkin.

- talabalarning ma'lum bir voqelikka nisbatan shaxsiy qobiliyatlari. Ta'lim jarayonida talabalarni o'z yo'nalishi bo'yicha o'tiladigan fanlarga nisbatan qiziqishlarining sustligi bilan ayblamaslik kerak. Masalan, talabaning mutaxassislik fanlariga bo'lgan qiziqishlari yuqori bo'lsa yoki nomutaxassislik fani o'qituvchisi unga ko'proq talablarni qo'yayotgan bo'lsa, u holda talabaning mutaxassislik fanlariga bo'lgan qiziqishlari ham asta-sekinlik bilan sustlashib boradi, bu holatda talaba bilan individual hamda ishonchli suhbat orqali unga shaxsiy qobiliyatiga yaqin bo'lgan yo'nalishga o'tkazish tavsiya qilinadi.

Talabalarning amaliyot jarayonlarida psixologik muloqot qoidalariga qat'iy tarzda rioya etishi bemor insonlarni davolashda hamda ularning tezroq sog'ayib ketishida katta ta'sir ko'rsatadi.

Bo'lajak shifokorlardan talab etildigan asosiy narsa shifokorga nisbatan bemorlarning ishonchi, muhabbati va hattoki hayratini qozonish eng sharaflı ish hisoblanadi. Tibbiyot oliygohiga qabul qilingan talabalarning oilasida shifokor shaxslar faoliyat ko'rsatsa-da, ular tomonidan tibbiyotga oid nazariy bilimlar berilmaydi va ular muammolarni yetarlicha tasavvur qila olmaydilar. Ushbu mas'uliyatli vazifani ado etishda talabalardan malakali va yetuk shifokor mutaxassislarning fikrlarini diqqat bilan tinglash va ular tomonidan o'tkazilayotgan jarrohlik amaliyotlarida juda e'tiborli bo'lish talab etiladi.

Ta'lim jarayonida talabalar kun davomida yoki ba'zida tun bo'yi ham ishlashiga to'g'ri keladi. Bunday paytlarda talabalar doimiy ravishda yangi ,tibbiy adabiyotlardagi ma'lumotlardan samarali foydalangan holda mustaqil o'rganishlar olib borishlari zarur. Oliygoħga kirishda bir qancha qiyinchiliklarni yengib o'tib, institutga qabul qilingan talabalardan o'qish davomida kasbiy qiziqishlari haqida bosh qotirishi, qayg'urishi, eng asosiysi, tinmay izlanishi, o'qib o'rganishi talab etiladi. Ular o'qishning boshlanish davrida depressiv holatlarga ham duch kelishi tabiiy holat hisoblanadi, bunday holatlarda vaqtincha yuz beradigan psixologik kechinmalarga berilmasdan, shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqadigan

imkoniyatlaridan foydalanib kasbiy yo'nalganligi bo'yicha tegishli qarorni qabul qilishlari kerak bo'ladi.

Bo'lajak talabalar amaliyot jarayonlarida bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatishga qiynaladilar, ammo ularning ruhiy kechinmalariga va og'riqlariga alohida e'tibor berishlari talab etiladi. Bemorlar bilan uchrashish uchun astoydil tayyorgarlik ko'rish bilan birgalikda o'zining tashqi va ma'naviy qiyofasi haqida ham bosh qotirishi hamda muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur bo'ladi.

Aksariyat talabalar amaliyot davrida bemor shaxslar bilan to'g'ri muloqot qilishni, doimiy nazoratga olishni, ularga o'tirishda, turishda va yurishda yordam berish kerakligini unutib qo'yadilar. Bo'lajak talabalar klinik amaliyot davrida ustozlarining kichkina hamkasbi hisoblanadi, shuning uchun bor e'tibor bemorlarni davolashga qaratilgan bo'lishi kerak. Talabalar ushbu mas'uliyatni doimo yodda saqlashi kerak. Ko'pincha bemorlarda tibbiy tekshiruvlardan keyin qo'rquv hissi paydo bo'ladi. Bunday paytlarda bo'lajak shifokorlardan bemorlarga to'g'ri maslahat va ruhiy dalda berishlari talab etiladi.

Kasallikning har qanday turidan qat'i nazar, bemorga ruhiy-emotsional holatda ta'sir ko'rsatadi. Bo'lajak shifokorlar bemorlarga nisbatan juda ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari kerak, chunki bemorga ishlatilgan har bir so'z bemor insonning xulosa chiqarishida juda ahamiyatli hisoblanadi. Bilmagani yoki tushunmagan holatlarida ustozlar maslahatlariga tayanish zarur bo'ladi.

Talabalar o'zlarining shaxsiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, doimiy ravishda bemorlarga nisbatan samimiy bo'lishi, jismoniy jihatdan yordam ko'rsatishi zarur, bu bilan esa ularning kasalliklarini ancha yengillatishga sababchi bo'lishlari mumkin.

Tibbiyot oliygohlarida shifokorlarning jamiyatdagi mavqeyi va mas'uliyati to'g'risida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, oliygoh professor-o'qituvchilaridan shifokorlarning ma'naviy qiyofasi haqida eng so'nggi yangiliklar orqali bilim va ko'nikmalar berish talab etiladi. Talabalar shifokorlarning shaxsiy xususiyatlarini hamda ularga juda katta mas'uliyat yuklanganligini his etgan holda

ta’lim olishlari zarur. Zero, bo’lajak shifokorlarning har bitta xatti-harakati bemor uchun salbiy yoki ijobiy xulosalarni chiqarishga sabab bo’lishi mumkin.

Tadqiqotimiz yakunidagi bosqichda tibbiyot oliygohi talabalari o’quv motivlarini rivojlantirishning psixologik modelini joriy etishga harakat qildik. Buning uchun maxsus o’tkazgan metodikalarimiz natijalaridan foydalandik.

Tadqiqotimizda talabalarning kasbiy yo’nalganligi hamda o’quv motivlarini tahlil etishga qaratilgan metodikalar tarkibidagi barcha shkalalar o’rtasidagi bog’liqliklar aniqlab olindi. Natijada, ko’rsatkichlar asosida beshta modelni ishlab chiqishga erishildi. Quyida ushbu beshta modelga asos bo’luvchi psixologik tavsiyalarni keltirib o’tamiz (3.3.1-jadval).

Birinchi modelda talabalar o’quv motivlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir etuvchi holatlar aks ettirildi, bu esa ularning kasbiy yo’nalganligi jarayonida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shunga ko’ra, talabalar o’quv motivlariga ta’sir ko’rsatuvchi modellarning birinchi guruhini **“O’qish istagi va uni xarakterlovchi holatlarning uyg’unlashganligi”** deb nomlash mumkin. Bunday holatlarda o’qish istagi bo’lgan yoshlarni to’g’ri yo’naltirish, ularning xohish-istaklari va qiziqishlariga mos kasb tanlashga ko’rsatma berish muhimligiga asos tug’iladi.

Ikkinchi guruh modeliga bilimlarni egallash, yuqori malakali mutaxassis bo’lish, bosqichlarda muvaffaqiyatli o’qish, doimo stipendiya olish, chuqur va mukammal bilimga ega bo’lish, o’qituvchilarning hurmatiga sazovor bo’lish ahamiyatining yuqori ekanligini inobatga olib, uni **“Bilim, intilish va komillik”** modeli deb nomladik. Bu yerda talabalarning o’quv motivlarida komillik sari intilish kaliti bilim va uni egallashga intilish bo’lib qolmoqda. Bunday sifatlarga ega bo’lish esa, o’z navbatida, talabaning mutaxassis sifatida shakllanish istiqbolini belgilab berishga xizmat qiladi.

Uchinchi modelda esa ham ijobiy, ham salbiy yuqori yuklama koeffitsientlari kuzatilgan bo’lib, kelajakdagi kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta’minlash, o’qituvchilarning talablariga javob berish motivlarida kuzatildi va **“Kasbiy istiqbolda ustozlar rolining yuksakligi”** deb nomlanishiga sabab bo’ldi.

Bu, o'z navbatida, ustozlarning pand-nasihatlariga quloq solish shaxs istiqbolida o'ziga xos o'rin tutishining amaliy isbotlangan holati hisoblanadi.

To'rtinchi modelda esa keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatli o'qish, kelajakdagi kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlash, o'qituvchilarning talablariga javob berish, yuqori darajali koeffitsientlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, ushbu holat **“Ta’lim olish izchillik va uyg’unlikka asoslanadi”**, - deyishga sabab bo'lmoqda. Bu yerda bosqichlarni muvaffaqiyatli o'qish asosida kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlash zarurati va bunga erishishda esa o'qituvchilarning talabalarga yordam berishini anglash yotadi. Bunga bir tizimda joylashgan shaxs faoliyatining izchilligi deb qarash mumkin.

Beshinchi modelimizda kasbni egallash, yuqori malakali mutaxassis bo'lish, o'quv sikllaridagi fanlarni o'zlashtirishni susaytirmaslik, kursdoshlarga nisbatan ibrat bo'lishdan iborat yuqori yuklamali koeffitsientlar ko'zga tashlanib, bu guruhdagi mavqeyi, yuksak istaklar va izchil faoliyatning yakuni sifatida namoyon bo'ladi va uni **«Yuksak istaklar sari intilish»** deyish o'rinli bo'ladi.

Yuqoridagi holat tahlil natijalariga ko'ra talabalarning o'quv motivlariga ta'sir ko'rsatuvchi modellarning rolini ta'lim jarayonida inobatga olish mutaxassislar tayyorlash jarayoni samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.


Biz oldingi paragrafda talabalarning kasb tanlashiga turtki bo'lgan holatlar hamda talabalarning bilim olish motivlarini tahlil etishga harakat qilgandik. Oldingi izlanishlarimiz natijasida tibbiyot yo'nalishida talabalarning kasb tanlashi va tahsil olishiga xizmat qilgan motivlar hamda bilim olish motivlari namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning ayrimlarini aniqlashga erishilgan bo'lsa-da, muammoni izchil davom ettirish zarurati mavjudligi to'g'risidagi taxminlarga tayanishga to'g'ri keldi. Bu esa talabalar o'quv motivlarining shakllanganlik darajasi qanday ekanligini aniqlashga qaratilgandir. Talabalarning mutaxassisliklari bo'yicha kasb tanlash motivlari va uning uzviy davomi - ta'lim muassasasida bilimlarni o'zlashtirish motivlari hamda

motivlar respondentlarini ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlariga mos tarzda qanday xarakter kasb etishini o'rganishga undadi.

Olib borgan tadqiqot orqali talabalarning o'quv faoliyati motivatsiyasining o'ziga xos jihatlari va psixologik determinantlari namoyon bo'ldi. Bundan tashqari, talabalarning ta'lim olish motivlari orasida bilim olishga va kasbiy bilimni egallashga intilish, ularning o'quv faoliyati motivlari kommunikativ, ijtimoiy, o'quv, progressiv, ekspressiv, muvaffaqiyatga intilish, ijtimoiy mavqega intilish, maqsadga intilish motivlarida keng qamrovli ifodalanib, bilim olishga hamda kasbiy bilimni egallashga intilish motivatsiyasi negizida reprezentatsiyalanishi kuzatildi.

Talabalardagi o'quv motivi faoliyatga ta'siri natijasida "muvaffaqiyatga intilish", "kasbni egallashga intilish", "ijtimoiy" motivlar va "progressiv-stenik" hissiy sifatlar orasida ijodiy innovatsion faollikda namoyon bo'lishi "yangilikka ta'sirchanlik" sifati bilan bog'liq motivatsion jihat rivojlanishiga ta'sir etadi. Shaxs o'quv faoliyatida motivatsion soha parametrlarini aniqlashda psixometrik talablarga javob beruvchi diagnostik usullarni qo'llash, natijalarni tahlil qilishda psixologik determinantlarning ta'sirini hisobga olish muhim ahamiyatli bo'ladi, ularning ta'lim olish motivlari orasida bilim olishga va kasbiy bilimni egallashga intilish motivlari differensial dinamik xarakterga ega ekanligi aniqlanib, bu esa faoliyat motivatsiyasining psixologik asoslarini izohlashda yetakchi omil hisoblanadi.

Talabalar o'quv faoliyati motivlari kommunikativ, ijtimoiy, o'quv, progressiv, ekspressiv, muvaffaqiyatga intilish, ijtimoiy mavqega intilish, maqsadga intilish motivlar ko'rinishida keng qamrovli ifodalanib, bilim olish hamda kasbiy bilimni egallashga intilish motivatsiyasi negizida reprezentatsiyalanishi kuzatildi;



3.3.1-rasm. Tibbiyot oliygohi talabalari o'quv motivlarini rivojlantirishning psixologik modeli

Shuningdek, yuqorida keltirilgan modellarni amaliyotga joriy etish orqali talabalarning o'quv faoliyati “muvaffaqiyatga intilish”, “kasbni egallashga

intilish”, “ijtimoiy” motivlar orasidagi integrativ xususiyatlari ijodiy innovatsion faollikda namoyon bo‘ladi, natijada o‘quv faolligida “yangilikka ta’sirchanlik” sifati bilan bog‘liq ravishda talabaning rivojlanishini ta’minlaydi.

Tibbiyot oliygohlari talabalarining o‘quv motivatsiyasini rivojlantirish bo‘yicha “Tibbiyot oliygohi talabalarida kasbiy yo‘nalganlik va o‘quv motivlarining namoyon bo‘lishi” nomli **rivojlantiruvchi dastur** ishlab chiqildi.

Tibbiyot oliygohlari talabalarining o‘quv motivatsiyasini rivojlantirish bo‘yicha “Tibbiyot oliygohi talabalarida kasbiy yo‘nalganlik va o‘quv motivlarining namoyon bo‘lishi!” nomli rivojlantiruvchi dastur.

Dastur bosqichlari:

№	Bosqichlari	Maqsad	O‘tkazish vaqti	O‘tkazish shakli
1	Tashkiliy bosqich	Aloqa o‘rnatish, talabalar jamoasini jipslashtirish		Trening mashqlari
2	Asosiy bosqich	O‘quv motivatsiyasini rivojlantirish		Trening mashqlari
3	Yakunlovchi bosqich	Bilim olishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish, o‘z-o‘ziga bahoni oshirish.		Suhbat (o‘z-o‘ziga bo‘lgan bahosini oshirish uchun tavsiyalar)

Izoh: Rivojlantiruvchi dasturni o‘tkazish muddati 2 oy, haftada 1-2 marta.

Dasturning mazmuni:

I. Tashkiliy bosqich.

Ushbu bosqichda maqsadga erishish uchun, aynan tibbiyot oliygohlari talabalari bilan munosabatga kirishish va uni jipslashtirish uchun quyidagi mashqlar taklif qilindi.

Birinchi kun:

1. Tanishuv.

“Noverbal muloqot» mashqi.

Maqsad: tibbiyot oliygohlari talabalarining o'zaro emotsional-psixologik yaqinligini ta'minlash hamda o'qish bo'yicha bilimni nazorat qilish.

Vaqt: 5-7 minut.

Mashqning borishi: Talabalarining bir-birlariga yuzma-yuz qaragan holatda ikkita aylanani hosil qilishdi, bu tashqi va ichki aylanalar. Boshlovchi buyruq beradi, talabalar juftlik hosil qilgan holatda gapirmasdan buyruqlarni bajaradi. Shundan so'ng boshlovchining buyrug'i bilan tashqi aylanada turganlar bir qadam o'ngga siljiydi. Juftliklarga beriladigan ko'rsatmalar qo'yidagicha tartibda bo'lishi mumkin:

1. Qo'llar yordamida salomlashing.
2. Qo'llar bilan kurashing.
3. Qo'llar bilan yarashing.
4. Qo'l yordamida dalda bering, ko'nglini ko'taring.
5. Qo'llar yordamida achinish bildiring.
6. Xursandchiligingizni bildiring.
7. Omad tilang.
8. Xayrlashing.

Mashqning psixologik mazmuni: noverbal muloqot natijasida talabalar o'rtasida emotsional-psixologik yaqinlik yuzaga keladi. Ular o'rtasida o'zaro tushunish ortadi, noverbal muloqot ko'nikmalari shakllanadi.

Muhokama: Nima oson va nima qiyin bo'ldi? Axborotni so'zsiz yetkazish kimga qiyin bo'ldi? Kimga oson? Sherigingiz axborotni qanday yetkazayotganiga diqqat qildingizmi yoki o'zingiz qanday axborot yetkazish haqida o'yladingizmi? Nima deb o'ylaysiz, bu mashq nimaga yo'naltirilgan edi?

2- mashq

“Ta’lim ishi kelajakdagi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat garovidir”.

Maqsad: Motivlarini boshqarish ko'nikmalarini o'rganish, muayyan motivlarning tabiati haqida bilim olish, o'z tarbiyaviy motivlarini boshqarish ko'nikmalarini o'rganish, o'z-o'zini anglashni faollashtirish, ichki motivatsiyani kuchaytirish.

3-mashq. "Yo'qotilganlarni toping"

Ishtirokchilarga xona bo'ylab harakatlanish orqali undagi barcha narsalarning mavjudligini eslab qolish taklif etiladi. Bir necha daqiqaga ular bu xonani tark etishadi. Trener uchta elementni olib tashlaydi va yashiradi. Ishtirokchilar xonaga kirib, tezroq yashiringan narsalarni topadilar.

4. “O`quv laureati unvonini belgilash” ,uy vazifasini tekshirish.

Guruhda ishtirokchilar o'tgan hafta davomida o'rganishga muvaffaq bo'lganliklari, o'rganishdan quvonch va zavq olishlari haqida gapiradilar. Qanday qiyinchiliklar paydo bo'ldi va siz ularni qanday yengib o'tdingiz? Uyda ishlashda eng muvaffaqiyatli topshiriqlarni bajarish bo'yicha trener "O'quv laureati" unvonini oladi.

5. Motivatsiyani nazorat qiluvchilar yoki faollashtiruvchilar.

Trener trening ishtirokchilaridan so'raydi: "Sizningcha, nimani o'rganish motivatsiyani faollashtiradi yoki oshiradi?". Guruhda albatta javoblar bo'ladi: "Jazolar, imtiyozlardan mahrum qilish, moddiy rag'batlantirish, ota-onalarning roziligi va foydasi, baholar, majburiy zarurat va boshqalar.

Trener tushuntiradi: “Pul, baholar, ota-onalarning tahdidlari, qat'iy muddatlar, nazorat - ular motivatsiyani faollashtiruvchi yoki kuchaytiruvchisi emas, balki ular nazoratchilardir. Siz o‘z xohishingizga ko‘ra emas, balki kattalarning “irodasi” bilan ish tutayotganingizni his qilasiz. Natijada ,siz istaksiz holda o'qiysiz va qobiliyatingiz to'liq rivojlanmaydi, ijodiy salohiyatingiz ro'yobga chiqmaydi.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, subyektlarga qiziqarli boshqotirmalar ustida ishlash uchun pul to'langanda, ularga qiziqish yo'qoladi. Ehtimol, shaxsiy

mustaqillik tuyg'usini boshdan kechirish uchun ichkaridan kelib chiqadigan ehtiyoj bor.

Shunday qilib, ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan tahdidlarni, qat'iy o'rnatilgan nazoratni, baholarni o'smirlar o'zlarining erkinligi va mustaqilligiga zid deb qabul qilishadi, shuning uchun nazorat qilinadigan faoliyatga ishtiyoq va qiziqish kamayadi. Nazorat ostida ekanligingizni his qilsangiz, raqobat sizning erkinligingizni cheklash sifatida qabul qilinadi.

O'qish motivatsiyasini faollashtirish va mustahkamlash uchun, birinchidan, o'qishda barcha ko'nikma va qobiliyatlardan foydalanish, ularni yaxshilash, ikkinchidan, yuqori natijalarga erishishga intilish, uchinchidan, o'rganishning o'z hayoti va boshqa odamlar hayoti uchun ahamiyatini anglash.

Biz ta'lim motivatsiyasining kuchi formulasini tanlab oldik:

O'qishdagi motivatsiya potentsialining ko'rsatkichi (xilma-xillik + intilish + ahamiyati) = muvaffaqiyatga erishish qobiliyati.

Trener ishtirokchilarni har bir ko'rsatkichini o'n balli tizimda baholab, o'qishlarida o'zlarining motivatsion salohiyatini hisoblashni taklif qiladi. Trener ushbu formulani kartonga marker bilan yozib qo'yishni va uni doska ustiga osib qo'yishni taklif qiladi, har safar o'qish paytida u talabaning hamma faoliyatini ushbu formula bilan bog'laydi.

6. Tarbiyaviy motivlarsiz hayot.

Trener ishtirokchilarni hamma o'qiydigan, ammo hech kimda kuchli ta'lim motivatsiyasi bo'lmagan "N" shahrini tasavvur qilishni taklif qiladi. Bu shaharda faqat ta'lim nazoratchilari (jazolar, imtiyozlardan mahrum qilish, moddiy rag'batlantirish, ota-onalarning roziligi, baholar, majburiy zarurat va boshqalar) mavjud. To'garakda trening ishtirokchilarining har biri bu shaharda qanday odamlar yashashi, nima bilan shug'ullanishi haqida gapirib beradi, ularni tasvirlaydi, psixologik portretini (bu odamlarning shaxsiy xususiyatlari) yaratadi.

Bundan tashqari, trener rolli o'yinda ishtirok etishni taklif qiladi, har kim o'zi uchun rolni tanlaydi - u ta'lim motivatsiyasi bo'lmagan shaharda istiqomat qiladi, lekin hamma o'qishga majbur bo'ladi. Buni tayyorlash uchun 10-20 daqiqa vaqt

beriladi. Ushbu psixologik tadqiqot butun guruhda o'tkaziladi. Keyin trener ishtirokchilarni o'zlarini o'zgartirganliklarini tasavvur qilishga taklif qiladi. Trening ishtirokchilarining har biri davrada o'zlarining qanday xususiyatga ega bo'lganligi, o'zini qanday tutishi va harakat qilishi haqida hisobot beradi.

Ikkinchi kun:

1. "Budilnik"

Maqsad: Talabalarda o'quv motivatsiyasini uyg'otadi va faollashtiradi, o'ziga ishonchni mustahkamlaydi, o'zini o'zi qadrlashni o'rganadi.

1. Salomlashish.

Boshlovchi trening ishtirokchilari bilan salomlashadi va kuratorning chap tomonidan boshlab bir-birlari bilan aylana shaklida salomlashishni taklif qiladi. Trening ishtirokchilari tartib bilan salomlashadilar va ismlarini aytadilar. Siz xayoliy nomlardan foydalanishingiz mumkin, agar xohlasangiz, har bir darsda trening ishtirokchilari o'zlarini boshqacha chaqirishlari mumkin.

2. Guruhdan birinchi ko'ngilli tanlab olinadi. Qolgan talabalar aylana bo'ylab stullarga o'tirishadi. Uning vazifasi ishtirokchilarni yorug'lik nuriga ko'ra eng yorqin joydan eng qorong'igacha joylashtirishdir. Yana bir ko'ngilli tanlanadi. Uning vazifasi ovoz balandligi bo'yicha eng tinch joydan eng shovqin joygacha joylashtirishdir. Uchinchi ko'ngillining vazifasi - ishtirokchilarni qo'llarining issiqligiga qarab, eng sovuqdan eng issiqqacha joylashtirish.

2. Meditativ nafas konsentratsiyasi (Nafas texnikasi)

Maqsad: to'laqonli bo'shashish, nafas jarayonini bir maromga keltirish, ichki barqarorlik, emotsional reaksiyaga erishish muvaffaqiyati.

Bajarish vaqti: 3–5 daqiqa.

Bajarish tartibi: qulay joylashib oling. Tanangizni bo'shashtiring. Diqqatingizni nafas olishga qarating. Nafas olishning tabiiy usulini o'zgartirmang, biroq uni nazorat qiling.

O'zingizga: «Men nafas olayotganimni his qilyapman ... nafas chiqarishimni his qilyapman», deb ayting. Mashq bir necha marotaba bajarilgandan

so'ng, parishonlik holati yo'qolib, diqqatning bir joyga jamlanishi mukammallashib boradi.

Izoh: oddiy ekanligiga qaramay, ushbu mashq juda samaralidir. Faqat uni to'g'ri qo'llay bilish zarur.

3.«Yuqori energiya»

Maqsad: qisqa muddatli energiya quvvati va uni to'g'ri qo'llay bilish mahoratini shakllantirish.

Bajarish vaqti: 3 daqiqa.

Bajarish tartibi: tungi yorqin osmonni tasavvur qiling. O'zingiz uchun eng charaqlagan yulduzni tanlang. Mana endi ... uni yutib yuboring ..., u sizning ichingizda yorilib ketib, butun tanangizni energiya bilan to'ldiradi.

Energiya organizmingizning barcha hujayralariga kirib boradi va sizni nimadir qilish, biror narsani o'zgartirish yoki to'g'rilashga undaydi. Dadilroq harakat qiling!

4. Mening tarbiyaviy motivlarim yozilgan sumka.

Ishtirokchilar navbatma-navbat auditoriyaga o'zlarining ta'lim motivlari yozilgan xayoliy sumkani olib kelishlari taklif etiladi. Trener: Kimda og'irroq sumka bor? Uni pastga qo'ying. Ular bitta xayoliy motivni chiqarib tashlashadi va u juda faol bo'lganda ishtirokchi uni faollashtirish uchun nima qilishi haqida gapirib beradi. U tarbiyaviy motivlarini, ular qanday tug'ilganini, qaerdan kelganini, qanday kuchga ega bo'lganini va unga bo'lgan munosabatini va hokazolarni aytib beradi.

5. Eng ishtiyoqsiz talaba.

Trening ishtirokchilari guruhidagi eng g'ayratsiz talabani esga oladilar hamda uni 10 balli shkalada baholaydilar. Keyinchalik, o'qishga eng ko'p g'ayratli bo'lgan talabani esga olishingiz va uni ham xuddi shu 10 ta o'lchovdan foydalanib tasvirlashingiz kerak.

Keyin doskada jadval tuziladi, unda barcha ishtirokchilardan olingan ma'lumotlar umumlashtiriladi.

6. Guruhda natijalarni muhokama qilish.

Trener: "Shunday qilib, siz eng ko'p va eng kam g'ayratli talabalarni ajratib turadigan fazilatlarni sanab o'tdingiz. Sizningcha, ushbu fazilatlardan qaysi biri o'qishga bo'lgan motivatsiya bilan bevosita bog'liq emas? Ishtirokchi talabalar o'zlarining noto'g'ri qarashlarini so'zlarida, imo-ishoralarida qanday qilib beixtiyor uzatilayotganini sezmaydilar. Bunday holda talabalar bu signallarni idrok etadilar hamda o'zlarini biz kutgandek tuta boshlaydilar. Bu eksperimental tarzda tasdiqlangan psixologik qonundir. Ehtimol, ba'zilaringiz hozir o'zingizni bunday talabalar deb hisoblamasangizda, lekin o'z kuchingizga bo'lgan ishonchni yo'qotmaslik, vaziyatni to'g'rilab, past yoki yuqori motivatsiyali hamda muvaffaqiyatli talaba bo'lishingiz mumkin.

7. "Jang motivlari".

Maqsad: qat'iyatlilik, o'z motivlarini va istaklarini boshqarish qobiliyati, o'zlarining qarama-qarshi motivlarini tahlil qilish va muvofiqlashtirish, irodaviy faollik, qat'iyatlilikni rivojlantirish

1. Salomlashish.

Kurator trening ishtirokchilari bilan salomlashadi va kuratorning chap tomonidan boshlab bir-birlari bilan aylana shaklida salomlashishni taklif qiladi. Trening ishtirokchilari tartib bilan salomlashadilar va ismlarini aytadilar. Siz xayoliy nomlardan foydalanishingiz mumkin, agar xohlasangiz, har bir darsda trening ishtirokchilari o'zlarini boshqacha chaqirishlari mumkin.

2. Psixolog talabalarga quyidagicha ko'rsatma beradi: "O'ringizda tik turing, oyoqlaringizni biroz ajratib turing, bir qo'lingizni boshning o'ng tomonida, undan taxminan 20 sm masofa uzoqlikda, ikkinchi qo'lingizni chap tomonda ushlab turing. Tasavvur qiling-a, siz qo'lingizda yengil ipni ushlab turasiz. Tasavvur qiling-a, siz bu ipni oldinga va orqaga tortasiz - birinchi quloq orqali, ikkinchi bosh orqali, uchinchi quloq orqali. Atrofingizga qarang, hamma ham xuddi shunday qilayotganini ko'rasiz, umumiy ishga moslashishga harakat qiling, shunda hammangiz ipni bir xil ritmda tortasiz. Agar hozir kimdir xonaga tashrif buyursa, biz unga bu yerda nima qilayotganimizni tushuntiramiz hamda biz miyamizni tozalaymiz! Biz aniq o'ylashni xohlaymiz, iste'dodlarimizni butunlay

erkin namoyon qila olishini xohlaymiz. Va endi, miyamiz tozalanganda, biz yangi darsga tayyormiz.

2. "Challenj" ,ya'ni uy vazifasini tekshirish

Trening ishtirokchilari, o'z navbatida, kuratorning chap tomonidan boshlab, o'zlarini yengishga muvaffaq bo'lganliklarini va o'zlari xohlamagan holda kerakli narsani qilishlari mumkinligini aytadilar. Trener: Bir vaqtning o'zida qanday qiyinchiliklar paydo bo'ldi va siz ularni qanday yo'llar bilan yengishga muvaffaq bo'ldingiz?

2.O'zining haqiqiy motivatsiyasini kuzatish.

Axborot qismi. "Ko'pincha qarama-qarshi istaklar bizning ruhiyatimizda kurashadi. Bu hodisa psixologiyada "motivlar kurashi" nomi bilan ma'lum. Ba'zan biz ko'proq nimani xohlayotganimizni tushunish qiyin. Sobiq ittifoq davri psixologiyasi shaxsning o'zi uning xatti-harakatlarini boshqaradigan motivni tanlashi kerakligini ta'kidlab o'tgan.

Shu bilan birga, irodasi rivojlangan shaxs kattaroq ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yuqori darajadagi motivlarni tanlaydi yoki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan motivlarni esa e'tiborsiz qoldiradi.

"Agar u burch hissi tufayli motivlardan kelib chiqsa, harakat kuchli irodali bo'ladi" (Stepanova E.I., 1995, 237-bet).

Sechenovning so'zlariga ko'ra, iroda ko'pincha "o'zini himoya qilish tuyg'usiga qaramay" harakatlarni aql yoki axloqiy tuyg'u nomi bilan boshqara oladi, (Sechenov I.M., 1983).

"Iroda umumiy tamoyillar, e'tiqodlar, g'oyalar asosida o'z xatti-harakatlarini tartibga solish qobiliyatini nazarda tutadi va nafaqat ularga xizmat qilish, balki istaklar ustidan hukmronlik qilishni talab qiladi" (Rubinshtein S.L., 1946, 515-bet).

Trener: Endi men barchaga siz motivlar kurashini boshdan kechirgan vaziyatni eslab qolishingizni maslahat beraman.

2-3 daqiqadan so'ng: "Kim ularning kurashi haqida gapira oladi?"

Avval hamma bilan gaplashish uchun vaqt belgilanadi. Keyin o'qituvchi tahlil qilish uchun o'ziga eng mos keladigan vaziyatni tanlashi va guruhni uni

ko'rib chiqishga taklif qilishi kerak. Mashq natijasida guruh a'zolari ulardan biri bilan kurashish o'rniga, qarama-qarshi intilishlarni birlashtirish kerakligini va bu narsa foydali bo'lishini anglab yetishlari muhimdir .

4. Fransuzcha to'qish.

Kurator ishtirokchilarga quyidagi ko'rsatmani taklif qiladi: Endi biz qiyinchiliklarni yengib o'tishni emas, balki belgilangan o'quv mashg'ulotini amalga oshirish uchun turli xil motivlar va istaklar energiyasidan foydalanishni o'rganamiz. Misol uchun, men a'lochi talaba bo'lishni xohlayman, lekin endi men kinoga ko'proq borishni, kechgacha ishlashni, telefonda gaplashishni va kompyuterda yetarlicha o'ynashni ham istayman.

1. Birinchidan, siz erishmoqchi bo'lgan o'quv vaziyatini shakllantiring. Sizga tegishli bo'lgan har qanday vaziyatni o'ylab ko'ring va uni aniq tarzda shakllantiring. Bu vaziyatni qog'ozga yozing.

2. Endi tasavvur qiling, sizning do'stlaringiz yoki o'rtoqlaringizdan biri shunga o'xshash vaziyatlarni amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishmoqchi yoki hatto biron bir tarzda muvaffaqiyatga erishdi. O'z o'rtoqlaringizning muvaffaqiyatlari haqidagi bilimingiz maqsadlaringizni amalga oshirishda sizga qanday yordam berishini aniqlang.

Har safar hayotingizdagi har qanday voqea maqsadga erishish uchun qanday energiya berishini aniqlang. Ushbu voqea sizga qanday yordam berishini o'zingizga doimo eslatib, bu energiyadan foydalaning.

5. Kurash motivlari.

Rolli o'yin. Kurator qarama-qarshi motivlar kurashayotgan talaba rolini o'ynaydi. Ishtirokchilar ikkita teng guruhga bo'linadilar. Ular motivlar rolini o'ynaydilar.

6. Mening tajribam.

Guruh ishtirokchilari o'zlarining o'qishlarida muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikka oid subyektiv tajribalari bilan o'rtoqlashadilar, hayotlarining bunday daqiqalarida boshdan kechirgan his-tuyg'ulari haqida gapiradilar. Qachon tavakkal qilish kerak bo'lganini eslaydilar. Ular, shuningdek, ijobiy tajribalar,

muvaffaqiyat daqiqalarida qanday his-tuyg'ularni boshdan kechirganlari haqida gapiradilar.

7. Muvaffaqiyatli talaba haqidagi ertak.

Trening ishtirokchilari muvaffaqiyatsizlikka intilgan talaba qanday qilib muvaffaqiyatli shaxsga aylangani haqida ertak o'ylab topishadi. Ular buni navbatma-navbat, aylana bo'ylab aytib berishadi, har biri o'ziga xos narsalarni qo'shib aytishlari mumkin.

8. O'zgarish motivlari.

Qalamlar, qog'oz va flomasterlardan foydalanib, ishtirokchilar o'zlarini muvaffaqiyatli insonlar dunyosiga o'tadilar. Unda to'liq ism ko'rsatilishi kerak. Dovon egasi va muvaffaqiyatga erishish uchun unga berilgan fazilatlar yozib chiqiladi. Agar yo'q bo'lsa, u holda o'smirning akademik muvaffaqiyatga erishish uchun ega bo'lishni xohlaydigan fazilatlarini ko'rsatadi.

10. Guruh bilan fikr almashish mashqi.

Kurator quyidagicha ko'rsatma beradi: "Bugungi taassurotlarni bir yoki ikkita so'zga (iboralarga) birlashtiring va unga nom bering). Ishtirokchilar navbatma-navbat vazifani bajaradilar.

9. "Yakuniy dars"

Maqsad: muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiyani rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishish qobiliyatini o'rganish, muvaffaqiyatsizlik qo'rquvini yo'qotish, o'z-o'zini adekvat imidjini shakllantirish, hissiy qulaylikka erishish, real vaziyatlarni o'rnatish qobiliyatini o'rganish, hayotga ishonch muhitini saqlash.

1. Salomlashish.

Kurator trening ishtirokchilari bilan salomlashadi va kuratorning chap tomonidan boshlab bir-birlari bilan aylana shaklida salomlashishni taklif qiladi. Trening ishtirokchilari tartib bilan salomlashadilar va ismlarini aytadilar. Siz xayoliy nomlardan foydalanishingiz mumkin, agar xohlasangiz, har bir darsda trening ishtirokchilari o'zlarini boshqacha nom bilan xam chaqirishlari mumkin.

2. Kulgi salomatlik keltiradi. Ko'ngillilardan biri fotograf rolini o'ynaydi. U aylana markaziga bo'ladi. Qolganlar vaziyatga beparvo mijozlar hisoblanadi. Ular

suratga olish uchun tabassum qila olmaydilar. Fotosuratchi o'z mijozlarini kuldirish uchun hamma narsani bajarib ko'radi, lekin hech kimga yaqinlashmaslik kerak. Agar kimdir tabassum qilsa yoki kulsa, u davradan chiqib ketadi va fotografga aylanadi. Bora-bora davrada qatnashuvchilar ko'payib, bunday holda hamma kulib yuboradi.

3. Oldingi materialni mustahkamlash uchun "Pirog" mashqi.

Har bir ishtirokchi xayoliy pirog pishiradi. Ular buni, masalan, "O'qishdagi muvaffaqiyat", "Mening ta'lim yutuqlarim" deb nomlashlari kerak. Ishtirokchilar navbatma-navbat o'zlarining piroglarining retseptini aytib berishadi, masalan, mehnatsevarlik, sabrli uy vazifasi, haqiqiy maqsad, harakat va boshqalar.

4. Ikkita kema.

Kurator quyidagi ko'rsatmani taklif qiladi: "Tasavvur qilaylik, oldimizda ikkita kema bor. Ulardan biri o'qishga ishtiyoqi yuqori bo'lganlar uchun, ikkinchisi esa o'qishni istamaganlar uchun. Endi har bir ishtirokchiga kemalardan biriga chiqish va sayohatga chiqish uchun ajoyib imkoniyat taqdim etiladi. Iltimos, o'z tanlovingizni bajaring." Trening ishtirokchilari o'zlari uchun kema tanlaydilar. Bundan tashqari, kurator ularga kemalar nomini o'ylab topishni va boradigan joy uchun xarita va marshrutni chizishni taklif qiladi. Shu bilan birga, kurator ishtirokchilarga marshrutni o'ylab topishdan oldin, albatta, o'zlarining sayohat maqsadlarini va unga erishish uchun hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalarni shakllantirishlari kerakligi to'g'risida ko'rsatmalar beradi. Bu vazifa ikkita guruhda bajariladi. U tugallangandan so'ng, aylanada marshrutlarni muhokama qilish kerak.

5. Chamadon.

Kurator: "Biz bir-birimiz bilan xayrlashishimiz kerak, biz ajrallyapmiz, lekin bizda hali ham qishloqlar bor - ular o'zlarining motivatsion o'qish sohalarini rivojlantiradilar, ta'lim motivlarini faollashtiradilar. Endi biz ishtirokchilarning har biri uchun chamadon yig'amiz. Unda ushbu qiyin yo'lda ularga bo'lgan o'z tilaklarimizni joylaymiz. To'garak ishtirokchilarining har biri nomi ko'rsatilgan ishtirokchining o'quv motivatsiyasini kuchaytirish uchun chamadonni kishanga solib qo'yishini aytadi.

5. Guruhda fikr bildirish uchun mashq.

Trening ishtirokchilari juft-juft bo'lib bir-biriga qarama-qarshi turadilar. Ular qo'llarini oldlarida, kaftlarini yuqoriga ko'taradilar. Kurator ko'rsatmalar beradi: "Bugun o'zingiz bilan olib kelgan barcha bilimlaringizni chap qo'lingizga, bugun yangi o'rgangan narsangizni esa o'ng qo'lingizga qo'ying. Va men: "Bajarildi, kel!" Desam, siz "Ha!" Deb, bir ovozda qarsak chalib, qo'llaringizni birlashtirasiz. Ishtirokchilar bir vaqtning o'zida chapak chalishlari shart. Bu ularga guruhga mansublik tuyg'usini va birgalikdagi faoliyatdan qoniqish hissini beradi

3-bob bo'yicha xulosa

Tadqiqot natijalarimiz shuni ko'rsatdiki, tibbiyot oliygohi talabalarida o'quv motivlarining namoyon bo'lishi ularning dars va amaliyot jarayonlarida diqqatni jamlashi, tizimli o'rganishi, o'qishdan qoniqishi bilan bog'liq, ularning muvaffaqiyatli harakatlari natijasida o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usi ortadi, ular mustaqilligi, mustaqil fikrlashi bilan ajralib turadi, ya'ni birinchi o'rinda "kasbni egallash" motivlari, ikkinchi o'rinda "bilimlarni egallash" motivlari, uchinchi o'rinda esa "diplom olish" motivlari shakllanadi.

Qo'shimcha tarzda o'tkazgan test-so'rovnomalar, metodikalarimizga asoslangan holda yana bir nechta modellarni tavsiya etamiz:

Qiziqishlar modeli – bunda asosan talabalarining o'quv faoliyati davomida olib borilayotgan mutaxassislik fanlariga qiziqishi, qiziqishlarni doimiy tarzda saqlashi hamda rivojlantirishi natijasida shaxsiy ehtiyojlari qondiriladi.

Hozirgi "men" va kelajakdagi "men" modeli esa, talabalarining hozirgi va keyingi "men" lari o'rtasidagi bog'liklikni belgilaydi, natijada ularning hozirgi maqsadlari bilan kelajakdagi g'oyalari bir-biri bilan mos keladi, hozirgi kunda o'zining kim ekanligiga ko'proq e'tibor qaratadi hamda kelajakdagi "men"ining shakllanishiga va o'quv motivlarining yanada rivojlanishiga olib keladi.

Talabalar bir-birlari bilan doimiy ravishda raqobatda bo'ladilar, buning sabablari, birinchi tomondan, ijtimoiy omillarning ta'siri bo'lsa, ikkinchi

tomondan esa unga individual omillar ta'sir qiladi. Ko'pincha atrofdagi yaqin insonlar, ustozlar yoki o'z ota-onalarining ta'siri ham kuzatiladi.

Kelajakni belgilash modeli yordamida birinchi navbatda ota-onalar, ikkinchi o'rinda yaqin qarindoshlar, uchinchi o'rinda esa atrofdagi boshqa insonlar bilan munosabatlarga bo'lgan psixologik ehtiyojlar qondiriladi hamda ularning qo'llab quvvatlashlari natijasida o'quv motivlari shakllanadi va rivojlanadi.

Muvaffaqiyatga erishish modelining afzalligi shundaki, uning ta'siri natijasida talabalar o'zining shaxsiy qobiliyatlariga ishonadilar, agarda kutilgan natija sodir bo'lmagan taqdirda ham o'zlarining shaxsiy e'tiqodlarini saqlab qolgan holda muqobil harakatlar orqali qayta sinovdan o'tadilar hamda muammoli vaziyatlarni yengib o'tib, qobiliyati shakllanib, yuqori samaradorlikka erishadilar.

Tibbiyot oliygohi talabalaridan o'quv hamda kasbiy faoliyatlarini rivojlantirish jarayonida, nafaqat bemorlar va ularning yaqinlari o'rtasidagi psixologik muloqotlarni, balki tibbiyot sohasiga tegishli bo'lgan jihozlar bilan ishlash ko'nikmalarini o'zlashtirish ham talab etadi. Shuningdek, bo'lajak shifokorlarni kasbiy tayyorlash jarayonidagi ta'lim metodlari ularning bilim va ko'nikmalarini yetarli darajada rivojlantirishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Bunga eng samarali yondashuvlardan biri shuki, oliygoh o'qituvchilarining eng asosiy vazifasi turli mavzulardagi ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil etish, amaliy mashg'ulotlar sonini ko'paytirish hamda institutlar qoshida tashkil etilgan simulyatsion markazlarda talabalarning bilimlarini mustahkamlashdan iboratdir. Chunki simulyatsion markazlarda olib borilgan amaliyot jarayonlarida talabalar bemorlar bilan ishlashdagi xato va kamchiliklarini tuzatish, ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirish, shu bilan birga, davolashning samarali yechimlarini topishga erishadilar.

Bundan tashqari, psixologik treninglar jarayonida o'lim yoqasida turgan bemorlarning yaqinlari bilan qanday munosabat o'rnatish lozimligi haqida ham yetarlicha mahoratga ega bo'ladilar.

Tibbiyot oliygochlari talabalarni o'qitishda psixologik bilimlarning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, shifokorlik nafaqat tibbiy jihozlar bilan ishlashni,

balki bemorlar va ularning yaqinlari o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatli holatlarga to'g'ri yechim topish, turli xil ko'rinishdagi empatiyaviy holatlarda muloqot ko'nikmalarini ham yaxshi o'zlashtirish kerakligini talab etadi.

Oliygo' professor-o'qituvchilar tomonidan simulyatsion markazlarda olib boriladigan treninglar jarayonida esa, talabalar kasbiy yo'nalganligini rivojlantirish maqsadida ular uchun yetarli bilimlarga asoslangan ssenariy dasturlari ishlab chiqish, ishlab chiqilgan trening dasturlari davomida talabalar haqiqiy bemorlar bilan ishlashda qo'rquv hamda xavfli holatlarni, xato-kamchiliklarni oldini olish ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishlari kerak.

Treninglar ssenariylarini tayyorlashda rol o'yinlar mavzusidagi mashqlar ham alohida ahamiyat kasb etadi, chunki talabalar ushbu treninglar davomida bemor va shifokor rollarni ifodalash orqali bir-birlari bilan muloqot o'rnatish, hamdardlik hissini ham boshdan kechiradilar, natijada, kasbiy faoliyatlari jarayonida hech qanday muammolarsiz faoliyat olib borishlari ta'minlab beriladi.

Shuningdek, oliygo' o'qituvchilaridan talabalarda mutaxassislik fanlarini o'qitishda muammoli vaziyatlardan chiqish va ularni bartaraf etish ko'nikmalarini ham shakllantirish talab etiladi, chunki bunday yondashuv yordamida talabalarda tanqidiy mulohaza yuritish, bemorlar va ularning yaqinlari bilan samarali muloqot qilish, qiyin vaziyatlarda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari ham shakllanib boradi.

Bulardan tashqari, tibbiyot oliygo' talabalarining o'quv motivlarini rivojlantirish uchun ularga institut psixologlari tomonidan haftada bir marotaba psixologik treninglar o'tkazib borish ham yaxshi samara beradi, unda meditatsion usullardan, ya'ni to'g'ri nafas olish, sog'lom ovqatlanish mavzularida qiziqarli va ta'sirchan usullardan samarali foydalanishlarini o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan psixologik yondashuvlar bo'lajak shifokorlarning kasbiy yo'nalganligini hamda ularning o'quv motivlarini rivojlantirishda samarali ta'sir ko'rsatadi, bu esa kasbiy faoliyatlari jarayonida bemorlar va ularning yaqinlari

o'rtasida empatik holatlarni boshqarish, kasalliklarni samarali holatda davolash ko'nikmalari shakllanishiga ham olib keladi.

Oliy ta'lim muassasasining o'ziga xos jihati shundaki, u bo'lajak mutaxassislarda o'quv faoliyat motivlarini faollashtira olishi lozim. O'quv motivlar talabaning bilim egallash, ilmiy- ijodiy faoliyatga intilish motivlarini o'zida aks ettiradi. Empirik natijalarimizga ko'ra, o'quv motivlarni talabalarda dinamik tarzda ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Mazkur motivning talabalardagi dinamik xususiyatlarini quyidagi mexanizm asosida tushuntirish mumkin:

birinchi kurs talabasi dastlab ilmiy tushunchalar mohiyatini o'zlashtirishi, bor e'tiborini ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga qaratishi lozim va bu holat ko'proq o'quv motivlari differensiatsiyasida rivojlanib boradi.

ikkinchi kursga kelib, ta'lim yo'nalishlari spesifikasidan kelib chiqqan holda talabalar kurs ishi yozish texnikasi bilan tanisha boshlaydilar, natijada ilmiy farazlarni shakllantirishni o'rganadilar va ilmiy motivlar dominantlik qila boshlaydi,

uchinchi kursga kelib, o'quv va ilmiy motivlar o'zaro uyg'unlashib, o'quv motiv sifatida namoyon bo'la boshlaydi. Chunki talaba endi nafaqat o'quv ma'lumotlari bilan ishlay boshlaydi, balki o'quv ma'lumotlarini ilmiy farazlar asosida qayta ishlashni, ilmiy tafakkur yuritishni, ma'lumotlarni ilmiy jihatdan tahlil qilishni hamda innovatsion g'oyalarni kasbiy faoliyat doirasida qo'llashni boshlaydi. Shu tariqa, o'quv motivlar talabaning kasbiy shakllanishiga olib keladi.

XULOSA

«Tibbiyot oliygohi talabalarining kasbiy yo'nalganligi hamda ularda o'quv motivlari namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari» mavzusidagi olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. Tibbiyot muassasalarida ishlash uchun o'quv, kasbiy hamda axloqiy motivlarning yetarli darajada shakllanganligi, bemorlarga yordam berish istagi, kasbiy sohada doimiy ravishda o'zini takomillashtirish, shifokor sifatida ishlashga tayyorligi muhim ekanligi ko'rinadi.

2. Talabalarga shifokorlik kasbining juda katta mas'uliyat talab etishini, tanlagan kasbidan faqatgina moddiy manfaatlarni qondirish quroli sifatida emas, balki jamiyat uchun yetuk mutaxassis bo'lish, bemorlarga hayot berishda yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lish kerak ekanligini anglash imkoni ko'rinadi.

3. Tibbiyot oliygohini bitiruvchi talabalarining aksariyat qismi tanlagan kasbi bilan shug'ullanish istagining kuchliligini bildirib, o'zlari kutayotgan ish haqi, tanlangan mutaxassislikning tibbiyot olamidagi ahamiyati va nufuzi bilan qiziqishadi, lekin chekka hududlarda shifokorlik kasbini tark etishlari katta muammo hisoblanadi.

4. Tibbiyot oliygohi talabalaridagi kasbiy yo'nalganlik «qochish», «ijtimoiy mavqe», «ijodiy o'z-o'zini amalga oshirish». «kognitiv», «ijtimoiy» motivlar rivojlanishidagi differentsial farqlarning mavjudligi tufayli o'quv motivlarining namoyon bo'lishiga identiv ekanligi dalillandi.

5. Tibbiyot oliygohi talabalarida o'quv motivlarining darajaviy ifodalanishiga ko'ra, bilimga nisbatan ichki motivlarning o'quv faoliyatida tashqi shaxsiy, shaxslararo munosabatlarda, ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi bilan bog'liq motivlarga uyg'un holda dinamik tarzda namoyon bo'lishi tufayli ularda «kasb egallash» motivlari ustuvor xarakterga ega ekanligi asoslandi.

6. Talabalarining kasbiy shakllanishida o'z-o'zini boshqarish, tafakkur, diqqat xususiyatlarining empatiyaviy yo'nalganlik negizida ta'limning ijtimoiy motivlariga bog'liq differentsial ifodalanishi tufayli kommunikativ sifatlarning tibbiy jarayonlar davomida integrativ rivojlanishi muhim ekanligi isbotlandi.

7. Tibbiyot yo'nalishi talabalarining kasbiy yo'nalganligi va o'quv motivlari darajasini baholashda kommunikativ, emotsional, irodaviy sifatlarni o'zaro integrativ namoyon bo'lishi muhimligiga ko'ra, «motivatsion-irodaviy», «tahliliy-baholovchi», «qadriyatli-ijodiy» kabi kasbiy yo'nalganlikning mezonlari o'rganildi

va tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari asosida ushbu amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hozirda nima uchun aynan tibbiyot yo'nalishlariga kirish sabablarini tushunishi, anglab yetishi talab etiladi va shu motivlarni shakllantirish orqali talabalarning kasbiy yo'nalganliklarini ta'minlashga erishiladi.

2. Tibbiyot oliygohi kafedralarida o'qitishga, umumiy madaniy va kasbiy bilim va ko'nikmalarga qadriyatli munosabat muhitini yaratish, kasbiy muvaffaqiyatga erishish uchun barqaror motivatsiya, burch va mas'uliyat motivlarini shakllantirish zarur bo'ladi.

3. Talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini juftlik, guruh va jamoaviy tashkil etish shakllari orqali o'quv faoliyatini kuchaytirish hamda ta'limning turli tashkiliy shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Ta'limning ko'rgazmali, didaktik va texnik vositalaridan foydalanish, talabalarga operativ fikr bildirishga imkon berish, vizual ma'lumotlarga ega bo'lgan vazifalarni tayyorlash va ularni amaliy bajartirish, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish hamda yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahat berish orqali ularni boshqarish kerak.

5. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalar o'rtasida subyekt-subyekt hamkorligini shakllantirish, talabalar uchun amaliy ahamiyatli jarrohlik darslarni o'tkazish vaziyatlarini tashkil etish; talabalarning qiziqish va ehtiyojlarini, oqilona talablarini hisobga olish.

6. Talabalarning shaxsiy qobiliyati, individual salomatlik darajasini oshirish bo'yicha maqsadli ishlarni tashkil etish ham juda muhim. Neyro-emotsional stress, qarorlar qabul qilish uchun vaqt yetishmasligi, kasbiy mas'uliyat, shifokorlar ishining o'ziga xos xususiyatlari, kasbiy faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarga moslashish qobiliyatini aniqlash zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.— Toshkent: O'zbekiston, 2023 - 40 b.
2. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28 -yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risi”da PF-60-son.**[https:// lex.uz/docs/5841063](https://lex.uz/docs/5841063)
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”da Qonuni. Toshkent shahar., 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son. <https://lex.uz/docs/5013007>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab quvvatlash to'g'risida”gi Farmoni. –T.: 2017. –1-3-b.
5. “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim – tarbiya va ilm- fan sohalarini rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risidagi”.Farmoni. <https://lex.uz/docs/5085999>

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asar va nutqlari

6. Mirziyoyev Sh.M. „Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. –Toshkent.: O'zbekistan NMIU.2016. –56- b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.Nyu-York shahri 2017- yil 19- sentyabr.,„Ma'rifat” gazetasi. 2017- yil 20- sentyabr №75 (9036). –1-2-b.

8. Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”. –T.: O‘zbekiston. 2016- y. –47-b.
9. Mirziyoyev Sh.M. „Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. T.: “O‘zbekiston”. 2017. - 48 b..
10. Mirziyoyev Sh.M. „Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. T.: “O‘zbekiston”, 2019.- 488 b.
11. Karimov I.A. „Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch”. Toshkent.: “Ma’naviyat”. 2008. –176- b.

III. Kitob, monografiya, risola, dissertatsiya avtoreferati, maqolalar

12. Ананев Б.Г. Избранные психологические труды. В двух томах. Т. I. – С-Петербург: СПбГУ, 2007. –232 с.
13. Ananyev B. G. Chelovek as knowledge subject. - SPb: St. Petersburg, 2001. –282 p.
14. Abdullayeva B.S. „Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quv-ilmiy faoliyati motivasiyasining psixofiziologik determinantlari”. Monografiya. -T.: “BOOKmany print” nashriyoti, 2021 y.-162 b.
15. Almardanova S.B., Talabalar kasbiy shakllanishi psixologik muammo sifatida”. Xalq ta’limi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligining ilmiy-metodik jurnali. Toshkent. 2021 yil. 103-106-b
16. Андреева Г.М. Психология социального познания: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений / Г.М. Андреева. - М.: Аспект Пресс, 2000. - 288 с.
17. Barotov Sh.R. Psixologik xizmat. – Toshkent: “Navro‘z”, 2018. – 96 b.
18. Берн, Э. Игры, в которые играют люди: психология человеческих взаимоотношений. Люди, которые играют в игры: психология человеческой судьбы. М.: издательство «ГрандФаир-пресс», 2002 - 427 с.

19. Бирюлин В.А. Особенности мотивационной сферы будущих учителей и психологов: дис.канд.психол.наук. Самара. 2007. 188 с.
20. Бодров В.А. Психология профессиональной пригодности. Учебное пособие для вузов—М..ПЕРСЭ, 2001— 511с.
21. Beruniy («Qimmatbaho toshlarni bilib olish haqida ma'lumotlar to'plami» «Minerologiya») kitobidan. Tanlangan asarlar, IV jild. - T., 1974. 25-b.
22. Бурлачук Л. Ф., Морозов С. М. Словарь-справочник по психодиагностике. СПб.: издательство «Питер Ком», 1999 – 528 с.
23. Водопянова Н.Е., Старченкова Е.С. Психическое «выгорание» и качество жизни // Психологические проблемы самореализации личности / под ред. Л.А. Коростылевой. - Вып 6. - СПб.: Изд-во СПбУ, 2002.
24. Водопянова Н.Е. Ресурсное обеспечение противодействия профессиональному выгоранию субъектов труда: автореф. дис. ... д-ра психол. наук. - СПб., 2014. – 48 с.
25. Васянович, Г.П. Педагогическая этика [Текст]: Учеб.-методич. пособие / Г.П. Васянович. – Львов, «Норма», 2005. – 344с.
26. Волоскова, Н.Н., Дрожжина, Н.Б. Исследование нравственности в отечественной психологии [Текст] / Н.Н. Волоскова, Н.Б. Дрожжина// Значение прикладной психологии в новейшей истории России: Матер. Всероссийской научной интернет-конфер. – Ставропол, 2005. –188-192с.
27. Выготский, Л.С. Психология [Текст] / Л.С. Выготский. – М.: ЭКСМО-Пресс, 2000. – 1008 с.
28. Громкова М.Т. Психология и педагогика профессиональной деятельности: Учебное пособие для вузов. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003. — 415 с.
29. Габдреев Р.В. Психологические механизмы овладения профессиональной деятельностью. / Р.В. Габдреев, А.И. Фукин. Набережные Челны, 2000. — 143 с.
30. Dolimov S, Dolimov U ,, Qobusnoma '' Kaykovus. –Toshkent: Yangi asr avlodi, - 2016.

31. Донцова М.В. Психологическое сопровождение профессионально-личностного становления студентов-психологов: дис.канд.психол.наук.Москва. 2009. 310 с.
32. Дружинин В. Психология. Учебник для гуманитарных вузов.- СПб.: Питер, 2001. -656 с
33. Дубовицкая Т.Д. К проблеме диагностики учебной мотивации. Вопросы психологии. – 2005. – 73 – 78 с.
34. Григорева, М.В., Ткачева, М.С. Психолого-педагогическое взаимодействие участников образовательного процесса [Текст]: учеб.-метод. пособие / М.В. Григорева, М.С. Ткачева. – Саратов: «Научная книга», 2017. – 202 с.
35. Jabborov A. M. O'qituvchi etnopsixologiyasi. –Qarshi.: “Nasaf”.2015. 180- b.
36. Jalilova S.X., F.I.Haydarov, N.I.Xalilova. “Kasb psixologiyasi”.Nizomiy nomidagi TDPU – 2010.
37. Жданова С.П. Психологическое сопровождение профессионального развития студентов-психологов: Томск. дис.канд.психол.наук. 2007. 252 с.
38. Загвязинский, В.И. Общая педагогика [Текст]: Учебное пособие / В.И. Загвязинский, И.Н. Емелянова. – М.: Высш. шк., 2008. –127-148с.
39. Забродин Ю.М. Психодиагностика. М.: Эксмо . 2009. 214. 549 с.
40. Зеер Э.Ф. Психология профессий: уч. пособие для студентов вузов. – М.: Академический Проект, 2003. – 336 с.
41. Зеер, Э.Ф. Психология профессионального образования: учебник для вузов— 2-е изд., испр. и доп.— Москва: Издательство Юрайт, 2023. — 395 с.
42. Знаков, В.В. Психология понимания мира человека[Текст] / В.В. Знаков. – М.: «Институт психологии РАН», 2016. – 488 с.
43. Irisov A. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlari.- Toshkent: O'qituvchi, 1994.- B.; 47.
44. Илин Е.П. Психология воли. СПб.: Питер, 2002. - 288 с.
45. Karimova.V.M. Ijtimoiy psixologiya.T.:Universitet.2000.196-b

46. Karimova.V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. O'quv qo'llanma.T., "Universitet".1999.95-b.
47. Karimova V.M., Akramova F.A., Hayitov. O.E., Lutfullaeva N.X. Psixologiya: Darslik - TDIU, 2006. 360- b.
- 48.Капустина А.Н. Социально психологическая диагностика профессиональных качеств личности: Дисс. канд. психол. наук. Л. -1985.- 222 с.
- 49.Карандашев, В.Н. Психология. Введение в профессию / В.Н. Карандашев.—М.:Академия, 2003.—382с.
50. Климов Е.А.Психолог введение в профессию. Москва. Издательский центр «Академия».2011. –208-с
51. Кудряцова А.Ф., "Лучшие психологические тесты для профотбора и профориентатора "Москва,1992 г.
52. Кудрявцев Т.В. Психология профессионального обучения и воспитания. - М.: МЭИ, 1985. 108 с.
53. Курбатова Т.Н. Тренинг коммуникативной компетентности//Практикум по социально-психологическому тренингу/Под ре. Б.Д. Парыгина. СПб., 1994 260 с.
54. Ковал, Н.А. Духовност в системе профессионального становления специалиста [Текст]: дис. ... д-ра психол. наук / Н.А. Ковал. – М., 1997. – 464 с.
55. Крюкова Т. Л. Психология совладающего поведения. Кострома: Авантитул. 2004. –343 с.
- 56.Климов Е.А. Образ мира в разнотипных профессиях: Учеб. Пособие. М: Изд-во МГУ, 1995. - 224с.
- 57.Климов, Е.А. Психологияпрофессионала: избр.психол.тр/Е.А.Климов.— М.:Изд-во Моск.психол.-сос. ин-та; Воронеж :МОДЕК, 2003.—456с.
- 58.Колесникова Л.Д. Формирование личностно-профессиональной самоидентичности студентов-психологов в процессе обучения в вузе: дис.канд.психол.наук. Воронеж. 2007. 238 с.

59. Кон И.С., Психология ранней юности: книга для учителя / И.С. Кон. – М.: Просвещение, 1989. –252 с.
60. Qadimiy epos “Avesto” – oilada tug‘ilgan farzandlar qiz bola yoki o‘g‘il bola bo‘lish.
61. Muqaddas “Hadisi sharif” ota-onalarning farzandlar oldidagi burchlari.
62. Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asari
63. Леонтев В.Г. Психологические механизмы мотивации.- Новосибирск.: НГПИ, 1992.-216 с.,70-с.
64. Леонтев Д. А. Психология смысла. М.: Смысл, 1999 - 487 с.
65. Маркова А.К. Психология профессионализма М.:Фонд«Знание»,1996.– 308с.
66. Маслоу, А. Мотивация и личность [Текст] / А. Маслоу. –СПб.: Питер, 2016. – 400 с.
67. Matnazarova K.O. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi (boshlang‘ich ta’lim misolida) PhD dissertatsiyasi Avtoreferati. Toshkent. 2022 y. 12-b.
68. Милорадова, Н.Г. Психология и педагогика [Текст] / Н.Г. Милорадова. – М.: Гардарики, 2005. – 335 с.
69. Мухторова А.Э. Педагог-психологларни касбий фаолиятга тайёрлашнинг психологик хусусиятлари. психол.ф.ф.докт. дисс. ... - Т., 2022.- 32 б.
70. Мудрик, А.В. Социально-педагогические проблемы социализации [Текст]: Монография / А.В. Мудрик. – М.: МПГУ, 2016. – 310 с.
71. Мухина, В.С. Возрастная психология. Феноменология развития [Текст] / В.С. Мухина. – М.: «Академия», 2006. – 608 с.
72. Миронов Г.А. Формирование профессиональной субъективности будущих психологов: дис.канд.психол.наук. Москва. 2010. 148 с.
73. Мясищев В. Н. Психология отношений: Избранные психологические труды. Москва-Воронеж: Институт практической психологии, 1998 - 362 с.

74. Файзулаев А.А. Мотивационная саморегуляция личности. Ташкент. 1987. 43с.
75. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix.f. dok. dis. - T., 2005.- 391 b.
76. Nishanova Z.T., Qurbonova Z, Abdiev S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. Tafakkur bo'stoni, 2011.8-b
77. Nishanova Z.T., Alimbaeva SH.T., Sulaymonova M.V.. Psixologik xizmat. Toshkent, 2013. 6-b
78. Невзоров В.П. Профессиональное становление учителя в системе многоуровневого университетского образования в регионе. Дис канд. пед. наук. М., 2003.
79. Norqo'ziyev D.B. Shaxsda hayotiy strategiyalar shakllanishining psixologik xususiyatlari. PhD dissertatsiya ishi avtoreferati. Toshkent. 2022.5-b.
80. Общая и профессиональная педагогика / Под ред. В.Д. Симоненко. М.: Вентана-Граф, 2006. –368 с.
81. Овчапова П.В. Практическая психология образования : учеб. пособие / Р. В. Овчапова. М.: Изд. центр «Академия», 2003. 448 с
82. Олпорт Г. Становление личности: Избранные труды. – М.: Смысл, 2002. – 462 с.
83. Повапенков Ю.П. Психологическое содержание профессионального становления человека. М.: Изд-во УПАО, 2002. - 160 с.
84. Пяжников Н.С. Психология труда и человеческого достоинства: учеб. пособие для студентов высш. учеб. заведений / Н.С. Пряжников. – М.: Академия, 2001. – 408 с.
85. Пугачев, В.П. Тесты, деловые игры, тренинги в управлении персоналом: Учебник для студентов вузов. М.: Аспект Пресс, 2002. - 285 с.
86. Пеплз Ф. Практика гештальттерапии. М.: Ин Леонтев, А.Н. Лекции по общей психологии [Текст] / А.Н. Леонтев. – М.: Смысл, 2001. – 511 с.
87. Rasulov A.I. Shaxsning o'zini o'zi baholash usullari. Maqola. Jurnal Psixologiya. 2022. 83-b.

88. Райгородский Д.Я., Практическая психодиагностика. Методики и тесты. Учебное пособие / Редактор составитель. - Самара: Издательский Дом «Бахрах - М», 2002. - 672 с.
89. Рубинштейн С. Л. Бытие и сознание. Человек и мир. СПб.: издательство «Питер», 2003 - 508 с.
90. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии / С.Л.Рубинштейн. -СПб.: Питер, 2001. - 720с.
91. Sagindikova N.J. Talabalar o‘quv faoliyatida mas’uliyatning gender xususiyatlari. T.: «Fan va texnologiya», 2016, 120 bet. UDK:159.947.23
92. Стенкова В.И. Педагогическая практика как фактор развития профессиональной компетентности будущих психологов, преподавателей психологии: дис.канд.психол.наук. Улан-Уде. 2007. 214 с.
93. Степанова Л.Н. “Прогнозирование индивидуальных профессионально-ориентированных траекторий развития личности студентов (на примере студентов гуманитарных факультетов)”авторф. Дисс. ... канд.пс.наук .Казан 2022, 26 с.
94. Старостина Н.Н.Профессиональное самоопределение как важная составляющая профессиональной социализации личности Журнал Научное обозрение. Педагогические науки. 2017. № 5 . –174-177 с.
95. Tulyaganova G.O.Talabalik davrida individual imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishning psixologik omillari. PhDdissertatsiyasiavtoreferati.Toshkent.2021.8-15-b
96. TuraxonovA.E.Talabalarda kasbiy mas’uliyat shakllanishining psixologik xususiyatlari. PhD dissertatsiyasi avtoreferati.Toshkent.2022.5-11-b
97. Ubaydullayev N.T. Talabalik davrida o‘zini-o‘zi boshqarishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. PhD dissertatsiyasi avtoreferati.Toshkent.2021.11-16-b
98. Usmanova Sh.D. Shaxsning kasb tanlashi va kasbiy shakllanishining psixologik aspektlari. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) 2022.82-83-b

99. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.- 320 b.
100. Forobiy. Mukammal ta’lim haqida risola. – T.: O‘zbekiston FA. Sharqshunoslik instituti. Inv. 62385. XXVII. 328 a.var.
101. Фетискин Н.П., Козлов В.В., Мануйлов Г.М. Социально-психологическая диагностика развития личности и малых групп. - М.: Изд-во Института Психотерапии, 2005. 215 с. 57-59с.]
102. Фпанкл В. Человек в поисках смысла. М.: издательство «Прогресс», 1990 - 367 с.
103. Фромм Э. Бегство от свободы. М.: Издательство «Прогресс»: Универс, 1990-252 с.
104. Фромм Э. Человеческая ситуация. М.: Издательство «Смысл», 1995-239с.
105. Фрейд А: Психология и защитные механизмы. Издательство. Питер. 2022. –160 с.
106. G‘oziyev E. Oliy maktab psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997. – 100 b.
107. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 420 b.
108. Shukurova O‘.U. Talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘nalganligining ijtimoiy-psixologik jihatlarini PhD dissertatsiyasi Avtoreferati. Toshkent. 2022. 19-b
109. Xoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. - T.: «O‘qituvchi», 1996. 79-b.
110. Yusupova F. I. O‘quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlarini. "Xalq ta’limi" jurnali. 2005. №5. 90-93-b.
111. Yusupjonova I.A. Pedagogika yo‘nalishi talabalari kasbiy shakllanishining psixologik xususiyatlari. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2022. 11-15-b.
112. G‘oziyev E. G‘., K.K. Mamedov. Kasb psixologiyasi. Toshkent. 2003-yil.
113. G‘oziev E. G‘. Umumiy psixologiya. –T.: 2010. 544- b.

114. G'oziev, E.G'. Ontogenez psixologiyasi nazariy eksperimental tahlil. Toshkent - 2010.
115. Sharipov A. Abu Rayhon Beruniy. Toshkent. "Fan" 1999. 144-b.
116. Шадриков, В. Д. Проблемы системогенеза профессиональной деятельности. М.: Наука, 1982. - 185 с.
117. Шевченко О.Ю. Учебно-профессиональная установка в структуре профессионального сознания студентов вузов. авторф. Дисс. ... канд.пс.наук . Самара 2004, 28 с.
118. Шибаева Г.Е. Динамика рефлексивно-эмпатийных свойств личности в процессе профессионального становления студентов: дис.канд. психол. наук. Москва. 2010. 236 с.
119. Цагарелли, Ю.А. Теория и практика системной диагностики человека: Учеб. пособие. Казан: Таглимат, 2002. - 167 с.

IV. Xoriyiy tildagi manbalar

120. Baldwin R. You Are Your Child's First Teacher [Text] / R. Baldwin. – N.Y.: Berkeley, 1998. – 284 p.
121. Bell A. Bringing Moral Cognition and Moral Action [Text] / A. Bell. – N.Y.: Teachers College Press, 2012. –34-58 p.
122. Berk L.E. Child development [Text] / L.E. Berk. – Boston, London, 1994. – 322 p.
123. Breakwell G.M. Social representation and social identity / G.M.Breakwell // Papers on social representations. - 1993. - V.2 (3). - P. 198-217.
124. Clark A. Child Development: A Topical Approach [Text] / A. Clark. – N.Y.: Wiley & Sons, 2013. – 221 p.
125. Crain W. Theories of Development: Concepts and Application [Text] / W. Crain. – New Jersey: Prentice Hall, 2014. – 143 p.
126. Du Toit S.J., Kruger N. The Child: An Educational Perspective [Text] / S.J. Du Toit, N. Kruger. – Durban: Butterworths, 2014. – 175 p.

127. Super.D.E.The psychologyofcareer.–N.Y.,1957.–P.400.
128. Weber H. Breaking the rules: Personal and social responses to coping norm-violations // Anxiety, Stress and Coping: An International Journal. 2003. 16. 2. 133-153.

V. Internet saytlari

129. [https://psystady.ru > index, php article, view](https://psystady.ru/index.php/article/view); [https://kuberlenika, ru](https://kuberlenika.ru);
[https://elar, uspu.ru, bitstream, uspu](https://elar.uspu.ru/bitstream/uspu).
130. <https://www.aproiri-nauka.ru>
131. <https://www.koob.ru>
132. <https://www.Lex.uz>
133. <https://www.disertat.ru>
134. <https://www.psyh.uz>
135. <https://www.works.doklad.ru>
136. <https://tltaudit.ru/uz/medicinal-plants/professionalnoe-stanovlenie-i-samorealizaciya-lichnosti-sposob>
137. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/05/27/unemployment-world/>
138. <https://uza.uz/uz/posts/-30-09-2020>
139. <https://cyberleninka.ru/article/n/teoriya-mnozhestvennogo-intellekta-g-gardnera-i-ee-printsipialnoe-znachenie-dlya-sovremennogo-obrazovaniya>
140. <https://www.livelib.ru/book/1000307594-struktura-razuma-teoriya-mnozhestvennogo-intellekta-govard-gardner>
141. <https://vo.hse.ru/article/view/15153/14208>
142. <http://testoteka.narod.ru/ms/1/05.html>